

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

**Qo'lyozma huquqida
338.45 (575.1)**

MUXTAROV MAXMUDJON MARIFOVICH

**TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING IQTISODIY
FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar: Madrahimov Ulug'bek Abduxalilovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Andijon – 2023-yil

MUNDARIJA

KIRISH	5
I BOB. SANOAT KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGINING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI	
1.1.§ Sanoat korxonalarini iqtisodiy samaradorligining ilmiy-nazariy jihatlarini.....	13
1.2.§ Sanoat korxonalarini iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarning o'ziga xos xususiyatlari.....	25
1.3.§ Iqtisodiy samaradorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar va uni baholashning uslubiy jihatlarini.....	36
II BOB. ANDIJON VILOYATI TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI TAHLILI	
2.1.§ Sanoat tarmog'ining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari.....	48
2.2.§ To'qimachilik korxonalarida iqtisodiy samaradorlik darajasi tahlili.....	62
2.3.§ To'qimachilik korxonalarini iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	79
III BOB. ANDIJON VILOYATI SANOAT KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	
3.1.§ Andijon viloyati to'qimachilik sanoati korxonalarini klasterli yondashuv asosida samaradorligini oshirish yo'llari.....	95
3.2.§ To'qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish.....	108
3.3.§ To'qimachilik korxonalarini iqtisodiy samaradorligini ekonometrik tahlili va istiqbollari.....	118
XULOSA	128
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	130
ILOVALAR	139

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda iqtisodiy o‘rishni ta‘minlash, eksport ko‘lamini kengaytirish va innovatsiyalarni tarmoqlarga keng joriy etishda sanoat korxonalarini samaradorligini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jahon banki ma‘lumotiga ko‘ra, «sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2021-yilda Xitoyda 48,6 %ni, Turkiyada 44,0 %ni, Indoneziyada 48,1 %ni, Qozog‘istonda 31,5 %ni, Vengriyada 24,6 %ni, Qirg‘izistonda 20,8 %ni»¹ tashkil etgan. Jahon iqtisodiyotida pandemiya ta‘sirida vujudga kelgan beqarorlikning oldini olish hamda korxonalarda ishlab chiqarish hajmini oshirishni ta‘minlashning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda globallashtirish sharoitida sanoat korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirishga oid ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Sanoat tarmog‘i rivojlanishida to‘qimachilik sanoati korxonalarini iqtisodiy natijalari ta‘sirini baholash, ularning rivojlanishidagi ustuvor omillarni aniqlash, resurslar sarfini me‘yorlashtirish asosida aholi bandligini ta‘minlash, sanoatning ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan oqilona foydalanish, hududlarning mavjud imkoniyatlari hisobiga korxonalar faoliyatini ixtisoslashtirish, ishlab chiqarish tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish va unga omillar bog‘liqligini ekonometrik modellar asosida imkoniyatlarini tadqiq etish bu boradagi ilmiy izlanishlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarda to‘qimachilik sanoati korxonalarini faoliyatini barqaror rivojlanishini ta‘minlashga, uning sanoat mahsulotlari tarkibi, ish bilan bandlik va eksportdagi ulushini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, «Ip-kalavani chuqur qayta ishlash va tayyor mahsulotlar eksporti hajmini 5 mln. AQSh dollariga yetkazish

¹ <https://geographyofrussia.com/20-stran-mira-s-naibolshej-dolej-promyshlennosti-v-strukture-vvp>.

hamda sohada ish o‘rinlarini 570 ming nafarga yetkazish»² bo‘yicha vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda to‘qimachilik sanoati korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan optimal foydalanish, samarali talabga asoslangan holda ishlab chiqarish va bozor aloqalarini yo‘lga qo‘yish, to‘qimachilikda raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda to‘qimachilik sanoat korxonalarini iqtisodiy natijalariga omillar ta‘sirini baholash asosida prognoz parametrlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi, 2021-yil 16-noyabrdagi PF-14-son «Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2020-yil 5-maydagi PF-6079-son «Raqamli O‘zbekiston-2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-dekabrda VMQ-747-son «Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2022-yil 21-apreldagi VMQ-204-son «2022-2026-yillarda Andijon viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi va 2019-yil 24-iyuldagi VMQ-622-son «2019-2022-yillarda Andijon viloyatining sanoat salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlarida keltirilgan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari Maykl Dyorj, M.Zeng, R.S.Kaplan, K.Ding, N.Menkyu, D.P. Norton, P.Oiang va G.Stigler³ singari xorijlik olimlarning ilmiy ishlarida chuqur tadqiq etilgan.

MDH iqtisodchi olimlaridan I.A.Borodin, A.Volkova, S.M.Voronova, A.S.Gorshokov, I.V.Gorsonskaya, I.A.Gunina, Yu.P.Lyutova, B.A.Rayzberg, T.D.Sinyaves⁴ va boshqalar tomonidan ham o‘rganilgan.

O‘zbekistonda Sh.N.Zaynutdinov, R.I.Nurimbetov, B.T.Salimov, M.Bo‘taboyev, B.O.Tursunov, E.X.Maxmudov, A.M.Kadirov, I.Yu.Umarov, M.Isaqov, A.Avazov, Z.M.Irmatova, D.K.Kudaynazarova, M.F.Mahmudov, D.Ro‘ziyeva, N.I Rustamov va Z.Shoxo‘jayeveva⁵ kabi iqtisodchi olimlar sanoat

³ Джордж М. Бережливое производства + шесть сигм в сфере услуг. /Перевод с английского. – М., 2017 г.; Мэнкью Н.Г. Принципы макроэкономики. 4-е изд. Пер с англ. – СПб.: Питер, 2009 г.; G.J.Stigler «Essays in the History of Economics». – Chicago: The University of Chicago Press, 1965 у.; P.C. Каплан, Д.П. Нортон «Сбалансированная система показателей. От стратегии к действию». 2-е изд., исп.и доп. – М.: ЗАО «Олимп-Бизнес», 2012 г.; K.Ding, P.Jiang, M.Zheng «Environmental and economic sustainability - aware resource scheduling for industrial product service systems». Journal of intelligent manufacturing, aug. 2017 у.

⁴ Бородин А.И. Экономическая эффективность предприятия как фактор его устойчивого развития. // Экономика. 2021 г.; Герсонская И.В. Научные подходы к экономической категории «эффективность государственного сектора». // Вестник Евразийской науки, 2020 г.; Воронова С.М. Экономическая эффективность предприятия и принцип альтернативности. //Менеджмент, Государственное и муниципальное управление. Теория и практика сервиса: экономика, социальная сфера, технологии, 2020 г.; Горшков А.С. Разработка научных и методологических принципов повышения эффективности использования энергетических ресурсов на предприятиях текстильной и легкой промышленности и снижения энергоемкости выпускаемой продукции: автореф. дис. доктор экон. наук. – Санкт-Петербург, 2019. -С.25.; Райзберг Б.А. Методология и критерии оценки эффективности государственного управления и регулирования экономики. //Проблемы экономики и юридической практики, 2017 г.; Снявцев Т.Д. О развитии категории эффективность менеджмента организации с позиции ноосферного мышления в экономике. // Инновационная экономика и общество, 2018 г.; Гунина И.А., Лютова Ю.П. Оценка эффективности использования основного капитала промышленного предприятия. // Экономинфо, 2020.; Волкова А. и др. Методы и показатели экономической эффективности сельскохозяйственного производства. // Известия ДВФУ. Экономика и управление, 2017 г.

⁵ Avazov A. Sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasi. – Toshkent, 2021-y.; Bo‘taboyev M., Kambarov J. Raqamli iqtisodiyot. Darslik. – F.: «FarPI» nashriyoti, 2022-y. 103 b.; Зайнутдинов Ш.Н., Нуриббетов Р.И. Ресурсная база и потенциал производство Узбекистана: использования и эффективность (Региональный аспект). Статья. Бюллетень науки и практики – Bulletin of Science and Practice научный журнал (scientific journal) №10 2017 г. <http://www.bulletennauki.com>.; Isaqov M., Ro‘ziyeva D. O‘zbekiston sanoatidagi tarkibiy siljishlar. Monografiya. – T.: TDIU, 2019-y.; Kadirov A.M. Sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta‘minlash mexanizmlarini takomillashtirish («Andijonneft» AJ misolida) mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019-y.; Tursunov B.O. Korxonada faoliyatini boshqarishni takomillashtirishda ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanish mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019-y.; Kudaynazarova D.K. Iqtisodiy-ekologik sharoitda sanoat korxonasini rivojlantirish strategiyasi» mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019-y.; Mahmudov M.F. Hududlarda sanoatni rivojlantirishda ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish yo‘nalishlari (Qashqadaryo viloyati misolida) mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019-y.; Shadmanov Sh.Sh. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ishlab chiqarish infratuzilmasini mutanosib rivojlantirishning nazariy asoslarini takomillashtirish mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020-y.; Shoxo‘jayeveva Z. Impact of Labor Efficiency on the Development of

korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan.

Yuqorida qayd etilgan ilmiy tadqiqot ishlarida sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini resurs sarfi, ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish darajasi, mehnat omili asosida o'rganilgan bo'lsa-da, biroq to'qimachilik korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirishga mahsulotlar diversifikatsiyasi va iste'moli ta'siri yetarlicha o'rganilmagan. Bu esa iqtisodiy samaradorlikni to'qimachilik sanoatida o'rganish mahsulotlar iste'moli xususiyatlaridan kelib chiqib oshirish bilan bog'liq masalalar mavzuni tanlash uchun asos bo'lgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishi rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Andijon mashinasozlik institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq IK-6/3-11-raqamli «Hududning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirishning innovatsion yo'nalishlari» (2022-2026 yillar) mavzusidagi ilmiy tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi to'qimachilik sanoati korxonalari faoliyati iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

sanoat korxonalari iqtisodiy samaradorligining ilmiy-nazariy jihatlarini bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlar qarashlarini tizimlashtirish;

sanoat korxonalari, xususan, to'qimachilik sanoati korxonalarida iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini yoritib berish;

JSC «Dunyo M» Academic Journal of Digital Economics and Stability. Published in Aug-2021 y.; Irmatova Z.M. To'qimachilik korxonalari mehnat resurslaridan samarali foydalanishda boshqaruv tahlili usullarini takomillashtirish. mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2018-y.; Rustamov N.I. Sanoat tarmoqlarini ichki imkoniyatlaridan samarali foydalanish asosida rivojlantirish: i.f.f.d. (PhD) avtoreferati. – Toshkent, 2018-y.; Умаров И.Ю. Пути повышения эффективности предпринимательской деятельности в повышении конкурентоспособности предприятий пищевой промышленности. // Региональные проблемы преобразования экономики, №1, 2019 г.

iqtisodiy samaradorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini tasniflash hamda mos baholash usullarini ishlab chiqish;

Andijon viloyati to'qimachilik sanoati korxonalarini rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalarini ochib berish hamda iqtisodiy samaradorligini baholash;

to'qimachilik sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini klasterlashtirish hamda raqamli texnologiyalar asosida samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

to'qimachilik korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirish istiqbollari ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Andijon viloyati to'qimachilik sanoati korxonalarini tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti to'qimachilik sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llarini takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, empirik baholash, omilli tahlil, tanlanma kuzatish, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, statistik tahlil, qiyosiy tahlil hamda iqtisodiy-matematik modellashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Qo'rg'ontepa tumanining Qorasuv shahridagi sobiq paypoq ishlab chiqarish fabrikasi hududida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan kichik sanoat zonasini tashkil etish taklifi asoslangan;

Baliqchi, Buloqboshi va Izboskan tumanlari sobiq ip-yigiruv fabrikalari hududida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan to'qimachilik korxonalarini tashkil etish taklifi ilmiy asoslangan;

ishlab chiqarish-maydonlari va quvvatlarini to'liq ishga tushirish hisobiga to'qimachilik sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligining 2026-yilga qadar prognoz parametrlari ishlab chiqilgan;

sanoat salohiyatidan samarali foydalanish, sanoatning tarmoq va hududlari bo'yicha diversifikatsiya darajasini oshirish hisobiga to'qimachilik korxonasi diversifikatsiya samaradorligini 2026-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari va unga ta'sir etuvchi omillarni ifodalovchi ko'rsatkichlar hamda ularni baholash usullari takomillashtirilgan;

to'qimachilik korxonalarining iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi manbalar asosida ko'p omilli regressiya modeli ishlab chiqilgan;

to'qimachilik mahsulotlarini diversifikatsiyalash asosida yangi turdagi mahsulot ishlab chiqarishni o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalarini modernizatsiyalash, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va mahsulot hajmini oshirishni baholash uslubiy yondashuvi ishlab chiqilgan;

sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni baholash asosida mahsulot iste'moli va samaradorlik ko'rsatkichlarining prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda foydalanilgan ilmiy-nazariy qarashlar asosida to'qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini qiyosiy va tanqidiy tahlil ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi va «O'zto'qimachilik sanoati» uyushmasining statistik hisobotlari hamda Andijon viloyati yetakchi korxonalarining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi bilan asoslanadi. Olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilmiy ishda ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalar sanoat korxonalarini, xususan, to'qimachilik sanoati korxonalarida yoritilgan miqdoriy usullar va ilmiy xulosalar rivojlanish tendensiyasi asosida baholangan.

Amaliyotda ishlab chiqarishni tashkil etishni klaster tizimi va raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida rivojlantirish istiqbollarini belgilash, olingan natijalar asosida sanoat korxonalarini iqtisodiy faoliyatlarini takomillashtirish, ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, ulardan Andijon viloyatidagi to'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'yicha maqsadli dasturlarni tayyorlashda va oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlari bo'yicha darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda ilmiy-uslubiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. To'qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida:

Qo'rg'ontepa tumanining Qorasuv shahridagi sobiq paypoq ishlab chiqarish fabrikasi hududida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan kichik sanoat zonasini tashkil etish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-iyuldagi VMQ-622-son «2019-2022-yillarda Andijon viloyatining sanoat salohiyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorining 5-ilovasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi «O'zto'qimachilik sanoati» uyushmasining 2022-yil 29-sentabrdagi 03/14-2781-son, Andijon viloyati hokimligining 2023-yil 9-martdagi 08/25-157-son ma'lumotnomalari). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida to'qimachilik sanoati korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligining 1,4 foizli ijobiy o'zgarishiga erishilgan;

Baliqchi, Buloqboshi va Izboskan tumanlari sobiq ip-yigiruv fabrikalari hududida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan to'qimachilik korxonalarini tashkil etish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-iyuldagi VMQ-622-son «2019-2022-yillarda Andijon viloyatining sanoat salohiyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorining 1-ilovasida foydalanilgan (O'zbekiston

Respublikasi «O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasining 2022-yil 29-sentabrdagi 03/14-2781-son, Andijon viloyati hokimligining 2023-yil 9-martdagi 08/25-157-son ma’lumotnomalari). Mazkur ilmiy natijalardan foydalanish orqali tuman va shaharlarda to‘qimachilik sanoati korxonalarini samarali tashkil etish hisobiga soha ishlab chiqarish hajmining viloyat sanoat mahsulotlaridagi ulushi 0,3 foizga, ish bilan band bo‘lganlardagi ulushi 0,4 foizga samarali ijobiy o‘zgarishiga erishish imkoni yaratilgan;

ishlab chiqarish-maydonlari va quvvatlarini to‘liq ishga tushirish hisobiga to‘qimachilik sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligining 2026-yilga qadar prognoz parametrlaridan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-apreldagi VMQ-204-son «2022-2026-yillarda Andijon viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorining 1-ilovasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi «O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasining 2022-yil 29-sentabrdagi 03/14-2781-son, Andijon viloyati hokimligining 2023-yil 9-martdagi 08/25-157-son ma’lumotnomalari). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida mavjud ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan maqbul foydalanish hisobiga to‘qimachilik sanoati korxonalarining rivojlantirish parametrlarini maqsadga muvofiq begilash orqali samaradorlikni oshirish imkoni yaratilgan;

sanoat salohiyatidan samarali foydalanish, sanoatning tarmoq va hududlari bo‘yicha diversifikatsiya darajasini oshirish hisobiga to‘qimachilik korxonasining diversifikatsiya samaradorligini 2026-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlaridan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-apreldagi VMQ-204-son «2022-2026-yillarda Andijon viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorining 1-ilovasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi «O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasining 2022-yil 29-sentabrdagi 03/14-2781-son, Andijon viloyati hokimligining 2023-yil 9-martdagi 08/25-157-son ma’lumotnomalari). Mazkur taklifni amaliyotga joriy

etish natijasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va mahsulotlar turining to'qimachilik korxonalariga ta'sirini baholash hisobiga diversifikatsiyani rivojlantirish ko'rsatkichlarini begilash asosida uning samaradorligini oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 1 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 5 ta ilmiy maqola, shundan 1 tasi xorijiy va 4 tasi mahalliy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, uning hajmi 146 betdan iborat.

I BOB. SANOAT KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGINING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI

1.1.§ Sanoat korxonalarini samaradorligining ilmiy nazariy jihatlarini

Sanoat korxonalarini rivojlantirish bugungi kundagi asosiy vazifa hisoblanadi. Mamlakatlarning siyosiy va iqtisodiy intilishlari, iqtisodiy jihatdan integratsiyasi sanoat asosida o'z ifodasini topadi. Natijada tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatlari yuzaga keladi. Bunda yangi texnologiyalarni joriy etish mamlakat ishlab chiqarish ko'lamini samarali va sifat jihatidan rivojlanishini ta'minlaydi.

Jahonning rivojlangan davlatlari amaliyotida ham mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlaridan foydalanish darajasi aholi turmush farovonligiga bevosita bog'liq. Sanoat korxonalarini rivojlanishi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini yaxshilash bilan birga aholi turmush darajasini oshiradi va aholi bandligini ta'minlaydi.

Mamlakatda sanoat korxonalarini iqtisodiy va innovatsion salohiyatini yaxshilash, iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirish natijasida iqtisodiy samaradorlikka erishishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Sanoat tarmog'ini rivojlantirish asosida mavjud ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishni yaxshilanadi, hamda aholini ish bilan bandligini ta'minlashga katta hissa qo'shadi.

Bugungi kunda mamlakat sanoat korxonalarini mahsulotlari ichki va tashqi bozorda xaridorlar orasida talabga ega bo'lib, yangi is'temol bozorlarga kirib bormoqda. 2021-yilda mamlakat eksport hajmi 16,6 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan-yilga nisbatan 10 foizga ortgan. Eksportning asosiy ulushi sanoat mahsulotlariga to'g'ri kelib, 26,1 foizga yetgan. To'qimachilik, rangli metallar, temir va po'lat metallar eksporti o'tgan-yilga nisbatan 7 foizga ortgan, ya'ni mahsulotlar eksport geografiyasi, 2021-yili 70 dan ortiq mamlakatni tashkil etgan⁶. Shunday bo'lsada mavjud ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish asosida yuqoridagi ko'rsatkichlarni yanada oshirish zarur. Buning uchun birinchi

⁶ <https://www.gazeta.uz>. 2022.01.21.trade

navbatda sanoat mahsulotlariga bo'lgan talabni chuqur tadqiq etish ichki imkoniyatlarga muvofiq ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish zarur.

Ushbu vazifalar asosida ishlab chiqarish imkoniyatlaridan unumli foydalanish, ishlab chiqarish vositalarini zamonaviylashtirish, bozor talabiga mos ravishda ishlab chiqarishni tashkil etish, raqobatbardoshlikni ta'minlash va mehnat unumdorligini oshirish zarur. Bunda sanoat korxonalarini amaliyotdagi iqtisodiy holatini baholash asosida samaradorligini o'rganish, samaradorlikka ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va samaradorlikni oshirish bo'yicha kompleks tadqiqotlar olib borish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Ma'lumki, ishlab chiqarishni rivojlanishi ikki xil miqdor va sifat yoki ekstensiv va intensiv tarzda amalga oshadi. Agar takror ishlab chiqarish sohasi omillar sarfi hisobiga kengaytirilsa, ekstensiv sur'atdagi rivojlanish, aksincha yangi texnologiyalarni joriy qilish esa intensiv tarzdagi ishlab chiqarish yuzaga keladi. Hech bir mamlakat iqtisodiyoti va uning soha hamda tarmoqlari ishlab chiqarishning bir turiga mansub bo'lmaydi.

O'zbekiston sanoatida ana shu ikki yo'ldan oqilona foydalanish natijasida ishlab chiqarish samaradorligi o'sib bormoqda. Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi ham ishlab chiqarishni intensiv rivojlantirishga qaratilgan. Bu esa sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ishlab chiqarish vositalarini modernizatsiyalash, boshqaruvni oqilona yuritish shakllarini joriy etishga asoslanadi. Bunda, birinchi navbatda sanoat korxonalaridagi mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlaridan foydalanishni yaxshilash maqsadga muvofiqdir. Ishlab chiqarish imkoniyatlaridan foydalanish darajasi bevosita iqtisodiy samaradorlikni ta'minlovchi omil hisoblanadi.

Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlik tushunchasiga turlicha yondashuvlar mavjud hamda tadqiqot ishida bir qator talqinlardan foydalanilgan. Jumladan, samaradorlik bilan bog'liq izlanishlarni ikkiga ajratishimiz mumkin. Birinchi yo'nalishda samaradorlikni to'g'ridan-to'g'ri faoliyat natijasi bilan bog'liqlanishlarni qarab o'tamiz. Ikkinchi yo'nalishda esa samaradorlikni nisbiy

kattalik sifatida qarab o‘tilgan tadqiqot ishlarni tahlil qilamiz. Yoki, yuqoridagi yo‘nalishlarni mutloq va nisbiy kattalik sifatida tadqiq etamiz.

Dastlab, birinchi yo‘nalishga oid izlanishlarga to‘xtalib o‘tamiz. Jumladan, I.V.Gorsonskaya tadqiqotlarida samaradorlik muayyan turdagi faoliyat natijasida ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, faoliyat natijasini ifodalaydi⁷ deb takidlagan.

A.Ortiqov tadqiqotlarida ham samaradorlik o‘rganilgan bo‘lib, uning fikricha «samaradorlik - bu, foydalilik, natijalilikdir». Ma’lumki, qandaydir natija olish uchun mehnat qilish, mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish kerak. Samaradorlikni aniqlash uchun olingan natijani sarflangan xarajat yoki resurslarga nisbati orqali aniqlanadi⁸ deb baholagan.

T.D.Sinyavets samaradorlikni funksional maqsadga erishish uchun ijtimoiy, iqtisodiy maqsadlar va talab ko‘rsatkichi o‘rtasidagi bog‘liqlik⁹, deb e’tirof etadi.

M.Isaqovning tadqiqotlarida «samara – ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat), foyda va daromad hajmini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish, sifatsiz mahsulot ishlab chiqarishni kamaytirish yoki umuman, yo‘q qilish bilan bog‘liq bo‘lgan korxonalar faoliyatining ijobiy natijalaridir. Bu yutuqlarni natural shaklda ishlab chiqarish samarasini, pul shaklida esa iqtisodiy samarani tavsiflaydi»¹⁰ deb ta’kidlangan.

I.A.Borodin tomonidan esa «samaradorlik» tushunchasi «natija beruvchi» sifatida talqin qilinsa, «samara» tushunchasini «faoliyat natijasi» orqali ifodalagan¹¹. Umumiy holda yuqorida qarab o‘tilgan tadqiqotlarda samaradorlik natijaviy kattalik sifatida qarab o‘tilgan, ya’ni mazkur ta’riflarda samaradorlik va samara tushunchalari uyg‘unlashtirib yuborilgan. Chunki ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi va ko‘rsatilgan xizmatlar samarani ifodalaydi. Samaradorlikda

⁷I.V.Герсонская Научные подходы к экономической категории «Эффективность государственного сектора» // Вестник Евразийской науки, 2020 г. №2.

⁸A.Ortiqov «Sanoat iqtisodiyoti» Darslik «Sano-standart» nashriyoti T.:2014-yil 104 bet.

⁹T.Д.Синявец О развитии категории «Эффективность менеджмента организации» с позиции ноосферного мышления в экономике // Инновационная экономика и общество. – 2018 г. – №4 (22). – Ст. 13–18.

¹⁰M.Isaqov, D.Ro‘ziyeva «O‘zbekiston sanoatidagi tarkibiy siljishlar». –Toshkent.: Monografiya, TDIU, 2019-y. 166 bet.

¹¹A.И.Бородин. «Экономическая эффективность предприятия как фактор его устойчивого развития» Журнал «Экономика». 2021-г. 163-171 ст.

esa natijaviy ko'rsatkichni sarfga nisbatan o'zgarishini e'tiborga olishimiz zarur. Shu bois, aksariyat izlanishlarda mazkur yo'nalishda tadqiqot ishlari olib borilgan.

Ikkinchi yo'nalish bo'yicha esa B.A.Rayzberg o'zining tadqiqotlarida «ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi - bu ishlab chiqarish jarayonining natijasi hisoblanib, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi va ishlab chiqarish kuchlaridan foydalanish darajasi, resurslar sarfi o'rtasidagi nisbat asosida ifodalanadi»¹² deb ta'riflagan.

Q.X.Abdurahmonov o'zining «Mehnat iqtisodiyoti» darsligida «samaradorlik» tushunchasini keng ma'noda, u olingan samaraning sarflarga nisbatini aks ettiradi¹³ deb ta'kidlagan.

A.O'lmasov va A.Vahobovlar o'zlarining «Iqtisodiyot nazariyasi» darsligida «samaradorlik – bu resurs sarflari bilan ishlab chiqarishdan olingan natijaning taqqoslanishini bildiradi»¹⁴ degan fikrni bildirganlar.

Sh.Shodmonov fikricha samaradorlikning iqtisodiy mohiyatini – «ishlab chiqarish natijasi bilan unga avanslangan resurslar, mablag'lar yoki sarflangan xarajatlar o'rtasidagi nisbat tushuniladi. Turli ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar sharoitida esa jamiyat maqsadidan kelib chiqib, samaradorlik muammosining tub mohiyati o'zgaradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida esa ishlab chiqarishning asosiy maqsadi foyda olishga qaratilganligi sababli, har bir iqtisodiy sub'ekt ko'proq foyda olishga intiladi. Shuning uchun ham ishlab chiqarish samaradorligi olingan foydaning ishlab chiqarishga sarflangan resurslar qiymatiga nisbati bilan aniqlanadi»¹⁵ deb ta'riflagan.

Sh.Mamatov «samaradorlikni muhim ko'rsatkichi (Key performanse indisetor asosiy ish koeffitsiyenti, ya'ni natija va sarflangan resurs o'rtasidagi nisbat) o'rganilib, sanoat korxonalarini strategik va taktik maqsadlarini amalga oshirish asoslari keltirilgan. U xodimlar, bo'limlar va butun korxonadagi

¹²Б.А.Райзберг «Методология и критерии оценки эффективности государственного управления и регулирования экономики» журнал Проблемы экономики и юридической практики 2017 г. №5. 13-17 ст.

¹³К.Х. Абдурахманов. «Экономика труда». Теория и практика: Учебник: - Москва: ФГБОУ ВО «РЭУ им. Г. В. Плеханова», 2019 г.

¹⁴А.О'lmasov, А.Vahobov «Iqtisodiyot nazariyasi» (Darslik) (to'ldirilgan va qayta ishlangan nashri). - T.: «Iqtisod-moliya», 2014-y. 41-42-bet.

¹⁵Sh.Sh.Shodmonov. «Iqtisodiyot nazariyasi». Darslik. – T.: 2020-y. 87-bet.

ishchanlik faolligini nazorat qilish asoslarini o‘rgangan»¹⁶. Samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholashda xarajat va daromadning o‘zaro nisbati, jalb qilingan kapitalning foydalilik darajasi, aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini foydalilik darajasi asosida baholab bergan.

S.M.Voronova samaradorlik tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi: «...samaradorlik korxonaning asosiy ko‘rsatkichi hisoblanib, iqtisodiy faoliyat natijasida olinadigan daromadlar va sarflangan xarajatlarning nisbati asosida aniqlanadi»¹⁷.

A.S.Gorshkov «to‘qimachilik sanoati korxonalarida energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini baholab, material birligi uchun resurslar sarfi o‘zgarishini samaradorlikka ta’siri»¹⁸ ni o‘rgangan.

E.V.Korobeynikova evolyusion rivojlanish nuqtai nazaridan samaradorlikni baholashga yondashuvlar tasnifini taklif qilgan. U ko‘p mezonli, xarajatli, tavakkalchilikka yo‘naltirilgan va integratsiyalashgan yondashuvlar asosida samaradorlik mezonlarini ishlab chiqqan. Sanoat korxonalarining faoliyat yuritish strategiyalari va iqtisodiy natijalarini o‘zaro mutanosibli mezonlari asosida samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholangan bo‘lsa, mahsulot ishlab chiqarish hajmi va mahsulot narxiga ishlab chiqarish xarajatlari ta’sirini ifodalovchi indikator asosida aniqlagan¹⁹.

B.A.Rayzberg, S.M.Voronova, A. O‘lmasov, A. Vahobov va Sh.Shodmonovlar iqtisodiy samaradorlikni daromad va xarajatlarning nisbati asosida baholanishini ta’kidlaganlar. Korxonalar faoliyatida samaradorlikka baho berishda daromad va xarajatlarning o‘zgarishiga mos ravishda kapital qo‘yilmalar sarfi, ularning qoplanish muddati va innovatsion faoliyat

¹⁶ Sh.Mamatov «Samaradorlikni baholash: qadimiy va zamonaviy mezon». Respublika fond va birja jurnali «Toshkent» 2017-y.

¹⁷ С.М.Воронова. «Экономическая эффективность предприятия и принцип альтернативности» журнал Менеджмент, государственное и муниципальное управление. Теория и практика сервиса: экономика, социальная сфера, технологии. 2020 г. № 4 (46). Ст 36-39.

¹⁸ Горшков А.С. Разработка научных и методологических принципов повышения эффективности использования энергетических ресурсов на предприятиях текстильной и легкой промышленности и снижения энергоёмкости выпускаемой продукции.: автореф. дис. доктор экон. наук. - Санкт-Петербург, 2019 г. Стр.25

¹⁹Коробейникова Е.В. Современные инструменты оценки и обеспечения эффективности деятельности предприятий (на примере потребительской кооперации): монография. Кемерово: Кемеровский институт (филиал) РГТЭУ, 2012 г. 164 стр.

natijalari ta'sirini ham o'rganish talab etiladi. Bundan kelib chiqqan holda iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish hajmi va ishlab chiqarish xarajatlari o'zgarishi bilan birga qo'shimcha jalb qilingan resurslar va ularni qoplanish muddatiga ham bog'liq jarayondir. Demak iqtisodiy nuqtai nazardan samara ishlab chiqarish jarayonining mutloq natijasi hisoblanib, iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan samara, samaradorlik, natija, foyda tushunchalari ma'no jihatdan bir-biriga o'xshashligini quyidagicha izohlash mumkin:

a) samara – xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni muayyan iqtisodiy faoliyat natijasi hisoblanib, ma'lum davr davomida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning yakuniy natijalarini tavsiflovchi aniq ko'rsatkichidir (masalan ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ko'rsatilgan xizmat hajmi);

b) samaradorlik – bu muayyan davr davomida iqtisodiy faoliyat yurituvchi sub'ektlarning holati, erishilayotgan natijalar va mahsulot birligi uchun sarflanayotgan xarajatlar o'zgarishini ifodalovchi ko'rsatkichdir (fond qaytimi, mehnat unumdorligi, kapital qaytimi va b.);

c) natija (foyda) – ishlab chiqarish xarajatlari va daromadlar o'rtasidagi farqdir.

Sanoat korxonalarining asosiy maqsadi foyda olish hisoblanadi, lekin har doim ham natija, foyda bilan yakunlanmaydi, lekin faoliyat natijasida iqtisodiy samaradorlikka ham erishish mumkin. Bu bevosita ijtimoiy samaradorlikni ta'minlaydi.

Iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik bir-biriga bog'liq. Amaliyotda iqtisodiy samaradorlik daromad va xarajatlar o'zgarish tendensiyalari orqali yakuniy natija foyda olish hisoblanadi. Ijtimoiy samaradorlik esa ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan iste'molchilar ehtiyojlarini qondirish, mehnat munosabatlarini tartibga solish va mehnat sharoitlarini yaxshilanishiga bog'liq bo'ladi.


A.Avazov tadqiqotlarida «iqtisodiy samaradorlik manfaatli iqtisodiy o'sish bo'lsa, ijtimoiy samaradorlik– bu xo'jalik faoliyatining natijalarini jamiyatning,

xo‘jalikning maqsadi va ehtiyojlariga, uning a‘zolari manfaatlariga mos kelishini anglatadi»²⁰ deb ta’kidlagan.

M.N.Korsakov ishlab chiqarish samaradorligini baholashda ta’sir etuvchi omillarni aniq bir turi bo‘yicha mohiyatini aniqlash zarur deb ta’kidlagan. Ishlab chiqarish natijalariga ijtimoiy omillar ta’siri iqtisodiy samaradorlikni asosi hisoblanadi deya ta’rif bergan²¹.

Demak, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik amaliyotda bir-biriga bog‘liq, korxonalarining iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va boshqa barcha jarayonlarini qamrab oluvchi munosabatlarning yig‘indisiga asoslanadi. Iqtisodiy jarayonlar korxonada tomonidan boshqariladi va tartibga solinadi, ijtimoiy va huquqiy jarayonlar amal qilishi natijasida samaradorlik ta’minlanadi.

Fikrimizcha ijtimoiy samaradorlik umumiy tarzda uchta yo‘nalishda birlashadi (1.1.1-rasmga qarang). Sanoat korxonalarining ijtimoiy samaradorligi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni iste’molchilar ehtiyojlarini qondira olish darajasiga, ya’ni sotib olishga ketgan xarajatlarga mos ravishda ehtiyojlarni qondirishiga, korxonada faoliyat ko‘rsatayotgan ishchi-xodimlarni turmush tarzi va daromadlilik darajasiga hamda ishchi-xodimlar uchun yaratilgan infratuzilmalarga bog‘liq bo‘ladi.



1.1-rasm. Ijtimoiy samaradorlik yo‘nalishlari²².

Demak, ijtimoiy samaradorlik iqtisodiy samaradorlikning asosi hisoblanib, ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan iste’molchilar ehtiyojlarini qondirishga,

²⁰ A.Avazov. Sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish. iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasi. Toshkent 2021-yil. 23-bet.

²¹ М.Н.Корсаков «Механизмы эффективного развития промышленных предприятий в конкурентных условиях» // Известия ЮФУ. Технические науки . 2011 г. - №11. стр. 44-47.

²² Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi

mahsulot narxi, sifati, raqobatbardoshligi va iste'molchilar daromadining o'zgarishiga asoslanadi. Shu bilan birga, ishchi-xodimlar turmush tarzi va daromadlilik darajasi, mehnat haqi, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga asoslanadi.

Korxonalaridagi mavjud ijtimoiy infratuzilmalar holati, ishchi-xodimlar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, madaniy maishiy ob'ektlar faoliyati ham bevosita ijtimoiy samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligiga ish vaqtidan foydalanish darajasi ham ta'sir ko'rsatadi va iqtisodiy samaradorlik ortishini ta'minlaydi. Bundan kelib chiqqan holda, ishlab chiqarish natijalari mehnat resurslaridan foydalanish darajasiga bog'liq bo'ladi.

Demak, samara (foyda) xarajatlarni hisobga olish bilan birga, iqtisodiy samaradorlik darajasi va ijtimoiy samaradorlikka bog'liq bo'ladi.


O'rganilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, samara ishlab chiqarish natijasini ifodalasa, samaradorlik iqtisodiy ko'rsatkichlar o'zgarishini ifodalaydi. Bundan kelib chiqqan holda, mahsulot ishlab chiqarish hajmini o'zgarishi va ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olgan holda, o'zaro nisbati asosida iqtisodiy samaradorlik yuzaga keladi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda «iqtisodiy samaradorlik» tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta'rifini beramiz: «mahsulotlar hajmi va iste'molchilar ehtiyojlari asosida ishlab chiqarish xarajatlarini me'yorlashtirish, mahsulotlar sifatini oshirish va resurslar sarfini tejash asosida samarali talabni shakllantirish iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi».

Yuqoridagilardan kelib chiqib, samaradorlikni shartli ravishda quyidagicha guruhlariga ajratishimiz mumkin (1.1.2-rasmga qarang).

Mahsulot ishlab chiqarish samaradorligi. Mahsulot ishlab chiqarish samaradorligi mahsulot hajmi o'zgarishiga resurslar sarfi ya'ni mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi xarajatlar o'zgarishi asosida baholanadi.

Mahsulot ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligi. Bu turdagi samaradorlik xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatidan olinayotgan natijalarni muayyan turdagi resurslarga nisbati asosida o‘rganiladi. Ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etadigan moddiy resurslar, kapital mablag‘lar va mehnat salohiyati bilan bog‘liq xarajatlar va ularning alohida turi bo‘yicha o‘rganiladi.



1.1.2-rasm. Ishlab chiqarish samaradorligi turkumlanishi²³.

Korxonalarining boshqaruv samaradorligi. Korxonalarining iqtisodiy faoliyatini tashkil etish, barcha sanoat ishlab chiqarish xodimlarini muayyan maqsad asosida faoliyatini ta'minlash, mahsulotlarni diversifikayasini amalga oshirish, qarorlarni qabul qilish jarayonlarini axborot bilan ta'minlash, mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmi, korxonaning bozordagi mavqei hamda yakuniy natija foyda ko‘rsatkichlarini o‘zgarishi asosida baholanadi.

Realizatsiya samaradorligi. Mahsulotlar narxi, reklama, sotuvdan keyingi xizmat asosida baholanib, ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulot hajmi

²³ Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi

mutanosibligiga asoslanadi, bunda asosiy e'tibor iste'molchilar ehtiyojlari va daromadlari o'zgarishini hisobga olgan holda marketing faoliyatini to'g'ri tashkil etishga qaratiladi.

Ekologik samaradorlik. Mahsulot ishlab chiqarish natijasida atmosferaga chiqqan chiqindilar, atrof-muhitga va aholiga salbiy ta'sir ko'rsatishni oldini olishga qaratiladi.

Iqtisodiy samaradorlik. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmini hamda, mahsulot birligi uchun sarflanayotgan resurslar sarfi o'zgarishi asosida baholanadi.

Shunday qilib, sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligi maqsadli faoliyatni tavsiflaydi va foydalanilayotgan tabiiy, iqtisodiy, texnik va boshqa resurslardan optimal foydalanishga bog'liq bo'ladi.

Iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalasi mamlakat iqtisodiyotining deyarli barcha tarmoqlari, ayniqsa, qayta ishlab chiqarish sektori uchun dolzarb hisoblanadi. Mamlakatda davlat dasturlari asosida sanoat sohasini rivojlantirishga oid me'yoriy hujjatlar qabul qilingan va sohani rivojlanishiga ijobiy ta'sir qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» to'g'risidagi PF-60-sonli farmonida ham sanoat korxonalarini faoliyati samaradorigini ta'minlash bo'yicha alohida topshiriq bo'lib, milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish vazifasi belgilangan²⁴.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9 iyundagi PF-6244-sonli «Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni qabul qilingan²⁵. Farmonga asosan sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarga imtiyozlar berish, sanoatni rivojlantirish

²⁴O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» to'g'risidagi PF-60-sonli farmoni.

²⁵«Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-6244-sonli farmoni 06.09.2021-y.

«drayverlari» bo‘lgan tarmoqlarni aniqlash, tarmoqlarning ichki va tarmoqlararo kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta’minlaydigan xususiy va xorijiy investitsiyalar hamda zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish uchun shart-sharoitlar yaratish, sanoat zonalarini tashkil etish va zamonaviy tendensiyalarni hisobga olgan holda mahalliy sanoat korxonalarini uchun professional kadrlar tayyorlash, trening dasturlaridan keng foydalanish vazifalari qo‘yilgan.

ga alohida ahamiyat qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18 martdagi «Paxta va to‘qimachilik sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qaroriga asosan klasterlar faoliyatini rivojlanishi yangi bosqichga o‘tdi. Paxta va to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish bo‘yicha bozor mexanizmlari takomillashtirilib, soliq va bojxona imtiyozlari joriy etildi. Sanoat faoliyatini tashkil etishdagi bu tizim xomashyodan tayyor mahsulotgacha yagona ishlab chiqarish zanjirlarini shakllantirishga asoslanadi. Qisqa davr ichida tizim o‘zining ijobiy natijalarini bera boshladi. Ishlab chiqaruvchi va fermer xo‘jaliklari faoliyatini o‘zaro uyg‘unligi asosidagi faoliyatiga yo‘naltirilgan bo‘lib, klasterlar mahsulotlari sifati va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda aholi turmush darajasini yaxshilash, mavjud imtiyozlardan samarali foydalanish asosida ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, aholi daromadlarini oshirish negizida iqtisodiy samaradorlikni oshirish shulur jumlasidandir. Iqtisodiy islohotlar natijasida iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash, YAIM hajmini oshirish va mavjud ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish asosiy vazifa sanaladi va bu sohada bir qator ijobiy natijalarga erishildi. Bugungi kunda iqtisodiyotdagi muhim tarkibiy o‘zgarishlar natijasida qulay ishbilarmonlik muhiti yaratildi va tarmoqlarni rivojlanish imkoniyatlari vujudga keldi.


Demak, samaradorlikni ta’minlash asosiy vazifalarimizdan biri bo‘lib, asosiy e’tibor ijtimoiy va iqtisodiy omillar mutanosibligini ta’minlashga qaratish zarur.

Bunda mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi, resurslaridan foydalanish holati, boshqaruvni to'g'ri yo'lga qo'yish va mahsulotlar iste'molini tartibga solish talab etiladi.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, samaradorlikni oshirish asosida ishlab chiqarish ko'lami ortadi va aholi turmush darajasi o'sadi. Bu esa unga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etishni talab qiladi.

1.2.§ Sanoat korxonalarini iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarning o'ziga xos xususiyatlari

Bugungi tez o'zgarayotgan bozor talabi sharoitida ishlab chiqarish samaradorligiga bir qator omillar o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu esa sanoatda samaradorlikni oshirishda uning manbalariga alohida to'xtalib o'tishni talab etadi. Birinchi yo'nalishda mehnat omili asosiy manba bo'lib, uning malaka ko'nikmasi samaradorlikni ta'minlaydi. Ikkinchi yo'nalishda investitsiyalar, texnologiyalar transferi orqali ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish ta'minlanadi. Shu bilan birga sanoat korxonalarida samaradorlikni ta'minlash uzoq muddatli faoliyatga asoslanib, mavjud resurslardan foydalanishni yaxshilash hisoblanadi. Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligig to'laroq baho berish uchun unga ta'sir etuvchi manba va omillarni tizimli tahlil etamiz. Jumladan, sanoat korxonlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarning ilmiy nazariy asoslarini tadqiq etish orqali tushuntirish zarur. V.Yu.Glebov ilmiy tadqiqotlarida iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash asosiy ichki omillar ta'sir etishini ta'kidlab, ular 85 foizni, qolgan 15 foizni esa tashqi omillar hissasiga to'g'ri kelishini izohlagan (1.2.1-rasmga qarang)



1.2.1-rasm. Ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar²⁶.

V.Yu.Glebov tadqiqotida ichki va tashqi omillarni umumlashtirgan holda baholagan. Muallif omillarni o'zaro bir-biriga ta'siri yuqoriligini o'rganib, amaliyotda tashqi omillar samaradorlikning ichki omillariga ta'sirini kuchaytirishi yoki aksincha neytrallashi mumkinligini asoslagan. Shuningdek, ichki omillar tashqi omillarning samaradorlikka ta'sirining kuchliligini yoki zaifligini aniqlaydi. «Bozor sharoitida korxonalar samaradorligining ichki va tashqi omillar tizimidagi munosabatlarning rivojlanishi sanoat kooperatsiyasining yangi shakllarini paydo bo'lishiga ham yordam beradi. Bu bevosita samaradorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, innovatsiyalarni samarali qo'llash, ixtisoslashuvni chuqurlashtirish natijasida mahsulot sifatini yaxshilash, ishlab chiqarish quvvatlardan maksimal

²⁶V.Yu.Glebov «Управление эффективностью промышленных предприятий на основе кооперации их деятельности». автореферат. дис. канд. экон. наук. М., 2012 г. 21 ст.

darajada foydalanish, o‘zgaruvchan bozor sharoitlariga tez moslashish kabilar»²⁷ deb ta’kidlagan. Bu afzalliklarning barchasi kooperatsiya asosida namoyon bo‘ladi va tarmoqlarni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar tizimini kengaytiradi.

Shunday bo‘lsada, korxonalar faoliyatiga ichki va tashqi omillar bilan birga moddiy resurslar ta’minoti, innovatsion faoliyat va mahsulotlar sifati ham ta’sir qiladi. Jumladan, Sh.N.Zaynutdinov va R.I.Nurimbetovlar ishlab chiqarish samaradorligi ichki va tashqi omillarni o‘zaro bir-biriga bog‘liqligini o‘rganib, bunda makroiqtisodiy barqarorlik, valyuta munosabatlari, eksport salohiyatini oshirish, resurslardan samarali foydalanish, boshqarish xorijiy usullarni tatbiq etish, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni tashkil etish va diversifikatsiyalashga alohida e’tibor qaratish zarurligi asoslangan²⁸.

N.I.Rustamov sanoat korxonalarini ishlab chiqarish samaradorligiga ta’sir etuvchi mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlardan foydalanishni yaxshilash va ishchilar manfaatdorligi asosida «aylanma harakat modeli»ni taklif qilgan²⁹. Aylanma harakat modeli sanoat korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatida oilaviy korxonalarini tashkil etish asosida ishchi-xodimlarning daromadini oshirish va aholi turmush darajasini yaxshilash orqali samaradorlikni ta’minlashga asoslangan.

O.Rodionov samaradorlikka ta’sir etuvchi omillarni ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, xodimlar malakasi, ishlab chiqarish infratuzilmasi, mahsulot sifatini boshqarish, ishlab chiqarish jarayonlarini kuzatish, ishlab chiqarishni bozorga moslashtirish, nazorat, javobgarlik hamda rag‘batlantirishga ajratib guruhga umumlashtirgan holda o‘rgangan³⁰.

²⁷ В.Ю.Глебов «Управление эффективностью промышленных предприятий на основе кооперации их деятельности», автореферат. дис. канд. экон. наук. М., 2012 г. 21 ст.

²⁸ Sh.N.Zaynutdinov, R.I.Nurimbetov «Resursnaya baza i potencial proizvodstvo Uzbekistana: ispolzovaniya i effektivnost (Regionalnyy aspekt)» statya. Byulleten nauki i praktiki — Bulletin of Science and Practice scientific journal (scientific journal) №10 2017 g. <http://www.bulletennauki.com>

²⁹ N.I.Rustamov. Sanoat tarmoqlarini ichki imkoniyatlaridan samarali foydalanish asosida rivojlantirish mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2018-yil. 7-11 bet.

³⁰ О.Родионов «7 шагов к повышению эффективности производства: опыт Компании «ГРАЙН»» статья. Деловой портал «Управление производством» 2020 г.

A.M.Kadirov sanoat korxonalarini iqtisodiy barqarorligini o'rgangan. U korxonalarining rentabelligini ta'minlash uchun moliyaviy, ishlab chiqarish, marketing va texnologik barqarorlik ko'rsatkichlarini tahlil etgan. Shuningdek, muallif yuqoridagi to'rt omil (moliyaviy, ishlab chiqarish, marketing va texnologik) asosida barqaror rivojlanishni hozirgi darajasi va kelgusidagi o'zgarish dinamikasiga baho bergan³¹.

B.O.Tursunov esa o'zining tadqiqotlarida sanoat korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasini qarab o'tgan³². U samaradorlikni ta'minlashda mahsulot ishlab chiqarish hajmi hamda ishlab chiqarish quvvatlaridan mutanosib foydalanish asosida ishlab chiqarish vositalaridan maksimal darajada foydalanishga alohida e'tibor qaratgan.

Yuqorida nomlari keltirilgan barcha mualliflar tadqiqotlarida samaradorlikka ta'sir etuvchi omillarni ichki va tashqi omillarga guruhlab o'rganilgan. Shu sababli samaradorlikka mehnat resurslaridan foydalanish darajasi, asosiy vositalar holati, kapital, ishchi kuchi, ishlab chiqarish jihozlari, moddiy resurslardan foydalanish darajasi hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga bozordagi talab va taklif holati ham ta'sir etishi asoslangan. Demak, zamonaviy texnologiyalar bilan ishchi malakasi mutanosibligining o'zi samaradorlik uchun yetarli bo'lmaydi. Samaradorlikni ta'minlashda bozor muvozanatini talab va taklif muvofiqligiga e'tibor qaratish zarur.


Yuqoridagi tadqiqotchilarning qarashlaridan kelib chiqib, ishlab chiqarishning samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo'lib o'rganish zarur (1.2.2-rasmga qarang). Jumladan, mazkur omillarni mazmun va mohiyatini qarab o'tamiz.

Ichki omillar korxonani mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlariga asoslanib, moddiy-texnik resurslar mutanosibligi, marketing siyosati, boshqaruv tizimi hamda mahsulot va xizmatlarning yangi turlarini joriy qilish, korxonada

³¹A.M.Kadirov Sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish («Andijonneft» AJ misolida) mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent– 2019-y. 11-bet..

³²B.O.Tursunov Korxonada faoliyatini boshqarishni takomillashtirishda ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanish mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent – 2019-y. 11-12 bet.

mahsulotlar sifati hamda foyda o‘lishini ichki zaxiralari tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Ishlab chiqarishni iqtisodiy rag‘batlantirish, ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish, ishlab chiqarish texnologik jihozlari holati, ishlab chiqarishning moddiy-texnik bazasini modernizatsiyalash va qayta qurishga bog‘liq holda ishlab chiqarishni samarali tashkil etishga va zamonaviy texnologiyalar va nou-xaularning qo‘llanilishi – ishlab chiqarish vositalarini yangilash, innovasion faoliyatni to‘g‘ri tashkil etish va yangiliklarni amaliyotga qo‘llash muddatini qisqartirish asosida iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlaydi.




1.2.2-rasm. Ishlab chiqarish samaradorligini ichki va tashqi omillarga ko‘ra guruhlanishi³³.

³³ Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi

Mahsulotlarga bozordagi talab va taklifni o'zgarishi - mahsulotlarni narxi, sotish hajmi, raqobatchilar imkoniyatlari va demografik o'zgarishlarni hisobga olgan holda iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash ham tashqi omillar tarkibiga kiradi. Tashqi omillar korxonalarni tashqi iqtisodiy aloqalari - korxonada amal qilayotgan hududdagi iqtisodiy siyosat, o'zaro hamkorlar bilan aloqalar va investitsion faoliyat, moddiy resurslar narx darajasi xomashyo, material resurslar va butlovchi qismlar ta'minoti, narxi o'zgarishi, ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif, hududdagi ish o'rinlari va xodimlar malakasini oshirishga asoslanadi.

Sanoat korxonalarini faoliyatini samaradorligini ta'minlash asosida mehnat resurslariga bo'lgan talab son jihatdan ortishi bilan birga sifat jihatdan ham ortib boradi, ishchi-xodimlarni malakasi, ma'lumoti, ko'nikma va mahoratlarini hisobga olinishi o'z-o'zidan talab etiladi. Mehnat samaradorligini ta'minlashda mehnat salohiyatiga e'tibor berish talab etiladi (1.2.2-rasmga qarang).



1.2.2-rasm. Mehnat salohiyati natijalariga ta'sir etuvchi omillar³⁴

Mehnat salohiyatidan foydalanish darajasi korxonaning mehnat bozorida

³⁴Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi

raqobatbardoshligiga asoslanib, tarmoqda o'rtacha ish haqi va ish haqining o'sish indeksi o'zgarishiga bog'liq bo'ladi. Korxonalar faoliyatida sanoat ishlab chiqarish xodimlari yoshi, ma'lumoti asosida baholansa, mehnat natijalari o'rtacha ish haqining o'sishga bog'liq holda o'rganiladi.

Sanoat korxonalarini iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni xususiyatlari va geografik tuzilishiga qarab ham tasniflashimiz mumkin. Bunda qator xorijiy va mamlakatimiz olimlari izlanishlarini tasnifiy belgilariga muvofiq umumlashtiramiz. (1-ilovaga qarang).

Ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi makro darajadagi omillarni A.V.Gladkiy³⁵, V.G.Shadrina³⁶, E.X.Maxmudov³⁷, M.P.Narziqulov³⁸, D.Mamadjonov³⁹, M.F.Maxmudov⁴⁰ va Sh.Sh.Shadmanovlar⁴¹ strategik yo'nalishlar, infratuzilmalar holati, korxonalarini geografik joylashuvi, hududiy rivojlanish darajasi, diversifikatsiyalash jarayoni va ishlab chiqarish infratuzilmasini mutanosib tashkil etish va rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari asosida o'rgananlar.

Sanoat korxonalarini iqtisodiy samaradorligiga ishlab chiqarishni tashkil etish holati ta'sirini Maykl Djorj⁴², F.Feodotova⁴³, M.M.Panovlar⁴⁴ tejamkor ishlab chiqarish tamoyillari, iqtisodiy va texnologik daraja ko'rsatkichi, texnologiyalar

³⁵ А.В.Гладкий «Сущность и методы оценки региональной экономической эффективности предприятия» Псковский регионологический журнал № 17 2014 г. Ст 29-38.

³⁶ Г.В.Шадрина «Комплексный экономический анализ хозяйственной деятельности» Краткий курс М.: Евразийский институт, 2008 г. – ст.11

³⁷ E.X.Maxmudov, A.Ortiqov, F.Karimov. «Korxonalar - iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini». /Hamkor. 2010-yil 7-fevral.

³⁸ М.П.Нарзикулов. «Стратегия дальнейшего повышения конкурентоспособности национальной экономики: материалы» 1-го Форума экономистов / отв.ред.. Ташкент. 2012 й. ст. 8.

³⁹ D.Mamadjonov. «O'zbekiston Respublikasida sanoat tarmog'ini rivojlantirishning asosiy omillari». // «Biznes-Ekspert» iqtisodiy ilmiy-amaliy oylik nashr. 2018-y. №10. 3-bet.

⁴⁰ M.Mahmudov «Hududlarda sanoatni rivojlantirishda ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish yo'nalishlari» (Qashqadaryo viloyati misolida) mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent – 2019-y.

⁴¹ Sh.Sh.Shadmanov. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ishlab chiqarish infratuzilmasini mutanosib rivojlantirishning nazariy asoslarini takomillashtirish mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent - 2020-y.

⁴² Майкл Джордж. «Бережливое производства + шесть сигм в сфера услуг. Перевод с английского». М. 2017 г.

⁴³ А.Федотова. «Оценка эффективности деятельности и прогнозирование финансовых результатов компании на основе показателя экономического уровня технологии – Риск: ресурсы, информация, снабжение, конкуренция». - №2, 2012 г. стр. 281-286.

⁴⁴ М.М.Панов «Оценка деятельности и система управления компанией на основе КPI». – М.: Инфра-М, 2013 г. стр 3.

bilan ta'minlanganlik darajasi va korxonalarni bugungi kundagi rivojlanish darajasi holati va bu asosida potensial samaradorlikni baholaganlar.

V.G.Kim⁴⁵, A.G.Jalgasova⁴⁶, L.Blyaxman⁴⁷, I.A.Gunina, Yu.P.Lyutova⁴⁸ va R.J.Kurbanovalar⁴⁹ innovatsiya va investitsiya omillarini iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini innovatsion jozibadorlik, raqamli infratuzilmani rivojlantirish (blokshain), innovatsion texnologiyalar bilan ishlash va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan inson resurslari (doing-business), ta'lim va malaka, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish darajasi ta'siri va kapital mablag'lardan foydalanish holati asosida tadqiq etganlar.

Ishlab chiqarish va bozor aloqalarini sanoat korxonalari iqtisodiy samaradorligiga ta'sirini D.A.Fedin⁵⁰, M.B.Chirkova⁵¹, G.Stigler⁵², Ye.K.Chirkunova⁵³, N.I.Morozkolar⁵⁴ iste'molchilar talablari, ichki va tashqi bozordagi raqobatdan kelib chiqib, ishlab chiqarishni tashkil etish va mahsulot hajmiga ta'sirni hamda mahsulotlar realizatsiyasi va yetkazib berish shart-sharoitlariga bog'liqligini asoslaganlar.

Korxonalarni iqtisodiy samaradorligiga boshqaruv va mehnatni tashkil etish holatini R.S.Kaplan, D.P.Norton⁵⁵, M.P.Loskutnikova⁵⁶, O.E.Kondrachuk⁵⁷,

⁴⁵V.G.Kim. «Innovatsion texnologiyalar asosida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish» mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent – 2019-y. 11-13 bet..

⁴⁶A.G.Allayeva. «Yoqilg'i-energetika kompleksi korxonalari faoliyatini samarali rivojlantirish» mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent – 2018-y. 7-11 bet.

⁴⁷Л.С.Бляхман Политико-экономическая сущность новой индустриализации//Новая индустриализация России: теоретические и управленческие аспекты. – СПб.: Рост, 2014 г.ст 9.

⁴⁸И.А.Гунина, Ю.П.Лютлова. Оценка эффективности использования основного капитала промышленного предприятия. Журнал. «Экономинфо». 2020 г. Т.17. № 1 ст 22-26.

⁴⁹R.J.Kurbanova «Servis korxonalarini modernizatsiyalash va ularda xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish (Samarqand viloyati umumiy ovqatlanish korxonalari misolida)» mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.Samarqand – 2019-y. 16-bet.

⁵⁰D.A.Fedin «Financial stability by means of the analysis of the current assets of an enterprise», Economic and legal Sciences, 1-1, 2014 y. p 28.

⁵¹M.B.Chirkova «Legal regulation of cost accounting and the role of cost prices of production in managing the production», Socio-economic problems of innovative development, 2015 y. p.488-493.

⁵²G.J.Stigler «Essays in the History of Economics». – Chicago: The University of Chicago Press, 1965 y. – p 57.

⁵³Е.К.Чиркунова «Теоретические основы инновационного управления проблемным объектом» // Экономика и управление собственностью. 2014 г. № 3. Ст. 25–48.

⁵⁴Н.И.Морозко «Оценка эффективности деятельности предприятия» Интернет-журнал «Наукоедение» <http://naukovedenie.ru>. Том 7, №2 (март - апрель 2015 г).

⁵⁵Р.С.Каплан, Д.П.Нортон «Сбалансированная система показателей. От стратегии к действию». 2-е изд., исп.и доп/М.: -ЗАО «Олимп-Бизнес», 2012 г. Ст 320.

⁵⁶М.П.Лоскутникова . «Оценка эффективности системы управления организацией» Журнал «Образование и наука в России и за рубежом». №5(Vol. 40), 2018 г.

Z.Shoxo‘jayeva⁵⁸, D.K.Kudaynazarovalar⁵⁹ tomonidan tadqiq etilgan. Mualliflar samaradorlikka boshqaruv strategiyasi, boshqaruv vazifalari, boshqaruv qarorlari, xodimlar qo‘nimsizligi darajasi o‘zgarishi, ishlab chiqarish va noishlab chiqarishdagi mehnat natijasining holati, mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish vositalarining eskirish darajasi ta‘sirini baholashga alohida e‘tibor qaratganlar.

Ishlab chiqarish samaradorligi holatiga A.S.Smagulov⁶⁰, N.Menkyu⁶¹, B.A. Muradov⁶², Ye.K.Chirkunovalar⁶³ ishlab chiqarish zaxiralari, resurslar ta‘minoti va saqlanishi, «muqobil chiqimlar» (yo‘qotilgan imkoniyatlar bilan bog‘liq xarajat), resurslar sifati va narxi, hamda logistika tizimidan foydalanish darajasi asosida tadqiq etganlar.

Yuqoridagi tadqiqotchilar ishlab chiqarish samaradorligini iqtisodiy siyosat, geografik va iqtisodiy omillar, infratuzilma, kapital mablag‘lar, innovatsiya, ishlab chiqarishni tashkil etish va bozor omillari asosida baholangan. Ishlab chiqarish samaradorligini ta‘minlashni yuqoridagi xususiyatlari bilan birga mahsulotlar birligi uchun sarflanayotgan resurslar o‘zgarishi, ishlab chiqarishni tashkil etishni zamonaviy usullarini qo‘llanilishi va samarali talab asosida faoliyatni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda uning xususiyatlariga ko‘ra, ta‘sir etuvchi omillarni ularning xususiyatlariga ko‘ra makrodarajadagi, ishlab chiqarishni tashkil etish, innovatsiya va investitsiya, ishlab chiqarish va bozor mutanosibli, boshqaruv va ta‘minot omillariga bo‘lib o‘rganishga asoslanadi. (1.2.3-rasmga qarang).

⁵⁷О.Е.Кондрачук «Оценка эффективности системы управления персоналом предприятия» Научный журнал Вестник Алтайской академии экономики и права № 1 (часть 2) за 2019 г. ст 55-58.

⁵⁸З.Шохўжаева «Impact of Labor Efficiency on the Development of Jsc «Dunyo M» Academic Journal of Digital Economics and Stability. Published in Aug-2021

⁵⁹D.K.Kudaynazarova «Iqtisodiy-ekologik sharoitda sanoat korxonasini rivojlantirish strategiyasi» mavzusidagi (phd) dissertatsiya avtoreferati. Toshkent-2019-y. 18-20-bet.

⁶⁰Смагулов А. С. «Факторы влияющие на повышение эффективности промышленного предприятия» статья Журнал Экономические науки Выпуск №2 (33) Часть 3 2015 г.

⁶¹Мэнкью Н.Г. Принципы макроэкономики. 4-е изд. Пер с англ. – СПб.: Питер, 2009г. – стр.87.

⁶²В.А.Muradov «Charm-poyabzal korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llari» mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent – 2018-yil 13- bet.

⁶³Чиркунова Е.К. Теоретические основы инновационного управления проблемным объектом // Экономика и управление собственностью. 2014 г. № 3. стр 25–48.



1.2.3-rasm. Ishlab chiqarish samaradorligiga ko‘ra ta’sir etuvchi omillar⁶⁴

Fikrimizcha, sarflangan kapital mablag‘lar hisobiga olingan natija, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish darajasi va innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish samaradorlikni bosh omili hisoblanadi. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish asosida iqtisodiy samaradorlikni ta’minlash, innovatsiyalarni shakllantirish va ularni amaliyotga

⁶⁴Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi

qo'llash muddatini qisqartirish, ishlab chiqarish texnologiyalarini bozor talabiga moslashtirish, investitsiyalar samaradorligini oshirish zarur.

Yuqoridagi tadqiqotlardan shuni hulosa qilishimiz mumkinki sanoat korxonalarini cheklangan resurslar sharoitida faoliyat ko'rsatadi. Bundan kelib chiqqan holda resurslardan foydalanishda eng samarali kombinatsiyasini tanlashimiz zarur. Resurslardan foydalanish samaradorligi resurslarning o'zaro almashinishining oqilona chegaralarini o'rganishga asoslanib, barcha turdagi ishlab chiqarish samaradorligining muhim omili hisoblanadi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlar amaliyotida ham ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashda moddiy resurslar ta'minotiga alohida e'tibor qaratilib, bir qator usullardan foydalangan. Jumladan 1915-y. EOQ (Economic order quantity)⁶⁵ – sotib olish va saqlash uchun eng maqbul hajmdagi moddiy resurslarni buyurtma qilish asosida resurslar ta'minoti, 1960–yil MRP (materials requirement planning)⁶⁶ –moddiy resurslarga bo'lgan talabni rejalashtirish. 1970-y. – MRP II (manufacturing resource planning)⁶⁷, 1990-y. – ERP (enterprise resource planning) korxonalar resurslarini rejalashtirish tizimi MRP (materials requirement planning) va MRP II (manufacturing resource planning) tizimlaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan rejalashtirish tizimi hisoblanadi. Shu bilan birga DRP (distribution requirements planning) (taqsimot talablarini rejalashtirish)⁶⁸, JIT (just-in-time, VMI – (vendor-management inventory), LP (Lean Production)⁶⁹, SSM (supply chain management) ta'minot zanjirini boshqarish tizimi, SSRP (customer synchronized resource planning)⁷⁰ –moddiy resurslar sarfini iste'molchilar ehtiyojlariga asoslanib rejalashtirish, E-Procurement – ixtisoslashtirilgan Internet portallarida elektron xaridlar ta'minot tizimlaridan foydalanilgan. Mamlakatimizda mavjud sanoat

⁶⁵<https://www.investopedia.com>

⁶⁶<https://www.netsuite.com/portal/resource/articles/inventory-management/material-requirements-planning-mrp.shtml>

⁶⁷Wallace T.F. Kremzar M.H ERP making it happen; the implementers' guide to success with enterprise resource planning. Ny. Chichester. Jon Wiley Publ.

⁶⁸<https://www.planettogether.com/blog/distribution-requirements-planning-in-supply-chain>

⁶⁹Майкл Джордж. Бережливое производство + шесть сигм в сфере услуг. Перевод с английского. М. 2017.

⁷⁰<http://www.kgau.ru> istiki uip


korxonalarida ham iqtisodiy xususiyatlarida kelib chiqib ta'minotni muayyan shakllaridan foydalanish ijobiy natija beradi.

Demak ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashga, korxonani bozorda tutgan o'rni, mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlaridan foydalanish darajasi, baho siyosati, resurslar ta'minoti, mehnat resurslaridan foydalanish holati investitsiya va innovatsion siyosat hamda demografik o'zgarishlar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ishlab chiqarish natijalariga ta'sir etuvchi omillarga to'la baho berish uchun iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimini o'rganishimiz va baholash usullarini umumlashtirishimiz zarur.

1.3.§ Iqtisodiy samaradorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar va uni baholashning uslubiy jihatlari.

Sanoat korxonalarini faoliyatida mahsulot ishlab chiqarish hajmini ortishi, mahsulotlar realizatsiyasi holati va olinayotgan daromadlar o'zgarishi iqtisodiy samaradorlik asosida baholanadi. Bu esa o'z navbatida aholini turmush darajasini oshishi, jamiyat a'zolarini barkamol rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratishga asos bo'ladi. Demak mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti sanoat korxonalarini faoliyatini rivojlanishi bilan bevosita bog'liq. Korxonalar bozor sharoitida aniq maqsad sari harakat qiladi. Bundan kutilayotgan natija foyda olishga qaratilgan bo'lib, ishlab chiqarish xarajatlari va korxonada daromadiga bog'liq bo'ladi.

Korxonalar faoliyat yuritish jarayonidagi mahsulot birligi uchun sarflanayotgan ishlab chiqarish xarajatlari va uning o'zgarish dinamikasi samaradorlikni ta'minlovchi asosiy mezonlardan biridir. Xarajat birligi uchun to'g'ri keluvchi daromadlarni o'zgarishi va olinayotgan foydani o'zgarish dinamikasi samaradorlikni ifodalovchi asosiy mezonlardan hisoblanadi. Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlik baholashda quyidagi mezonlardan foydalanish taklif qilinadi (1.3.1-rasmga qarang).



1.3.1-rasm. Sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorlik mezonlari⁷¹.

Shunga ko'ra iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun iqtisodiy faoliyat holatini baholash, mavjud imkoniyatlardan foydalanish darajasini yaxshilash, mahsulot birligi uchun sarflanayotgan xarajatlar o'zgarishini tadqiq qilish asosida ishlab chiqarish natijalarini aniqlash mezonlarning asosi hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini faoliyatida yuqoridagi mezonlar asosida ishlab chiqarish samaradorligi baholanadi. Samaradorlikka baho berishda avvalo mehnat faoliyati natijalariga baho berish kerak. Mehnat aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyat hisoblanib, ishchi yoki muayyan jamoaning faoliyati natijalari, mehnat

⁷¹Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi

unumdorligi, vaqt birligi ichida yaratilgan mahsulot hajmi hamda mahsulot birligi uchun mehnat sarfi ko'rsatkichlari asosida baholanadi. Mehnat samaradorligini ortishi mehnat sarfini kamaytiradi va bunga mos ravishda ishlab chiqarish harajatlarini tejashga olib keladi.

Sanoat korxonalarini mehnat samaradorligini R.S.Kaplan, D.P.Norton, M.P.Loskutnikova, D.K.Kudaynazarovalar va N.I.Rustamovlar tomonidan o'rganilib, mehnat unumdorligi, mehnat birligi uchun sarflanayotgan xarajatlar o'zgarishi asosida tadqiq qilganlar.

N.I.Rustamov tadqiqot ishida «sanoat korxonalarida ishlovchilarning ichki imkoniyatlardan samarali foydalanish darajasini baholash maqsadida mehnat unumdorligini oshishi, ish haqi o'sishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni»⁷² o'rganigan va quyidagi formulani taklif etgan.

$$MUIX = \Delta W / \Delta L \quad (3.1)$$

Bunda: MUIX - ish haqini mehnat unumdorligiga o'zaro bog'liqligi koeffitsiyenti;


ΔW - ish haqining o'zgarishi, foiz; ΔL - mehnat unumdorligining o'zgarishi, foiz.

Muallif taklif etayotgan formulada ish haqining o'sish darajasi mehnat unumdorligi o'zgarishiga ta'siri baholangan. Ya'ni sanoat korxonalarida mehnat unumdorligi va ish haqi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni to'g'ri yo'lga qo'yishni asoslagan. To'qimachilik korxonalarida mehnat samaradorligini baholashda mehnat unumdorligi va ish haqi o'rtasidagi bog'liqlik bilan birga mehnatni tashkil etish holati, mehnat normalari va fond bilan qurollanganlik darajasini ham tadqiq qilish kerak.

Yuqoridagi ma'lumotlaridan kelib chiqib mehnat unumdorligini ta'minlashda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimini qo'llash talab etiladi. Muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimini qo'llashda mehnat unumdorligini oshirish uchun zaxiralarni aniqlash, mukofotlash tizimini o'rganish va bu asosida

⁷²N.I.Rustamov «Sanoat tarmoqlarini ichki imkoniyatlaridan samarali foydalanish asosida rivojlantirish» i.f.f.d. (PhD) avtoref. –Toshkent. –2018-yil. 13-bet.

boshqaruv qarorlarini qabul qilish asoslari yaratiladi (1.3.2-rasm)



1.3.2-rasm. Mehnat unumdorligini muvozanatlashgan ko'rsatkichlari⁷³.

Aniqlangan mezonlar asosida to'qimachilik sanoati korxonalarini iqtisodiy faoliyatini tashkil etish va bu asosida iqtisodiy samaradorlikni oshirish mezonlarini belgilash zarur. Ishlab chiqarish natijalari, mahsulot birligiga mehnat va xarajat birliklari sarfi iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi asosida baholanadi. Mehnat unumdorligi ko'rsatkichi to'qimachilik korxonalarida mehnatni tashkil etish va normalashtirish darajasiga bog'liq bo'lib, iqtisodiy samaradorlikni belgilovchi omillardan biri hisoblanadi.

Bizning tadqiqotlarimizda to'qimachilik korxonalarida mehnat natijalarini ijtimoiy samaradorlik asosida baholash taklif etilgan (3.2).

⁷³ Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi

$$Ijts = \frac{(1-Ms1)+(1-Ms2)+Rm}{3} \quad (3.2)$$

Bunda: M_{s1} -mehnat sig'imi koeffitsiyenti (ish haqi fondi bo'yicha); M_{s2} -mehnat sig'imi koeffitsiyenti (ish vaqti fondi bo'yicha); Rm -mehnat xarajatlari rentabelligi koeffitsiyenti.

Fikrimizcha sanoat korxonalarida mehnat resurslaridan foydalanishni baholash sanoat korxonasi faoliyati natijalarini yaxshilash bilan birga jamiyat uchun ham bir qator ijobiy natijalar beradi, jumladan:

- korxonalarda mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash, yangi ish joylarini yaratish asosida aholi bandligi ta'minlanadi va jamiyatda ishsizlar sonini kamayishi asosida ijtimoiy rivojlanish bo'ladi;

- ishchi-xodimlarni to'g'ri joylashtirilishi va salohiyatiga mos ish bilan ta'minlanishi mehnat natijalarini yaxshilaydi va mehnat bozoridagi raqobatni rivojlantiradi;

- ishchi-hodimlar tarkibiy tuzilishini yaxshilanishi mehnat mazmundorligini orttiradi va motivatsiyani ta'minlaydi;

- ishchi-xodimlar mehnatidan foydalanish natijalari va o'zgarish tendensiyalari aniqlanadi va uning asosida ishchi kuchiga qo'yilayotgan talab ortadi.

Sanoat korxonalarini iqtisodiy samaradorligi holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni Maykl Djorj, N.Menkyu, D.P.Norton, N.I.Morozko, L.A.Chaldayev, YE.A. Volkova, A.Ortiqov, Sh.Zaynabuddinov, E.X.Maxmudov, G.J.Allayeva, N.I Rustamov, A.M.Kadirov, B.O.Tursunov, N.S.Zaxarov kabi olimlarning tadqiqotlarida o'rganilgan. Ushbu nomlari keltirilgan olimlar tadqiqotlarida asosan ishlab chiqarish samaradorlik ko'rsatkichlarini uch guruhga bo'lib o'rganilgan. Bular:

- ishlab chiqarish holatini ifodalovchi;
- moddiy-texnik resurslardan foydalanishni ifodalovchi;
- ishlab chiqarish samaradorligini ifodalovchi.

Sanoat korxonalarini iqtisodiy natijalarini baholashda yuqoridagi tadqiqotchilar taklif etgan ko'rsatkichlar tasnifini nazariy va metodologik asos

sifatida foydalaniladi.

O'rganilayotgan metodologiyaning asosiy maqsadi samaradorlikka ta'sir ko'rsatuvchi mezonlarni har tomonlama baholash hisoblanib, samaradorlikning o'sishi rentabellikni ta'minlaydi. Demak, sanoat korxonalarini iqtisodiy holatini ifodalovchi omillarga asoslanib samaradorlikni ta'minlovchi ko'rsatkichlar tizimini shakllantirishimiz zarur. Iqtisodiy samaradorlik korxonada faoliyatini asosiy yo'nalishlari (mahsulotlar iste'moli, ishlab chiqarish, texnologiya, marketing, xodimlar va boshqaruv) mutanosibligini ta'minlashga asoslanadi. Bu indikator har bir yo'nalish bo'yicha samaradorlikni tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi asosida hisoblanadi.

Korxonalarining iqtisodiy samaradorligi bevosita sarflanayotgan kapital mablag'lardan foydalanish darajasiga bog'liq bo'lib, moliyaviy samaradorlikni aniqlashni quyidagicha taklif etamiz.

$$Mls = \frac{(1-O'Ms)+(1-JMs)+(1-As)+Km}{4} \quad (3.3)$$

Bunda:

O'Ms-o'z mablag'lardan foydalanish koeffitsiyenti;

Jms-jalb qilingan mablag'lardan foydalanish koeffitsiyenti;

As-aktivlar rentabelligi koeffitsiyenti;

Km-moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti.

Sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini baholashda N.I.Morozko, G.J.Allayeva, B.O.Tursunovlar texnologik samaradorlikni iqtisodiy natijalarga ta'sirini o'rganganlar.

N.I.Morozko tomonidan iqtisodiy va texnologik daraja ko'rsatkichi o'rganilgan bo'lib, muallif texnologik jarayonlar ketma-ketligini korxonalarini ishlab chiqarish samaradorligi darajasiga ta'siri va kelajakdagi o'zgarish dinamikalarini baholangan. Muallif asosan sanoat korxonalarini rivojlanganlik darajasini baholashda iqtisodiy natijalar, ishchi-xodimlarning mehnat unumdorligi

ko'rsatkichi, smenalilik koeffitsiyentlari va rentabellik ko'rsatkichlarini baholagan⁷⁴.

G.J.Allayeva tadqiqot ishida yoqilg'i-energetika kompleksi korxonalari faoliyatini samarali rivojlantirish masalalari o'rganilgan bo'lib, ishlab chiqarish samaradorligini baholashda kapital mablag'lar sarfi asos qilib olingan. G.J.Allayeva taklif etgan formulada yangi texnologiyalardan foydalangan holda xarajatlarning barcha turlarini hisobga olib, iqtisodiy natijani baholagan. Uning fikricha yangi texnologiyani ishlab chiqarishga jalb qilinishidan oldingi holat bilan, yangi texnologiyalarni joriy qilingandan keyin holat bo'yicha olinadigan natijalarga farq hisoblanadi⁷⁵ (3.4-formulaga qarang).

$$\Xi = (Z_6 * A_6 + \Delta Z * \Delta A_H) - Z_H * A_H \quad (3.4)$$

Bunda:

Z_6 - yangi texnologiyalarni joriy etishdan oldingi xarajatlar;

Z_n - yangi texnikadan foydalangan holda mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari;

A_b - asosiy jihozlardan foydalanib yoki yangi texnika joriy qilingunga qadar ishlab chiqarilgan mahsulot (ishlar) hajmi;

A_n - yangi texnikadan foydalanganda olingan qo'shimcha mahsulot (ishlar);

ΔZ - o'zgartirilgan texnikani qo'llanishda qo'shimcha mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlar.

B.O.Tursunov tomonidan ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashda mavjud quvvatlaridan foydalanish holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar o'rganilgan. Muallif ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi bo'yicha klasterli tahlil usulidan foydalangan va ishlab chiqarish quvvatlariga ta'sir etuvchi omillarning ahamiyatligini aniqlash bo'yicha quyidagi modelni taklif etgan (3.5 formula)⁷⁶.

$$K_{ps} = f(W, k_t, d_{AM}, d_{MZ}, R, L_P, O_{bZ}) \quad (3.5)$$

⁷⁴Н.И.Морозко «Оценка эффективности деятельности предприятия» Интернет-журнал «Наукovedenie» <http://naukovedenie.ru>. Том 7, №2 март - апрель 2015 г.

⁷⁵G.J. Allayeva «Yoqilg'i-energetika kompleksi korxonalari faoliyatini samarali rivojlantirish» i.f.f.d. (PhD) avtoreferati. –Toshkent –2018-yil. 15-16 bet.

⁷⁶B.O.Tursunov Korxonona faoliyatini boshqarishni takomillashtirishda ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanish mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent – 2019 15-17 betlar.

Bunda:

K_{ps} – ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish samaradorligi ko‘rsatkichi;

W – bitta xodim bo‘yicha hisoblangan-yillik ish haqi darajasi;

k_t – xodimlarning o‘rtacha-yillik soni;

d_{AM} – ishlab chiqarish tannarxida amortizatsiya ulushi;

d_{MZ} – ishlab chiqarish tannarxida moddiy harajatlar ulushi;

R – realizatsiya qilingan mahsulot rentabelligi;

L_p – mehnat unumdorligi ko‘rsatkichi;

O_{bZ} – ishlab chiqarish zaxiralarini aylanuvchanlik ko‘rsatkichi.

Yuqoridagi tadqiqotlarda ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish samaradorligini texnologik jarayonlar ketma-ketligini holati, kapital mablag‘lar sarfi va mavjud quvvatdan foydalanish holatiga ta’sir etuvchi omillar asosida baholaganlar. Bizning fikrimizcha bu turdagi samaradorlikni baholashda mavjud ishlab chiqarish vositalarini holati va yangilanish koeffitsiyentlari asosida tadqiq etish zarur. (3.6 formula).

$$Ts = \frac{Kyar+Kes+Kyan}{3} \quad (3.6)$$

Bunda: $Kyar$ -jihozlarning yaroqlilik koeffitsiyenti; Kes -asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti; Ky -asosiy vositalaring yangilanish koeffitsiyenti.

To‘qimachilik korxonalarida mavjud ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish holati va uning samaradorligi o‘zgarishi korxonani innovatsiyalarni joriy etish holatiga bog‘liq. Korxonalarni innovatsion samaradorligi bir so‘mlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan innovatsion xarajatlar natijasida olinayotgan daromad o‘zgarishi asosida baholanadi. (3.7 formula)

$$Ins = \frac{(1-Is)+(1-Isn)+Ri}{3} \quad (3.7)$$

Bunda:

Is -innovatsion xarajatlardan foydalanish koeffitsiyenti;

Isn -raqamlashtirishga sarflangan xarajatlaridan foydalanish koeffitsiyenti;

Ri- Innovatsion xarajatlar rentabelligi koeffitsiyenti.

Samaradorlikni ta'minlovchi asosiy omillardan biri korxonalarda marketing faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yilganligi bo'lib, to'qimachilik mahsulotlariga bozordagi talabni tez o'zgaruvchanligi marketing samaradorligin aniqlashni talab etadi.

$$Mars = \frac{(1-Mss)+Ks+(1-Kyu)+Rs}{4} \quad (3.8)$$

Bunda: Mss-sotish uchun sarflangan xarajatlardan foydalanish koeffitsiyenti; Ks-sotish hajmini o'zgarish koeffitsiyenti; Kyu-aylanma mablag'larni yuklanish koeffitsiyenti; Rs-sotilgan mahsulotlar rentabelligi koeffitsiyenti.

Yuqoridagi tadqiqotlarda ko'rib o'tdikki, iqtisodchi olimlar tomonidan to'qimachilik sanoat korxonlarida ishlab chiqarish samaradorligini ifodalash bir qator yo'nalishlar asosida amalga oshirilgan. Ushbu yo'nalishlarda foydalanilgan iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari 2-ilovada havola etilgan.

Ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichlari to'qimachilik korxonalarida mavjud ishlab chiqarish natijalarini holati, ularni yaxshilash imkoniyati mavjudligini aniqlash hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish zaxiralarini oshirish shart-sharoitlari mavjudligini baholashda qo'llaniladi.

O'rganilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy samaradorlik - bu korxonaning rentabelligini ta'minlovchi iqtisodiy parametrlar va ko'rsatkichlar asosi hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha yuqoridagi iqtisodiy samaradorlikni aniqlash va baholash bilan bog'liq ilmiy izlanishlarda korelyasion-regression tadqiqotlar e'tibordan chetda qolgan. Shuningdek izlanishlarda omilli baholashga kam e'tibor qaratilgan.

Sanoat korxonalarining mahsulotlari iste'moliga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish asosida ko'p omilli regressiya funksiyasidan foydalanish talab etiladi (3.9 formula)⁷⁷:

$$MI = f(YHMs, SMIs, QMKs, Ni, ISHd, ISt) \quad (3.9)$$

⁷⁷ Muallif ishlanmasi

Bunda: MI – mahsulot iste'moli; YHMs - YAHMning o'sish sur'ati; SMIs - sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati; QMKs - qisqa muddatli kredit stavkasi; Ni - narxlar indeksi; ISH_d - ish haqi shaklidagi daromad; ISt - iste'molchilar sonini o'zgarishi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish samadorligini baholashda mahsulot birligi uchun saflanayotgan, moddiy resurslar, mehnat resurslari sarfini o'rganish, asosiy vositalar hisobiga yaratilayotgan mahsulotlar hajmi o'zgarishini aniqlash, xarajatlar birligiga to'g'ri keluvchi foyda o'zgarishiga baho berish asosida iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash zaxiralarini aniqlashimiz mumkin.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish samadorligini baholovchi yuqoridagi xususiy samaradorlikni ta'minlovchi ko'rsatkichlar bilan birga umumiy samaradorlikni baholovchi ko'rsatkichlardan ham foydalanishimiz mumkin. Bizning tadqiqotlarimizda umumiy iqtisodiy samaradorlikni ishlab chiqarishni diversifikatsiya koeffitsiyenti asosida baholash orqali tadqiq qilamiz.

Korxonalar faoliyatini diversifikatsiyasi bevosita ishlab chiqarishni joylashuvi va hududlarni ixtisoslashganlik darajasiga bog'liqligini Paraxina V.N., Voronsova G.V., Momotova O.N.⁷⁸ quyidagi formula asosida baholaganlar.

$$D = \frac{d_{\text{ВРП}}^{\text{отр}}}{D_{\text{ВРП}}^{\text{отр}}} \quad (3.10)$$

Bunda:

D- mintaqaviy iqtisodiyotni diversifikatsiyalashganlik darajasi;

$d_{\text{ВРП}}^{\text{отр}}$ — yalpi hududiy mahsulotda (YaHM)sanoatning ulushi;

$D_{\text{ВРП}}^{\text{отр}}$ —sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi (YAIM) ulushi.

Ishlab chiqarish natijalari o'zgarishi va hududlarning YAHM tarkibini baholashda va aholi bandligini tadqiq etishda diversifikatsiyalash ta'sirini V.Ryabseva. A.Salai va K.Gatevalar baholaganlar⁷⁹ (1.3.1-jadval).

⁷⁸ Парахина В.Н., Воронцова Г.В., Момотова О.Н. Методический инструментарий оценки уровня региональной диверсификации и ее реализации // Экономика: вчера, сегодня, завтра. 2012 г. № 1-2. ст 36–50.

Indeks nomi	Hisoblash formulasi	Shartli belgilash
V.Ryabsev	$I_R = \sqrt{\frac{\sum (d_{1i} - d_{0i})^2}{\sum (d_{1i} + d_{0i})^2}}$	d_0 – dastlabki holatdagi tarmoqdagi ulushi; d_1 – keyingi holatdagi tarmoqdagi ulushi;
A.Salai	$I_S = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n \left(\frac{d_{1i} - d_{0i}}{d_{1i} + d_{0i}} \right)}{n}}$	n – strukturadagi elementlar soni
K. Gatev	$I_R = \sqrt{\frac{\sum (d_{1i} - d_{0i})^2}{\sum (d_{1i}^2 + d_{0i}^2)}}$	

Bu indekslardan diversifikatsiyalash o‘zgarishlarini intensivligini tavisflovchi ko‘rsatkich sifatida foydalanilishi mumkin, lekin bu ko‘rsatkichlar diversifikatsiya holatini to‘la baholash imkonini bermaydi.

Diversifikatsiyalashni baholashda Ye.A.Kolmak Teyla indeksidan foydalanishni taqdim etgan⁸⁰.

$$T = \sum_{r=1}^R \left(\frac{Y_r}{y} * Ln \frac{Y_r}{Y/R} \right) \quad (3.11)$$

Bunda: Y_r -r mintaqaning o‘zgaruvchan qiymati; Y -bir xil o‘zgaruvchilarning qiymati; R -mintaqalar soni.

Ko‘pchilik tadqiqotlarda, V.S.Mxitaryan, M.G.Polikarpovalar Xerfindalya–Xirshmana indeksi asosida baholashni imkoniyatini yuqorigini asoslaganlar. Xerfindalya–Xirshmana indeksi bozordagi raqobatni baholash uchun foydalaniladi va quyidagi formula asosida hisoblanadi⁸¹.

$$HI = S_1^2 + S_2^2 + \dots + S_n^2 \quad (3.12)$$

Bunda: S_1, S_2 korxonaning sotilgan mahsulotlari hajmini umumiy sanoat mahsulotlari hajmiga nisbati.

⁷⁹ В.Г. Зарецкая, И.К. Титкова. «Диверсификация экономики российских регионов: измерения и тенденции» журнал «Экономика» 2017 г. Стр 223.

⁸⁰ Коломак Е.А. Межрегиональное неравенство в России: экономический и социальный аспекты // Пространственная экономика. 2010. №. 1. С. 132–150.

⁸¹ Мхитарян В.С., Поликарпова М.Г. Статистический анализ российского рынка слияний и поглощений за 2008–2012 гг. // Вопросы статистики. 2014. № 3. С. 23–29.

Yuqoridagi tadqiqotlarda ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashning tarmoq, mintaqaviy xususiyatlari asosida baholagan bo'lsa, statistik ma'lumotlar kengligi va ulardan foydalanishda noqulayliklar keltirib chiqaradi.

Taqdim etilgan metodikalar korxonalar faoliyatida foydalanish uchun samarali bo'lsada, korxonalarni samaradorligini to'la baholay olmaydi, biroq umumiy diversifikatsiyasi koeffitsiyentini baholashda foydalanish mumkin. Fikrimizcha iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan diversifikatsiyaga yondashilganda mazkur ko'rsatkichda sotilgan mahsulotlar hajmi o'zgarishi asosida aniqlash ijobiy natija beradi. Shuning uchun to'qimachilik korxonalarini uchun diversifikatsiya qilishning miqdoriy va sifat darajasini baholash metodologiyasi takomillashtirildi.

$$DE_t = \left[\left(1 - \frac{1}{n}\right) * \sum_{i=1}^n \frac{SQ_t^i}{Q_t^i} \right] - \left[\left(1 - \frac{1}{m}\right) * \sum_{j=1}^m \frac{SQ_b^j}{Q_b^j} \right] \quad (3.13)$$

Bunda: DE_t -diversifikatsiya samaradorligi; n -diversifikatsiya davrida korxonadan ishlab chiqarilgan mahsulot turlari soni; m -dastlabki holatda ishlab chiqarilgan mahsulot turlari soni; SQ_t^i diversifikatsiyadan so'ng sotilgan mahsulot hajmi; SQ_b^j - diversifikatsiyadan oldingi davrdagi sotilgan mahsulot hajmi.

Ko'rib chiqilgan uslublarni tahlil etish asosida yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda to'qimachilik korxonalarida iqtisodiy samaradorligini baholashda diversifikatsiya samaradorligini baholash maqbul uslub hisoblanadi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda, o'rganilgan ko'rsatkichlar va ularni aniqlash bo'yicha usullardan foydalanish asosida sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqamiz.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

Sanoat korxonalarini iqtisodiy samaradorligini ta'minlash mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, sanoat korxonalarini natijalari

iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni mutanosibligiga asoslanadi. Shuning uchun iste'molchilar ehtiyojlarini qondirish asosida iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash, mavjud resurslardan oqilona foydalanish va mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlaridan to'la foydalanish asosiy omil hisoblanadi.

Iqtisodiy samaradorlikka bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi, ularni xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ichki omillar moddiy-texnik resurslar mutanosibligi, foyda taqsimoti, korxonani marketing siyosati va boshqaruv tizimi hamda zamonaviy texnologiyalar va nou-xaularning qo'llanilishiga asoslansa, tashqi omillar korxonalarni tashqi iqtisodiy aloqalari, resurslar narxi, o'zaro hamkorlar bilan aloqalar, inflyasiya darajasi, bozordagi talab va taklifni o'zgarishi va demografik o'zgarishlarga asoslanadi. Shuning uchun bu omillar o'zgarishi ta'sirini o'rganish zarur.

Sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar turli hil bo'lib, ularning ishlab chiqarish natijalariga ta'siri asosida ijtimoiy samaradorlik, moliyaviy samaradorlik, innovatsion samaradorlik, marketing samaradorligi va texnologik samaradorliklarni aniqlash asosida umumiy iqtisodiy samaradorlikni baholash imkoniyati shakllantirildi. Ushbu ko'rsatkichlar korxonalarining iqtisodiy samaradorlik holatini ifodalab, mahsulotlar iste'moliga ta'sirchanligini oshirish asoslari ishlab chiqildi.

II BOB. ANDIJON VILOYATI TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI TAHLILI.

2.1. Sanoat tarmog‘ining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari.

Bugungi kunda milliy iqtisodiyotimizda soha va tarmoqlarning ahamiyati kundan kunga ortib, rivojlanib bormoqda. Hududlardagi soha va tarmoqlar mamlakat iqtisodiyotini tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunda, qo‘shilgan qiymat zanjirini hosil qiluvchi sanoat tarmog‘ini baholash dolzarb masaladir.

Andijon viloyati sanoat tarmoqlari natijalarini baholash, uni rivojlanish imkoniyatlarini hamda sanoat korxonalarini samaradorligini aniqlashda bir qator iqtisodiy vazifalarni ajratib ko‘rsatamiz:

birinchi vazifa - sanoat tarmog‘ini iqtisodiy holati dinamikasini baholash, ularni rivojlantirish omillarini aniqlash;

ikkinchi vazifa – sanoatni tarkibiy tuzilishi va iqtisodiy xususiyatlarini tahlil qilish. Sanoat tarmog‘i, tarmoqda bandlik va korxonalar faoliyatining ishlab chiqarish natijalari o‘shish omillarini baholash;

uchinchi vazifa - sanoat tarmog‘ini rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, hududda investitsion va innovatsion faoliyat natijalarini baholash va foydalanilmayotgan imkoniyatlarni ochib berish;

to‘rtinchi vazifa - sanoat tarmog‘i va uning tarkibidagi korxonalar ishlab chiqarish imkoniyatlarini yaxshilash maqsadida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijalarini baholash va ularni takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash.

Bugungi kunda iqtisodiyot soha va tarmoqlari hususan, sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi, xizmatlar sohasi rivojlanib kelmoqda. Ushbu yo‘nalishlarda sanoat yetakchi tarmoqlardan biri hisoblansada, uning tarkibidagi qo‘shilgan qiymat yaratuvchi, iste’mol tovarlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarini rivojlanishini ta’minlash ham birdek muhim. Bu esa mazkur tarmoq tarkibini va ishlab chiqarish natijalarini baholash zarurligini asoslaydi.

Mamlakat sanoat tarmog‘i oxirgi yillarda o‘shish tendensiyasiga erishdi, 2021-yilda sanoat korxonalarini tomonidan mahsulot ishlab chiqarish hajmining qiymati 451633,9 mlrd. so‘mni tashkil etib, bu 2020-yilga nisbatan 122,5 foizni tashkil etgan.

Shuningdek, mamlakat yalpi ichki mahsulotda sanoat mahsulotlarining ulushi 2015-yilda 16,9 foizga, 2020-yilda 25,5 foizga va 2021-yilda 25,8 foizga ortgan. Mazkur ijobiy tendensiyaga ishlab chiqarish omillarining o‘zgarishi kuchli ta’sir qilganligi hisob-kitoblarimiz orqali aniqlandi. Jumladan, viloyatda 2015-2021-yillarda sanoat sohasiga kiritilgan investitsiyalar ko‘lami ortib borgan. Ya’ni, mamlakatimizda oxirgi yillarda investitsiyalar ko‘lamini oshirish bo‘yicha olib borilgan iqtisodiy siyosat natijasida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda ishlab chiqarish sanoati ulushi 2020-yilda 36,5 foizni, 2021-yilda esa 46,4 foizni tashkil etgan⁸². Bu esa yangi qurilish, asbob-uskunalar haridi hisobiga yangi ish joylarini yaratilishi va ishlab chiqarish hajmining o‘shishiga olib keldi. Natijada yuqoridagi ijobiy tendensiya kuzatildi.

Andijon viloyatida yalpi hududiy mahsulotda sanoat mahsulotlarining ulushi respublika ko‘rsatkichlariga nisbatan oxirgi yillarda past bo‘lgan. Bu ko‘rsatkich 2011-yili 17,0 foizni, 2016-yilda 11,2 foizni, 2020-yilda 23,1 foizni hamda 2021-yilda 20,7 foizni tashkil etgan (2.1.1-jadvalga qarang).

2.1.1-jadval

Yalpi ichki mahsulotda va yalpi hududiy mahsulotda sanoat mahsulotlarini salmog‘i⁸³


Yillar	Sanoat mahsulotlarini YaIMdagi ulushi	Andijon viloyatida sanoat mahsulotlarini YAHMdagi ulushi
2011-y.	16,0	17,0
2012-y.	15,3	18,8
2013-y.	16,1	20,8
2014-y.	16,2	19,4
2015-y.	16,9	16,0
2016-y.	17,3	11,2
2017-y.	17,9	13,9
2018-y.	19,7	22,4
2019-y.	22,4	23,8
2020-y.	25,5	23,1
2021-y.	28,3	20,7

⁸² O‘zbekistogn Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

⁸³ O‘zbekistogn Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi va Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Demak, oxirgi yillarda viloyat sanoat tarmog‘ida o‘shishga erishilgan, lekin, bu mamlakatdagi holat bilan solishtirilganda nisbatan pastligini ko‘rishimiz mumkin. Sanoat mahsulotlarini YaIMdagi ulushi 2021-yili 28,3 foizni tashkil etgan bo‘lsa, Andijon viloyatida sanoat mahsulotlarini YAHMdagi ulushi 20,7 foizni tashkil etgan. Bunga sabab, mamlakatda oxirgi yillarda hududlarning sanoatdagi ulushi ortishi bo‘lgan, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o‘shish sur‘ati Andijon viloyatida 9,3 foizga, Navoiy viloyatida 16,1 foizga va Toshkent shahrida 19,5 foizga teng bo‘lgan.

Andijon viloyati sanoati qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishdan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. (2.1.1-rasmga qarang)




2.1.1-rasm. Andijon viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot tarkibida tarmoqlarning ulushi dinamikasi⁸⁴

Andijon viloyatida YaHMdagi sanoat tarmog‘ining ulushi 2011-2014-yillarda sezilarsiz o‘zgarib borgan bo‘lsa, 2015-2016-yillarga kelib pasaygan. Mazkur holat Andijon viloyati sanoat tarmog‘ida ustuvor ulushga ega «O‘zavtomotors» AJning ishlab chiqarish ko‘lami bilan bog‘liq. Ya‘ni, ushbu davrlarda jahon bozorida avtomobillarga bo‘lgan talabning qisqarishi tufayli viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi qisqargan. 2018-yilga kelib esa sanoatning YaHMdagi ulushida ijobiy o‘zgarishlar yuz bergan. Bu bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar, yangi

⁸⁴Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

bozorlarni kashf etish natijasida 2020 va 2021-yillarda yana ijobiy tendensiyaga erishildi (2.1.2-rasm qarang).

Mazkur holatni ham viloyatdagi avtomobil ishlab chiqarish sanoati faoliyati bilan bog'laymiz. Yuqorida amalga oshirilgan tadqiqotlarimizni ifodalashicha, viloyat sanoat tarmog'ini diversifikatsiya qilish talab etiladi. Bu esa, hududiy iqtisodiyotni barqaror va muvozanatli rivojlanishini ta'minlaydi.



2.1.2-rasm. Andijon viloyatida sanoat mahsulotlarini o'sish sur'atlari⁸⁵.

Bunda, viloyatning ichki imkoniyatlarini hisobga olsak oziq-ovqat hamda yengil sanoatni kengaytirish uchun yetarlicha xomashyo mavjud. Jumladan, respublikada yetishtiriladigan paxta xomashyosi bo'yicha Andijon viloyati 4 o'rinda turadi. Mazkur kattalikni aholi jon boshiga hisoblanganda esa nisbatan yuqori bo'lib, 9 o'rinni egallaydi. Shuningdek, qishloq xo'jaligini boshqa tarmoqlari bo'yicha ham viloyat respublikada sezilarli ulushlarga ega. Bu esa yuqorida ta'kidlaganimizdek, oziq-ovqat va yengil sanoat uchun resurs salohiyati yetarligidan dalolat beradi. Bundan tashqari qo'shni Qirg'iziston Respublikasidan go'sht mahsulotlarini olib chuqur qayta ishlash imkoniyati ham mavjud.

Viloyatdagi qulay investitsion muhit, mavjud moddiy resurslar, ishchi kuchi va iqtisodiy salohiyat bugungi kunda Andijon viloyati sanoatini rivojlanishga imkoniyat yaratadi. Andijon viloyati sanoatiga kiritilgan investitsiyalar hajmi

⁸⁵ Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi..

2020-yilda 3196,3 mlrd. soʻmni, umumiy investitsiyaga nisbatan 36,5 foizni tashkil etgan. Bu koʻrsatkich 2019-yilga nisbatan esa 38,8 foizga teng boʻlgan⁸⁶. Investitsiyadagi ijobiy oʻzgarishlar amalga oshirilgan meʼyoriy hujjatlardagi oʻzgarishlar bilan ham bogʻliq. Oxirgi yillarda sanoat tarmogʻiga kiritilayotgan investitsiya salmogʻi nisbatan kamaygan. Umumiy holatda investitsiyalarni jalb etishdagi nomutanosibliklarga infratuzilmalar holati, yaʼni tijorat banklari, investitsiya fondlari, sugʻurta va lizing kompaniyalarining faoliyati investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan izohlashimiz mumkin. Shu bilan birga ishchi kuchining salohiyati, tadbirkorlarni biznes sohasidagi koʻnikmalari, investitsion loyihalar bilan ishlash tajribasi yetarli emasligi, konsalting, marketing xizmatlarini talab darajasida emasligi ham oʻz taʼsirini koʻrsatadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda investitsiyalarni jalb etishni samarali tizimini yaratish zarur hisoblanadi.


Innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun viloyatda infratuzilmani rivojlantirish, yangi loyiha, texnik ishlanma va ishlab chiqarishni tashkil etishning zamonaviy shakllaridan foydalanish zarur. Buning uchun Andijon viloyati iqtisodiyotida 2021-yilda innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun budjetdan 6,6 mlrd. soʻm mablagʻ ajratilgan. Bu koʻrsatkich 2020-yilga nisbatan 21 foizga koʻp. Hududlarni innovatsion faoliyatini rivojlantirishda raqobardoshlilikni taʼminlovchi kadrlar salohiyatini oshirish, texnik imkoniyatlarni, ularni rivojlantirish asoslarini aniqlash, yangiliklarni iqtisodiy jihatdan ragʻbatlantirish va investitsiyalarni jalb etish asosida axborot kommunikatsion faoliyatni rivojlantirishga eʼtibor berilmoqda. Sanoat korxonalarini rivojlantirish uchun yangi zamonaviy innovatsiyalarga asoslangan texnologiyalarni amaliyotga qoʻllash natijasida jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvini amalga oshirish taʼminlanadi. Bu oʻz navbatida sanoat korxonalarida innovatsion faollikni oshirish va investitsiya dasturlarini ishlab chiqishni talab qiladi. Korxonalarda innovatsion faollikni rivojlantirish korxonalarni strategik maqsadlariga asoslanadi. Korxonalarni strategik maqsadlari oʻzaro iqtisodiy hamkorlikka bogʻliq boʻlib, Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy

⁸⁶ Andijon viloyati statistika boshqarmasi maʼlumotlari

o'zgarishlarni muhim tendensiyasi sifatida integratsiyalashuv jarayonlarini keltirib o'tish lozim. Integratsiyalashuv natijasida ortiqcha ishlab chiqarish xarajatlari oldi olinib, mahsulotni sotish, taqsimlash va investitsiyalardan olinadigan samarani ta'minlash va mahsulotlar eksporti orqali korxonalar foydasi ortadi. Innovatsion faoliyat mazkur yo'nalishda iqtisodiy faollikni ta'minlovchi asosiy omil sanaladi. Innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash asosida, ishlab chiqarishga yangiliklar joriy etiladi, ishlab chiqarish zanjirini vertikal integratsiyalashuvi asosida moliyaviy-iqtisodiy, texnikaviy rivojlanish ta'minlanadi. Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash asosida yangiliklarni ishlab chiqish, amaliyotga qo'llash o'zaro iqtisodiy hamkorlik talab qiladi. Sanoat korxonalari faoliyatida innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish manbalarini tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda shakllantirish, innovatsion faoliyat natijasida olinadigan daromadlardan mutaxassislarni rag'batlantirish zarur.

Demak, ishlab chiqarishda innovatsion faoliyatni rivojlantirish zamonaviy innovatsiyalarga asoslangan texnologiyalarni qo'llash, iqtisodiyotni integratsiyalashuvini ta'minlaydi.

Andijon viloyati sanoati korxonalari soni oxirgi yillarda ortib borgan bo'lib, ular yangi tashkil etilayotgan korxonalar tarkibida asosiy o'rinni egallagan (2.1.3-rasmga qarang).



2.1.3-rasm. Andijon viloyati sanoat korxonalarini jami ro'yxatdan o'tgan korxonalardagi ulushi⁸⁷.

⁸⁷ Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Tadqiqot davrida ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni ortib borgan, uning tarkibida sanoat korxonalari ulushi jami yangi tashkil etilganlarga nisbatan ham yuqori hisoblanadi.

Andijon viloyatida 2011-yil jami ro'yhatdan o'tgan korxonalar 18985 tani tashkil etgan bo'lsa, 2021-yil 40982 tani tashkil etgan, uning tarkibidagi sanoat korxonalarini ulushi 2011-yil 18,2 foiz, 2015-yili 19,0 foiz, 2020-yil 21,1 foiz hamda 2021-yil 22,7 foizni tashkil etgan. Ko'rinib turibdiki, sanoat korxonalari salmog'i ijobiy tomonga o'zgargan, lekin bu natijalar bugungi kundagi mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlari va bozor talabi uchun yetarli emas. Bu holatga quyidagilar o'z ta'sirini ko'rsatmoqda:

- xomashyo resurslar holati va qayta ishlash darajasi. Birgina 2021-yili kalava ipni tayyor mahsulotgacha qayta ishlash darajasi Respublikada 23 foizni tashkil etgan⁸⁸;

- ishlab chiqarish quvvatidan to'liq foydalanilmayotganligi. 2020-yili Andijon viloyatidagi sanoat korxonalari 62,6 foiz, to'qimachilik korxonalari 77,0 foiz ishlab chiqarish quvvatidan foydalangan bo'lsa, 2021-yili sanoat korxonalari 64,1 foiz, to'qimachilik korxonalari esa 79,0 foiz quvvatdan foydalangan⁸⁹;

- hududlardagi mavjud sanoat korxonalarining bo'sh turgan ishlab chiqarish fabrikalari, husasan Andijon viloyatida bo'sh turgan va samarasiz foydalanilayotgan yirik sanoat va ishlab chiqarish ob'ektlari 116 tani tashkil etadi, ulardan Andijon shahridagi ip yigiruv korxonasiga qarashli ishlab chiqarish bino va inshootlari, sobiq trikotaj fabrikasiga qarashli bino va inshootlar, Baliqchi tumanigi sobiq ip yigiruv fabrikasiga qarashli bino va inshootlar, Izboskan tumanidagi sobiq shoyi tuqish fabrikasiga qarashli bino va inshootlar;


- sanoat mahsulotlariga bo'lgan talabni to'liq qondirilmasligi. Viloyatda mavjud sanoat korxonalari tomonidan bozordagi talabni to'la qondirilmasligi

⁸⁸ <https://www.gazeta.uz/uz/2022/06/28/cotton>

⁸⁹ Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari

natijasida import hisobiga 2019-yili 248,4 mln. dollarlik, 2020-yili 258,8 mln dollarlik va 2021-yili 245,9 mln. dollarlik sanoat mahsulotlari iste'mol qilingan⁹⁰.

Bundan kelib chiqqan holda sanoat korxonalarini faoliyatini rivojlantirish, ularni modernizatsiya qilish uchun ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirishda mavjud resurslar holati, aholi joylashuvi va infrastrukturallarni hisobga olish talab etiladi. Shu bilan birga sanoat ishlab chiqarish natijalariga korxonalarini hududiy joylashuvi va aholi zichligi o'rtasidagi bog'liqlik o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu o'z navbatida ishlab chiqarish natijalarida hududlarning ulushi o'zgarishida ham namoyon bo'ladi. Andijon viloyati sanoat korxonalarining ishlab chiqarish natijalarini tahlil qilganimizda 2021-yil shahar va tumanlarning ulushi eng ko'p Asaka tumani 50,3 foizga to'g'ri kelgan va eng kam ulush esa Buloqboshi tumaniga 0,9 foizga teng bo'lgan. To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda 2021-yil eng ko'p ulush Qo'rg'ontepa tumaniga 13,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, tayyor kiyim mahsulotlari ishlab chiqarishda Xo'jaobod tumani 24,7 foiz ulushga ega bo'lgan (2.1.4-rasm qarang).



2.1.4-rasm. Andijon viloyati sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmida shahar va tumanlarning ulushi⁹¹.

⁹⁰ Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari

⁹¹ Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Sanoat mahsulotlari ulushi yuqori tumanlarda yetakchi sanoat korxonalari joylashgan. Andijon viloyatining sanoat ishlab chiqarilishida eng kam ulush asosan Buloqboshi, Bo‘ston va Ulug‘nor tumanlariga to‘g‘ri kelgan. Bu hududlarga sanoatni olib kirish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashni kengaytirish zarur. Chunki bu hududlarda resurslar ta‘minoti imkoniyati yuqori hisoblanadi. Bundan kelib chiqqan holda hududlarni iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash uchun sanoat korxonalarini muayyan sohalarga ixtisoslashtirish zarur. Asosiy e‘tibor hududlarni mavjud resurslari va ishlab chiqarish xususiyatlarini hisobga olgan holda sanoat sohasini ajratish zarur.

Iqtisodiyotni ixtisoslashuvini ta‘minlash uchun zarur shart sharoitlarni ta‘minlash, imtiyozlar berish va soha yo‘nalishlarini belgilash zarur. Bunda asosiy e‘tibor atrof muhitga salbiy ta‘sir etuvchi korxonalarni aholi zich bo‘lmagan (Ulug‘nor, Bo‘ston) hududlarga joylashtirish, ko‘p mehnat talab qiladigan korxonalarni aholi zich hududlarga joylashtirish ijobiy natija beradi. Sanoatni bugungi kundagi holatidan kelib chiqqan holda hududlarni muayyan ishlab chiqarish sohasiga ixtisoslashtirish zarur. Xususan, Xo‘jaobod tumanini trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishga va Asaka tumanini mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqarishga va barcha tumanlarni iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib korxonalarni rivojlantirish zarur. Jumladan, hududlardagi mavjud bo‘sh turgan va samarasiz foydalanilayotgan ishlab chiqarish ob‘ektlaridan foydalangan holda muayyan turdagi mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan kichik sanoat zonalarini tashkil etish zarur.

Viloyatda mavjud bo‘sh turgan ishlab chiqarish ob‘ektlaridan foydalanishni yo‘lga qo‘yish asosida ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish darajasini oshirishda mavjud infratuzilma va ishlab chiqarish-resurs salohiyatini hisobga olishimiz zarur. Xususan Qo‘rg‘ontepa tumani Qorasuv shaxrida joylashgan sobiq paypoq ishlab chiqarish korxonasining ishlab chiqarish imkoniyatlarini foydalanish asosida tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish uchun resurs salohiyati, bino va inshootlar hamda infratuzilma mavjud.

Qo'rg'ontepa tumanida joylashgan Qorasuv paypoq to'qish fabrikasi umumiy ishlab chiqarish imkoniyati yuqori korxonalaridan biri bo'lib, 1987-yildan 2000-yilgacha faoliyat ko'rsatgan. Korxonada 9,33 gektar maydonda joylashgan, shundan ishlab chiqarish binosi 1,82 gektarga teng bo'lgan. Korxonada yiliga 300 mln. dona mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lib, 4000 kishi faoliyat ko'rsatgan. Lekin oxirgi yillarda korxonaning mavjud ishlab chiqarish binoalaridan foydalanish holati talab darajasida bo'lmagan.

Amalga oshirilgan tahlillarni ko'rsatishicha to'qimachilik mahsulotlariga, hususan paypoq mahsulotlariga bo'lgan talab yuqori. Ayniqsa, oxirgi yillarda mahsulotlar eksportida ham tayyor mahsulotlar va paypoq mahsulotlar ulushi ortib borgan (2.1.2-jadval). Ya'ni, paxta kalava-ip eksporti-yildan-yilga kamayib borgan bo'lib, 2021-yili umumiy eksportning 50,9 foizini tashkil etgan. Ip gazlama, trikotaj matolari va tikuvchilik trikotaj mahsulotlari ortib borgan. Paypoq mahsulotlari eksporti esa umumiy eksportning 2,5 foizini tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan 25 foizga ortgan (2.1.2-jadval).

2.1.2-jadval

«O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasi korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar eksporti tarkibi o'zgarishi (foiz)⁹².

Ko'rsatkichlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Paxta kalava-ip	76,0	66,5	56,6	50,9
Ip gazlama	7,0	6,6	14,4	16,1
Trikotaj matolari	8,0	11,0	11,5	13,5
Tikuvchilik trikotaj mahsulotlari	7,8	14,4	15,5	17,0
Paypoq mahsulotlari	1,2	1,5	2,0	2,5

Demak Andijon viloyatining Qo'rg'ontepa tumanida joylashgan Qorasuv paypoq to'qish fabrikasi umumiy ishlab chiqarish imkoniyati yuqoriligini inobatga olgan holda, korxonada hududida to'qimachilik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonada tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunga bo'sh turgan bino va inshootlar mavjudligi, hududda mavjud mehnat resurslari, xomashyo resurslar imkoniyati

⁹² «O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

yuqoriligi va infratuzilmalarni to‘qimachilik korxonalarini uchun qulayligini keltirishimiz mumkin. Shu bilan birga investitsion jozibadorlikni oshirish maqsadida mazkur hududni alohida imtiyozga ega kichik sanoat zonasiga aylantirish maqsadga muvofiq. Chunki kichik sanoat zonalarini uchun bir qator imtiyozlar mavjud bo‘lib, ichki va tashqi investorlarni jalb etish imkoniyatini yaratadi.

Natijada-yiliga 5000 tonna paxta-xomashyosini qayta ishlashga va 1000 dan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratishga erishamiz.

Viloyat iqtisodiyotida ham sanoat tarmog‘ini rivojlantirishda to‘qimachilik sanoat korxonalarini ahamiyati yuqori bo‘lib, sanoat mahsulotlari tarkibida ham salmoqli o‘rinni egallaydi. (2.1.2-jadval).

Viloyat sanoat mahsulotlari takibida to‘qimachilik mahsulotlarini ulushi 2011-2013-yillar davomida o‘zgarmagan, 2014-yili 14,6 foizga teng bo‘lgan bo‘lsa, 2021-yili 14,7 foizni tashkil etgan. Sanoat korxonalarini tomonidan tayyor kiyim mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ortishi 2021-yili 8,9 foizga teng bo‘lib, bu 2011-yilga nisbatan 5,5 barobarga va 2015-yilga nisbatan 3,9 barobarga ortgan.

2.1.2-jadval

To‘qimachilik va tayyor kiyim mahsulotlarini jami sanoat mahsulotlaridagi ulushi⁹³

Yillar	To‘qimachilik mahsulotlari bo‘yicha	Tayyor kiyim mahsulotlari bo‘yicha
2011-y.	8,5	1,6
2012-y.	7,8	1,5
2013-y.	7,8	1,5
2014-y.	11,2	2,0
2015-y.	14,6	2,3
2016-y.	12,9	13,5
2017-y.	10,9	9,8
2018-y.	8,4	6,0
2019-y.	7,7	5,5
2020-y.	8,3	5,8
2021-y.	14,7	8,9

⁹³Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari.

Viloyat iqtisodiyotining xomashyo, moddiy resurslar va mehnat resurslari yuqoriligini inobatga olgan holda ko'p resurs talab qiladigan (moddiy resurs va mehnat sig'imi yuqori) korxonalarni rivojlantirish iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkoniyatini yaratadi. Shuning uchun viloyatda to'qimachilik sanoati korxonalari faoliyatida ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash zarur hisoblanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarda ham ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ya'ni «Iqtisodiyotimizni mutlaqo yangi asosda tashkil etish va yanada erkinlashtirish, uning huquqiy asoslarini takomillashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish bo'yicha qator qonunlar, farmon va qarorlar, puxta o'ylangan dasturlar qabul qilindi va ular izchil amalga oshirilmoqda»⁹⁴.

Belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda to'qimachilik mahsulotlari turlarini va hajmini ortishi natijasida ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobatni rivojlantirishga e'tibor qaratish va buning natijasida korxonalar faoliyatini rivojlantirish zarur. To'qimachilik korxonalari faoliyatida diversifikatsiyalash asosida yangi turdagi ishlab chiqarishni o'zlashtirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va buning asosida iqtisodiy samaradorlikni ta'minlovchi omil hisoblanib, bunga bevosita ichki va tashqi omillar ta'sir ko'rsatadi.

Ichki omillarga mavjud texnologiyalar holati, ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasi, jihozlar modernizatsiyasi, innovatsiya, boshqaruv va mahsulotlar sifatlik darajasini keltirishimiz mumkin.

Tashqi omillar ya'ni bozor omili, makroiqtisodiy barqarorlik, iste'molchilar talabi o'zgarishi, raqobat, davlatning iqtisodiy siyosati, geografik sharoitlar va baho siyosatiga asoslanadi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda viloyatda sanoat tarmog'ini rivojlantirish uchun diversifikatsiyalash va resurslarning konsentratsiyalashuvi asosida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish zarur.

⁹⁴O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga eng asosiy va dolzarb siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy masalalar va jamiyatni demokratik rivojlantirish bo'yicha Murojaatnomasi. Toshkent. 2017-yil 22-dekabr..

Andijon viloyati sanoat korxonalarini tarkibidagi to'qimachilik korxonalarini faoliyatida diversifikatsiyalashni amalga oshirish ijobiy natija beradi. Buning natijasida quyidagilarga erishiladi.

-ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash asosida ilmiy texnik taraqqiyot rivojlanadi;

-ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash iqtisodiy samaradorlik ortadi;

-diversifikatsiyalash natijasida ishlab chiqarish vositalarini bo'sh turib qolishi oldi olinadi;

-zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga tadbqiq etish imkoniyatlari yaxshilanadi;

-doimiy xarajatlarni ulushini qisqarishi hisobiga ishlab chiqarish hajmini ortishi natijasida ishlab chiqarish rentabelligi ortadi.

Olib borilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, Andijon viloyati sanoat korxonalarini faoliyatini natijalarini o'rganish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

sanoat tarmog'i milliy iqtisodiyotda yetakchi tarmoqlardan biri hisoblansada, Andijon viloyatidagi sanoat korxonalarining iqtisodiy imkoniyatlari yetarli emas, chunki xomashyo resurslar holati, ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasi va mahsulotlarga bo'lgan talabni to'liq qondirilmasligi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi va qurilish korxonalarini rivojlantirishni zarurligini ifodalaydi;

sanoat korxonalarini joylashtirishda mavjud resurslar holati, aholi joylashuvi, infrastruktura, mintaqaviy xususiyatlari va ixtisoslashganlik darajasini hisobga olish asosida ekologiyaga salbiy ta'sir etuvchi korxonalarini aholi zich bo'lmagan (Ulug'nor, Bo'ston) hududlariga joylashtirish;

sanoat tarmog'ini rivojlantirish uchun to'qimachilik korxonalarini faoliyatiga mahsulotlar iste'moli, mavjud moddiy va mehnat resurslar ta'siri yuqoriligini inobatga olgan holda ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash imkoniyatlari baholandi.

2.2. To‘qimachilik korxonalarida iqtisodiy samaradorlik darajasi tahlili

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish uchun sanoat korxonalarining faoliyati iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalarini yanada takomillashtirish zarur. Chunki iqtisodiyotda yaratilayotgan moddiy ne‘matlarni asosiy qismi sanoat korxonalariga to‘g‘ri keladi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad ham tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarini rivojlantirishga qaratilmoqda. Korxonalar faoliyati natijalari mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlaridan foydalanish darajasiga bog‘liq bo‘lib, resurslar ta‘minoti va mahsulot birligi uchun sarfini o‘rganish asosida iqtisodiy samaradorlik holati o‘rganiladi.

Iqtisodiy samaradorlik mezonlari ichida ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasi ham mezon ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

Tadqiqot davrida Andijon viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan to‘qimachilik sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish samaradorligini oshirish korxonalar innovatsion rivojlanish yo‘lidagi strategik maqsadlarga erishishni ta‘minlovchi asosiy manba hisoblanadi. Andijon viloyatidagi yetakchi to‘qimachilik klasteri «Saxovat Teks» MCHJ paxta xomashyosidan kalava ip va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo‘lsa, «Skorton tekstil» MCHJ va «Xo‘jaobod turon tekstil» MCHJ korxonasi to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Korxonalar ichki bozorga mahsulot yetkazib berish bilan birga mahsulotlarini asosiy qismini eksportga yo‘naltiradi.

«Skorton tekstil» MCHJning ishlab chiqarish quvvati viloyatdagi mavjud to‘qimachilik korxonalarida ichida eng yuqorisi bo‘lib 20000 tonna paxta tolasini qayta ishlash imkoniyatiga ega. Tadqiqotlarda ko‘rib o‘tilgan korxonalar ichida ham eksport salohiyati yuqori bo‘lib, korxonalar tomonidan yarim tayyor kalava ip eksporti 72 foizni, tayyor tikuv mahsulotlari va tayyor mato 28 foizni tashkil etgan. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, «Skorton tekstil» MCHJda joylashgan 10 ta yirik ishlab chiqarish bo‘limlari mavjud. Korxonaning iqtisodiy faoliyati oxirgi yillarda bir muncha yaxshilangan (2.2.1-jadval).

«Skorton tekstil» MChJning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari (foiz)⁹⁵.

Yillar	Mahsulot hajmi	Ishchi xodimlarning o'rtacha soni (kishi)	Bitta xodimga to'g'ri keluvchi o'rtacha ish haqi (ming so'm)	Mehnat unumdorligi Mln so'm	Bir mo'mlik mahsulot tannarxi	Ishlab chiqarish quvvatida foydalanish darajasi	Umamii rentabellik darajasi (foiz)	Sotilgan mahsulot rentabelligi (foiz)
2011-y.	28194,0	185	594,4	152,4	0,93	82,3	4,1	2,8
2012-y.	46623,0	197	673,1	236,7	0,94	86,1	3,1	1,8
2013-y.	51559,0	199	755,8	259,1	0,94	81,1	2,9	1,7
2014-y.	41033,0	197	827,3	208,3	0,95	81,3	3,4	1,2
2015-y.	57609,0	194	985,4	297,0	0,96	89,3	2,6	1,0
2016-y.	61068,0	195	1214,7	313,2	0,95	78,5	3,2	1,5
2017-y.	68468,0	225	1339,9	304,1	0,92	84,1	4,6	3,3
2018-y.	65675,0	198	1336,8	331,7	0,91	82,8	4,4	3,6
2019-y.	317271,0	861	1604,5	368,5	0,86	84,9	8,3	5,5
2020-y.	496100,4	1290	2014,5	384,7	0,83	89,4	8,1	5,2
2021-y.	999520,3	2443	2323,9	409,2	0,84	90,1	8,9	6,7

Korxonaning mahsulot ishlab chiqarish hajmi oxirgi 2011-yili 28194 mln so'mni, 2015-yili 57609,0 mln so'mni va 2021-yili 999520,3 mln so'mni tashkil etib-yildan-yilga ortib borgan, bunga mos ravishda korxonada ishchi xodimlari soni ham ortib borgan. Natijada korxonada mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari 2021-yili 409,2 mln so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2011-yilga nisbatan 2,7 barobarga, 2015-yilga nisbatan 37,7 foizga va 2020-yilga nisbatan 6,5 foizga ortgan. Bunga bevosita ishchi xodimlarning o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichlari o'zgarishi ta'sir ko'rsatgan bo'lib, korxonada o'rtacha oylik ish haqi 2021-yili 2323,9 mln. so'mni tashkil etib, 2011-yilga nisbatan 3,9 barobarga, 2015-yilga nisbatan 2,4 barobarga va 2020-yilga nisbatan 115 foizga ortgan. Korxonada bir

⁹⁵ «Skorton tekstil» MChJning ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

soʻmlik mahsulot tannarzi 2021-yili 0,84 soʻmni tashkil etgan boʻlib, natijada korxonaning umumiy retabellik darajasi 8,9 foizni tashkil etgan, bu koʻrsatkich oʻtgan 2011-yilga nisbatan 0,9 foizga, 2015-yilga nisbatan 0,8 foizga yaxshilangan. Korxonaning iqtisodiy natijalari oʻzgarishiga 2019-yilda Baliqchi, Buloqboshi va Izboskan tumanlaridagi ip yigiruv fabrikalarini «Skorton tekstil» MChJ tarkibida oʻzaro hamkorlikdagi faoliyatni yoʻlga qoʻyilganligi taʼsiri yuqori boʻlgan. Natijada mavjud ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasi ham ortib borgan.

«Skorton tekstil» MChJning ishlab chiqarish quvvatini 20000 tonna paxta tolasini qayta ishlash imkniyatiga ega ekanligini hisobga olsak, bir nechta tumanlardan xomashyo olib kelib qayta ishlanardi. Amalga oshirgan tahlillarimiz korxonaning biznes rejasida aks etgan koʻrsatkichlariga tayanib, «Skorton tekstil» MChJni tumanlarda filiallarini tashkil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Filiallarini tashkil etish uchun Baliqchi, Buloqboshi va Izboskan tumanlar tanlab olingan. Bunga sabab sifatida quydagilarni sanab oʻtamiz:

- Boʻsh turgan Baliqchi va Buloqboshi tumanlaridagi sobiq ip yigiruv fabrikasiga qarashli bino va inshootlar hamda Izboskan tumanidagi sobiq shoyi toʻqish fabrikasiga qarashli bino va inshootlar mavjudligi;
- sanab oʻtilgan hududlardagi ip-yigiruv fabrikalarida faoliyat koʻrsatgan malakali ishchi-xodimlar mavjudligi;
- mazkur tumanlardagi yetishiralayotgan paxta xomashyosi toʻliq qayta ishlanmayotganligi;
- hududlarda toʻqimachilik korxonalarini faoliyatini tashkil etish uchun zarur infratuzilmalar mavjudligi.

Hulosa qilib aytilganda, yuqoridagi ishlab chiqarish, xomashyo resurs, bozor, kadrlar va infratuzilma salohiyatini hisobga olib Baliqchi, Buloqboshi va Izboskan tumanlarda «Skorton tekstil» MChJni filiallarini ochish taklifi ishlab chiqilgan.

Korxonalarini iqtisodiy natijalari mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlaridan foydalanish darajasiga bogʻliq boʻlib, Andijon viloyatida faoliyat koʻrsatayotgan

ayrim to‘qimachilik sanoati korxonalarida mavjud ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish holati oxirgi yillarda past bo‘lgan. (2.2.2-jadvalga qarang).

2.2.2-jadval

Andijon viloyati to‘qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishni ifodalovchi ko‘rsatkichlar (foiz)⁹⁶.


Yillar	«Skorton tekstil» MCHJ	«Saxovat Teks» MCHJ	«Xo‘jaobod turon tekstil» MCHJ
2011-y.	82,3	80,1	69,2
2012-y.	86,1	82,2	70,0
2013-y.	81,1	66,2	72,9
2014-y.	81,3	70,2	61,9
2015-y.	89,3	85,4	91,0
2016-y.	78,5	80,2	95,7
2017-y.	84,1	86,6	91,6
2018-y.	82,8	88,1	90,0
2019-y.	84,9	81,4	89,5
2020-y.	89,4	91,2	88,1
2021-y.	90,1	87,1	88,6

Oxirgi yillarda korxonalar mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmagan. Xususan «Skorton tekstil» MCHJning ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasi 2011-yilda 82,3 foizni hamda 2021-yil oxirida 90,1 foizni tashkil etgan. «Saxovat Teks» MCHJda esa 2013-yilda 66,2 foizni tashkil etib, eng past quvvat bilan ishlagan, ushbu ko‘rsatkich 2020-yilda 91,2 foizni tashkil etgan. «Xo‘jaobod turon tekstil» MCHJ 2011-yilda 69,2 foiz, 2021-yilda 88,6 foiz ishlab chiqarish quvvatidan foydalangan. Korxonalarda foydalanilayotgan ishlab chiqarish vositalarining holati, xomashyo va material resurslar ta‘minoti, butlovchi qismlarning narxi qimmatligi hamda elektr energiyasidan foydalanishdagi uzilishlarni salbiy ta‘sirida to‘liq quvvat bilan ishlamagan.

⁹⁶ «Skorton tekstil» MCHJ, «Saxovat Teks» MCHJ va «Xo‘jaobod turon tekstil» MCHJ ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasining pastligiga mahsulotlar raqobatdordoshligi ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bunga ishlab chiqarishda foydalanilayotgan mashina va jihozlar nisbatan eskirganligi, mahsulotlar sifati past bo'layotganligi va ish vaqtidagi yo'qotishlar sabab bo'lmoqda. Bu o'z navbatida mahsulotlar narxi va bozorda tutgan o'rniga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Korxonalarda ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasiga to'g'ridan to'g'ri ishchi-xodimlar salohiyati, soni va mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Tadqiqot davomida o'rganilgan korxonalarda sanoat ishlab chiqarish xodimlari tarkibi o'zgargan, xususan oliy ma'lumotli xodimlarni sanoat ishlab chiqarishdagi xodimlar tarkibidagi salmog'i bir muncha pastligan (2.2.1-rasm).



2.2.1-rasm. Andijon viloyatidagi to'qimachilik sanoati korxonalarida oliy ma'lumotli xodimlar tarkibi o'zgarishi⁹⁷

To'qimachilik korxonalarini mehnat salohiyatini o'zgarishi bevosita mehnat natijalariga ham o'z ta'sirini ko'rsatib, mahsulot tannarxida mehnat xarajatlari salmog'ini ortishiga mehnat unumdorligi o'zgarishiga ta'sir ko'rsatgan.

⁹⁷ Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi

Skorton tekstil» MCHJ, «Saxovat Teks» MCHJ va «Xo'jaobod turon tekstil» MChJlarda ham mehnat unumdorligi ko'rsatkichi oxirgi yillarda bir muncha o'zgargan (2.2.3-jadval).

2.2.3-jadval

Andijon viloyatidagi to'qimachilik sanoat korxonalarining mehnat unumdorligi ko'rsatkichi o'zgarishi (mln so'm)⁹⁸.

Yillar	«Skorton tekstil» MCHJ	«Saxovat Teks» MCHJ	«Xo'jaobod turon tekstil» MCHJ
2011-y.	152,4	74,7	30,6
2012-y.	236,7	88,7	32,4
2013-y.	259,1	875,3	45,3
2014-y.	208,3	116,6	45,9
2015-y.	297,0	105,8	44,1
2016-y.	313,2	229,1	48,9
2017-y.	304,1	395,4	66,3
2018-y.	331,7	501,2	64,6
2019-y.	368,5	654,3	67,2
2020-y.	384,7	637,9	102,7
2021-y.	409,2	660,2	112,2

Korxonalarda mehnat unumdorligi ko'rsatkichi o'zgaruvchan bo'lib, 2021-yili eng yuqori natijaga erishilgan,-yillik o'sish kuzatilgan. Lekin, 2015- 2016-yillarda nisbatan bu ko'rsatkich kamaygan. Korxonalarda mehnat unumdorligi ko'rsatkichining o'zgarishiga mavjud ishlab chiqarish vositalarining holati va mahsulotlar realizatsiyasi nisbatan past bo'lganligi o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Korxonalarining mehnat natijalarini samaradorligini 2-ilova ma'lumotlari asosida tahlil qilganimizda «Skorton tekstil» MChJda korxonani ijtimoiy samaradorligiga mehnat sig'imi ta'siri yuqori bo'lgan (2.2.4-jadval).

⁹⁸ «Skorton tekstil» MCHJ, «Saxovat Teks» MCHJ va «Xo'jaobod turon tekstil» MCHJ ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

2.2.4-jadval

Andijon viloyatida ayrim to‘qimachilik sanoat korxonalarida ijtimoiy samaradorligi holati (koeffitsiyent)⁹⁹

Yillar	«Skorton tekstil» MCHJ	«Saxovat Teks» MCHJ	«Xo‘jaobod turon tekstil» MCHJ
2011-yil	0,57	0,52	0,66
2015-yil	0,56	0,58	0,69
2020-yil	0,60	0,65	0,59
2021-yil	0,59	0,67	0,63

$$Ijts = \frac{(1-Ms1)+(1-Ms2)+Rm}{3} = \frac{(1-0,25)+(1-0,23)+0,24}{3} = 0,59$$

Ijtimoiy samaradorlik ko‘rsatkichi «Skorton tekstil» MChJda 2021-yil uchun 0,59 koeffitsiyentni, 2011-yili 0,57 koeffitsiyentni, 2015-yili 0,56 koeffitsiyentni va 2020-yili 0,6 koeffitsiyentni tashkil etgan. «Saxovat Teks» MChJda 2021-yili hisob kitoblarimizga ko‘ra bu ko‘rsatkich 0,67 koeffitsiyentga teng bo‘lgan va 2015-yilga nisbatan 14 foizga, 2020-yilga nisbatan esa 3,4 foizga yaxshilangan.

Bu yondashuv asosida ijtimoiy samaradorlikni o‘zgarishini baholash bir qator ijobiy imkoniyatlarni yaratadi:

-mehnat unumdorligini oshirish imkoniyatlarini korxonani rivojlantirish strategiyalari asosida belgilash;

-mehnat samaradorligini ishlab chiqarish xarajatlarini o‘zgarishi, rentabellikni ortishi va korxonani iqtisodiy holatidan kelib chiqib oshirish zaxiralarini aniqlash;

-mehnat unumdorligini oshirish uchun har bir xodimga aniq maqsad va vazifani belgilash.

Sanoat korxonalari faoliyatida mehnat natijalari bilan birga mavjud ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish darajasi va ularning holati iqtisodiy samaradorlikni ta’minlovchi asosiy mezoni hisoblanadi.

⁹⁹ «Skorton tekstil» MCHJ, «Saxovat Teks» MCHJ va «Xo‘jaobod turon tekstil» MCHJ ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

To‘qimachilik sanoati korxonalarida fond bilan qurollanganlik darajasi ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasiga, moddiy resurslardan foydalanish holatiga, mahsulot sifatiga va mehnat samaradorligiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Fond bilan qurollanganlik ko‘rsatkichini ishlab chiqarish samaradorligiga ta‘sirini tahlil qilish natijasida mahsulot yaratishda fondlarni o‘rni, unga mehnat resurslarini soni va salohiyati ta‘siri hamda asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorligini aniqlash mumkin (2.2.5-jadvalga qarang).

2.2.5-jadval

Andijon viloyatidagi ayrim to‘qimachilik korxonalarida asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar¹⁰⁰

Yillar	«Skorton tekstil» MCHJ			«Saxovat Teks» MCHJ			«Xo‘jaobod turon tekstil» MCHJ		
	Fond bilan qurollanganlik (ming so‘m)	Fond qaytimi (so‘m)	Fond sig‘imi (so‘m)	Fond bilan qurollanganlik (ming so‘m)	Fond qaytimi (so‘m)	Fond sig‘imi (so‘m)	Fond bilan qurollanganlik (ming so‘m)	Fond qaytimi (so‘m)	Fond sig‘imi (so‘m)
2011-y.	450,6	1,34	2,96	863,9	3,78	0,26	87,1	2,84	0,35
2012-y.	619,2	2,38	2,62	8153,2	2,8	0,36	94,7	2,93	0,34
2013-y.	592,1	1,74	2,29	8711,1	3,16	0,32	104,8	2,31	0,43
2014-y.	634,1	1,83	3,04	8340,5	3,99	0,25	126,3	2,75	0,36
2015-y.	682,5	1,44	2,3	18979,2	2,14	0,47	122,5	2,77	0,36
2016-y.	1195,8	1,26	3,82	218260	1,97	0,51	141,3	2,89	0,35
2017-y.	1196,5	1,89	3,48	9558,6	2,33	0,43	189,4	2,85	0,35
2018-y.	1038,6	1,82	3,13	116969,0	1,87	1,15	182,9	2,83	0,35
2019-y.	572,5	1,99	3,4	190172,0	1,55	0,65	163,6	2,44	0,41
2020-y.	507,8	2,13	3,02	215308,3	2,03	0,49	240,5	2,34	0,43
2021-y.	768,8	1,88	2,65	225562,8	1,92	0,52	251,9	2,22	0,45

¹⁰⁰ ««Skorton tekstil» MCHJ, «Saxovat Teks» MCHJ va «Xo‘jaobod turon tekstil» MCHJ ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Jadvalda asosiy fondlarni ishlab chiqarishda band bo'lgan ishchilarga nisbatan qurollanganlik ko'rsatkichi «Saxovat Teks» MChJga to'g'ri kelmoqda. 2021-yili 225,6 mln. so'mni tashkil etib-yildan-yilga ortib borgan. Skorton tekstil» MCHJda 2011-yili 450,6 mln. so'mni, 2015-yili 682 mln. so'mni va 2021-yili 768,8 mln. so'mni tashkil etgan bo'lib, oxirgi yillarda nisbatan kamaygan, chunki korxonaga olib kelingan yangi ishlab chiqarish texnologiyalar va qurilgan ishlab chiqarish binolari hisobiga asosiy fondlar qiymati ortgan, bunga mos ravishda qo'shimcha ishchi-xodimlar ham jalb qilingan. «Xo'jaobod turon tekstil» MCHJ fond bilan qurollanganlik darajasi 2011-yili 87,1 mln. so'mni, 2015-yili 122,5 mln. so'mni va 2021-yili 251,9 mln. so'mni tashkil etgan va-yildan-yilga ortib borgan.

Fond bilan qurollanganlik darajasi «Xo'jaobod turon tekstil» MCHJda o'zgarishi bir me'yorda bo'lgan. Jalb qilingan asosiy vositaga mos ravishda ishchi kuchi jalb qilingan. «Skorton tekstil» MCHJ asosiy vositalarga nisbatan ishchi-xodimlarni o'sish sur'ati yuqori bo'lgan bo'lsa, «Saxovat Teks» MCHJ faoliyatida asosiy vositalarning o'sish sur'ati yuqori bo'lgan. Bu o'zgarishlar natijasida mehnat unumdorligi va fond bilan qurollanganlik darajasi bog'liqligining korrilyasiyasi «Skorton tekstil» MChJda 0,86 ga, «Saxovat Teks» MCHJda 0,97 ga va «Xo'jaobod turon tekstil» MCHJda 0,98 ga teng bo'lgan.

Ishlab chiqarish samaradorligi mehnat resurslari va asosiy fondlardan foydalanish darajasiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lib, ishlab chiqarish zahiralari belgilash, moddiy resurslar ta'minotini yaxshilash va o'rnini bosuvchi resurslardan foydalanish talab etiladi. Korxonalar zaxira omborida yetarli moddiy resurslar mavjud bo'lmasa, ularni o'rnini bosuvchi xomashyo va material resurslardan foydalanish yoki qo'shimcha jalb qilishga majbur bo'ladi. Natijada sotib olish, tashish va qayta ishlashda qo'shimcha xarajatlar yuzaga keladi. Bu esa o'z navbatida mahsulot tannarxi ortishiga, sifatini pastlashiga va mahsulotlar realizatsiyasiga va korxonalar imidjiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Moddiy resurslarni qo'shimcha jalb qilishda resurslar narxi va tashish xarajatlari ham yuqori bo'ladi.

Tadqiqot davomida Andijon viloyatidagi ayrim to'qimachilik korxonalarini

moddiy resurslar ta'minoti hisobiga ishlab chiqarishda uzilishlar yuzaga kelgan (2.2.6-jadvalga qarang).

2.2.6-jadval

Andijon viloyatida ayrim to'qimachilik sanoat korxonalarida moddiy resurslardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari¹⁰¹

Yillar	«Skorton tekstil» MCHJ			«Saxovat Teks» MCHJ			«Xo'jaobod turon tekstil» MCHJ		
	Bir so'mlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan moddiy resurslar (so'm)	Mahsulot tannarxida moddiy resurslar salmog'i (foiz)	Moddiy resurslar rentabelligi darajasi (foiz)	Bir so'mlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan moddiy resurslar (so'm)	Mahsulot tannarxida moddiy resurslar salmog'i (foiz)	Moddiy resurslar rentabelligi darajasi (foiz)	Bir so'mlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan moddiy resurslar (so'm)	Mahsulot tannarxida moddiy resurslar salmog'i (foiz)	Moddiy resurslar rentabelligi darajasi (foiz)
2011-y.	0,28	30,2	0,99	0,24	28,9	25,0	0,43	47,8	4,54
2012-y.	0,36	37,5	2,27	0,23	28,2	9,1	0,45	48,0	5,29
2013-y.	0,38	40,3	1,13	0,3	33,2	7,0	0,43	47,6	6,16
2014-y.	0,38	41,7	1,18	0,25	26,0	5,0	0,45	48,7	4,09
2015-y.	0,37	39,3	0,22	0,33	36,3	3,5	0,45	47,9	3,87
2016-y.	0,38	39,5	0,29	0,36	37,0	3,2	0,46	49,2	6,75
2017-y.	0,39	40,1	0,51	0,32	38,8	21,5	0,51	54,7	5,82
2018-y.	0,38	39,1	0,05	0,33	36,5	22,1	0,48	52,4	7,28
2019-y.	0,42	45,0	1,03	0,3	34,6	39,5	0,47	50,0	9,4
2020-y.	0,41	44,9	0,99	0,28	33,2	34,1	0,46	50,7	12,7
2021-y.	0,46	49,7	0,45	0,38	33,8	39,1	0,42	52,2	13,4

Tahlil ma'lumotlariga ko'ra, «Skorton tekstil» MChJda moddiy resurslar sarfi ortgan, natijada moddiy resurslarni mahsulot tannarxidagi salmog'i 2011-yilda 30,2 foizdan 2021-yilda 49,7 foizga yetgan. Buning hisobiga moddiy resurslardan foydalanish rentabelligi darajasi pasaygan.

Bu o'zgarishlarga bevosita asosiy xomashyo paxta tolasi narxi va yoqilg'i energiya sarflari sabab bo'lgan. «Saxovat Teks» MChJda esa bir so'mlik mahsulot

¹⁰¹ «Skorton tekstil» MCHJ, «Saxovat Teks» MCHJ va «Xo'jaobod turon tekstil» MCHJ ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

ishlab chiqarish uchun sarflangan moddiy resurslar sarfi 2021-yili 0,38 soʻmni tashkil etgan. «Xoʻjaobod turon tekstil» MChJda mahsulot tannarxida moddiy resurslar sarfi ortib borgan, tadqiqot davrida 2021-yilda 2011-yilga nisbatan oʻzgarishi hisobiga, mahsulot tannarxida moddiy resurslar sarfi 109 foizni tashkil etgan. Bu oʻzgarishlarga asosiy sabab boʻlib, xomashyo sarfini ortishi, mahsulot tannarxida xomashyo va materiallar ulushi yuqoriligi oʻz taʼsirini koʻrsatgan.

Toʻqimachilik sanoati korxonalarida mahsulot birligi uchun moddiy resurslar sarfi oʻzgarishiga ichki va tashqi omillar taʼsirini beshta guruhga boʻlgan holda ifodalashimiz mumkin (2.2.7-jadvalga qarang).

2.2.7-jadval

Toʻqimachilik sanoati korxonalarida mahsulot moddiy isteʼmoliga taʼsir etuvchi taʼminot omillar¹⁰²

№	Ichki omillar	Tashqi omillar
1	Xomashyo va material resurslar narxi	Taʼminotchilar, Bozor omili, Vositachilar
2	Xomashyo va material resurslar sifati	Taʼminotchilar, Transport shartlari, Saqlash shartlari, Ishlov berish shartlari
3	Yuklash va tushirish xarajatlari	Taʼminotchilar, Vositachilar
4	Transport xarajatlari	Taʼminotchilar, Vositachilar
5	Qarz mablagʻlari boʻyicha foizlar	Vositachilar

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda toʻqimachilik sanoati korxonalarida moddiy resurslardan foydalanishda quydagilarni hisobga olish zarur:

1. Taʼminot (ombor) shaklini meʼyorlashtirish. Toʻqimachilik sanoati korxonalarida faoliyatida sarflanadigan moddiy resurslar zaxirasi va ishlab chiqarishdagi ishtirokiga koʻra meʼyorlashtirish talab etiladi.

2. Maqbul narx. Moddiy resurslar narxi, sotib olish, tashish uchun qilinishi mumkin boʻlgan xarajatlarni hisobga olinishi.

3. Resurslar sifati. Toʻqimachilik sanoati korxonalarida moddiy resurslar sifati samaradorlikni bosh omili hisoblanadi, ularni yetkazib berishda va saqlash jarayonida sifatini taʼminlash talab etiladi.

¹⁰² Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

4. Ta'minotning ishonchliligi. Xomashyo va mol yetkazib beruvchilar bilan amalga oshiriladigan iqtisodiy aloqalar mustahkamligiga asoslanadi.


5. Optimal resurs hajmi. To'qimachilik sanoati korxonalarini ishlab chiqarish imkoniyati asosida resurslarning maqbul partiyalarda hajmini belgilash zarur.

To'qimachilik sanoati korxonalarida ishlab chiqarish faoliyati natijalarini shartli ravishda uchga bo'lib o'rganish mumkin:

- ta'minot jarayoni (50 foiz);
- ishlab chiqarish jarayoni (20 foiz);
- sotuv jarayoni (30 foiz).

Mahsulot ishlab chiqarish jarayoninig asosiy bosqichlari ta'minot va sotuvga to'g'ri keladi. To'qimachilik korxonalarini faoliyatida mahsulotlarni sotish va uni samaradorlikka ta'sirini o'rganish zarur.

To'qimachilik sanoati korxonalarida mahsulot sotish hajmini to'g'ri belgilash samaradorlikni asosiy omili hisoblanadi. Korxonalar faoliyatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar bozori-yildan-yilga kengayib bormoqda (2.2.2-rasmga qarang).



2.2.2-rasm. To'qimachilik sanoati korxonalarida sotilgan mahsulotlarni eksportdagi ulushi (foiz)¹⁰³.

Tadqiqot davrida «Skorton tekstil» MChJda ishlab chiqarilgan asosiy mahsulotlarni 2021-yilda 86 foizi eksport qilingan, bu 2015-yilga nisbatan 110

¹⁰³ «Skorton tekstil» MChJ, «Saxovat Teks» MChJ va «Xo'jaobod turon tekstil» MChJ ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

foizni tashkil etgan. Korxonani eksport hajmi ortgan, mahsulot ishlab chiqarish hajmi ortgan lekin, rentabellik ko'rsatkichi bunga mos ravishda ortmagan, bu bevosita mahsulotlarni sotish asosida foydani oshirish rezervlariga alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatmoqda.

Korxonalarda asosan yarim tayyor va yarim mahsulotlar kalava ip, tayyor mato, tayyor tikuv mahsulotlari eksport qilinmoqda.

Skorton tekstil» MCHJda yarim tayyor kalava ip eksport asosiy ulushni egallagan bo'lib, 2021-yili umumiy eksportning 72 foizini tashkil etgan, 28 foiz tayyor tikuv mahsulotlari va tayyor mato eksportiga to'g'ri kelmoqda. «Xo'jaobod turon tekstil» MChJda mahsulotni sotish hajmi 2021-yilda umumiy ishlab chiqarilgan mahsulotni 96,1 foizi realizatsiya qilingan, shundan 84 foiz mahsulot eksport qilingan va bu 2011-yilga nisbatan 7 barobarga ortgan bo'lsa, 2015-yilga nisbatan 149 foizni tashkil etgan. Korxonada trikotaj va tikuvchilik mahsulotlari 88 foiz va 12 foiz tayyor mato eksport qilgan. «Saxovat Teks» MCHJlar 2021-yili eksporti tarkibini asosini kalava ip tashkil etgan.

Korxonalarining ishlab chiqarish natijalariga marketing samaradorligi ta'sirini 2-ilova ma'lumotlari asosida tahlil qilganimizda korxonalarini marketing samaradorligiga mahsulotlarni sotish xarajatlari va sotish hajmi ta'siri yuqori bo'lgan va amaliyotda diversifikatsiya qilish zarurligini ko'rishimiz mumkin (2.2.8-jadvalga qarang).

2.2.8-jadval

Andijon viloyatida ayrim to'qimachilik sanoat korxonalarida marketing samaradorligi holati (koeffitsiyent)¹⁰⁴

Yillar	«Skorton tekstil» MCHJ	«Saxovat Teks» MCHJ	«Xo'jaobod turon tekstil» MCHJ
2011-yil	0,64	0,69	0,56
2015-yil	0,69	0,75	0,49
2020-yil	0,68	0,72	0,62
2021-yil	0,71	0,80	0,54

¹⁰⁴ «Skorton tekstil» MCHJ, «Saxovat Teks» MCHJ va «Xo'jaobod turon tekstil» MCHJ ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

$$Mars = \frac{(1-Mss)+Ks+(1-Kyu)+Rs}{4} = \frac{(1-0,09)+0,99+(1-0,13)+0,067}{4} = 0,71$$

“Skorton tekstil” MChJ “Skorton tekstil” MChJda marketing samaradorligi ko‘rsatkichi 2021-yil uchun 0,71 ko‘effitsentni, 2011-yili 0,64 ko‘effitsentni, 2015-yili 0,69 ko‘effitsentni va 2020-yili 0,68 ko‘effitsentga teng bo‘lgan. “Saxovat Teks” MCHJ da 2021-yili xisob kitoblarimizga ko‘ra bu ko‘rsatkich 0,8 ko‘effitsentga teng bo‘lgan va 2015-yilga nisbatan 6 foizga, 2020-yilga nisbatan 14 foizga yaxshilangan.

Demak korxonalarda mahsulotlar realizitsiyasini yaxshilashning asosiy omillaridan biri ham diversifikatsiyalashga asoslanadi. Mahsulotlar diversifikatsiyasini davriy xususiyatlaridan kelib chiqib iqtisodiy samaradorligini tadqiq qilamiz. Diversifikatsiyalash samaradorligini yuqoridagi aniqlash metodikasi (3.11) asosida tahlil qilamiz.

$$DE_t = \left[\left(1 - \frac{1}{n}\right) * \sum_{i=1}^n \frac{SQ_t^i}{Q_t^i} \right] - \left[\left(1 - \frac{1}{m}\right) * \sum_{j=1}^m \frac{SQ_b^j}{Q_b^j} \right] \quad (3.11)$$

$$\begin{aligned} DE_t &= \left[\left(1 - \frac{1}{7}\right) * \sum_{i=1}^7 \frac{QS_1^i + QS_2^i + \dots + QS_7^i}{Q_t^i} \right] - \left[\left(1 - \frac{1}{5}\right) * \sum_{j=1}^m \frac{QS_1^j + QS_2^j + \dots + QS_5^j}{Q_b^j} \right] = \\ &= \left[\left(1 - \frac{1}{7}\right) * \frac{964536,8}{999520,1} \right] - \left[\left(1 - \frac{1}{5}\right) * \frac{291890,3}{317272,7} \right] = \\ &= (0,857 * 0,965) - (0,8 * 0,92) = 0,091 \end{aligned}$$

“Skorton tekstil” MChJda bu ko‘rsatkichi 2021-yili 0,83 ko‘effitsentga, 2019-yili 0,74 ko‘effitsentga teng bo‘lgan. Yuqoridagi metodologiya bo‘yicha farq 0,09 (yoki) 9,1 foizga yaxshilangan (2.2.9-jadval).

2.2.9-jadval


Andijon viloyatida ayrim to‘qimachilik sanoat korxonalarida diversifikatsiyalash samaradorligi (koeffitsiyent)¹⁰⁵

№	Yillar	2020-yil	2021-yil	farq
1.	“Skorton tekstil” MChJ	0,74	0,83	0,091
2.	“Saxovat Teks” MChJ	0,79	0,87	0,083
3.	"Xo'jaobod turon tekstil" MChJ	0,76	0,92	0,16

“Saxovat Teks” MChJda esa bu ko‘rsatkich 2021-yili 0,87 koeffitsentga, 2020-yili 0,79 koeffitsentga teng bo‘lgan. Natijada diversifikatsiya samaradorligi 0,08ni (8.3 foiz) tashkil etgan ya’ni,

"Xo'jaobod turon tekstil" MChJda bu ko‘rsatkich 0,16 koeffitsentga teng bo‘lgan.

Olib borgan tadqiqotlarimiz natijasida sanoat tarmog‘i mahsulotlari bozorini diversifikatsiyalashni quyidagi guruhlariga bo‘lib o‘rganish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi (2.2.3-rasm qarang):



2.2.3-rasm. Mahsulotlar diversifikatsiyasi¹⁰⁶.

¹⁰⁵ «Skorton tekstil» MChJ, «Saxovat Teks» MChJ va «Xo'jaobod turon tekstil» MChJ ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi
Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

Demak ishlab chiqarishda mahsulotlarni diversifikatsiyalash nafaqat sanoat tarmog‘ini balki iqtisodiyotimizni barcha tarmoqlarni mutanosib rivojlanishini ta’minlovchi manbalardan biri, ya’ni:

- hlab chiqarish faoliyatini kengaytirish;
- mahsulotlarni yangi turlarini ishlab chiqarishga joriy etish;
- marketing va innovatsion faoliyat asosida iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash.

Demak korxonalarda to‘qimachilik mahsulotlarini diversifikatsiyalash asosida yangi turdagi ishlab chiqarishni o‘zlashtirish, ishlab chiqarish vositalarini modernizatsiyalash, innovatsiyalarni qo‘llab quvvatlash va mahsulot hajmini oshirish imkoniyati yuqori.

Korxonalarni bugungi kundagi iqtisodiy holatidan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish natijalari innovatsion faoliyat, moliyaviy natijalar, texnikaviy samaradorlik va marketing faoliyati natijalariga alohida e’tibor qaratish zarur.

Bunda korxonaning asosiy ishlab chiqarish natijalarini umumiy iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini asoslash talab etiladi. “Skorton tekstil” MChJda bu ko‘rsatkich oxirgi yillarda bir muncha yaxshilangan (2.2.10-jadvalga qarang).

$$Iqts = \frac{Ijts+Mls+Ins+Mars+Ts}{5} = \frac{0,59+0,61+0,81+0,71+0,42}{5} = 0,63$$

2.2.10-jadval

Andijon viloyatida ayrim to‘qimachilik sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorligi holati (koeffitsiyent)¹⁰⁷

Yillar	«Skorton tekstil» MCHJ	«Saxovat Teks» MCHJ	«Xo’jaobod turon tekstil» MCHJ
2011-yil	0,57	0,51	0,59
2015-yil	0,61	0,55	0,51
2020-yil	0,62	0,59	0,57
2021-yil	0,63	0,61	0,61

Korxonalarni umumiy iqtisodiy samaradorligi «Skorton tekstil» MChJda 2021-yil uchun 0,63 koeffitsiyentga, 2011-yili 0,57 koeffitsiyentga, 2015-yili 0,61

¹⁰⁷ «Skorton tekstil» MCHJ, «Saxovat Teks» MCHJ va «Xo’jaobod turon tekstil» MCHJ ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

koeffitsiyentga teng bo'lgan. «Saxovat Teks» MChJda 2021-yili hisob kitoblarimizga ko'ra bu ko'rsatkich 0,61 koeffitsiyentga teng bo'lgan va 2015-yilga nisbatan 9,0 foizga, 2020-yilga nisbatan 3,3 foizga yaxshilangan. «Xo'jaobod turon tekstil» MCHJda esa umumiy ishlab chiqarish samaradorligi 2021-yili 0,61 koeffitsiyentni tashkil etgan bo'lsa, 2011-yili 0,59 koeffitsiyentni, 2020-yili 0,57 koeffitsiyentni tashkil etgan. Demak, to'qimachilik sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini umumlashtiruvchi integral ko'rsatkichlarini yuqori (0,7-1,0), o'rta (0,4-0,69) va past (0-0,39) darajalari bo'yicha guruhlashimiz mumkin. Mazkur chegaraning texnologik, marketing, ijtimoiy, innovatsion samaradorlik mezonlari o'zaro bog'liqligi va ta'siri aloqalari yuqori bo'lib, mavjud resurslardan foydalanishni muvofiqlashtirish zarur. Amaliyotda to'qimachilik korxonalarini iqtisodiy samaradorligiga innovatsion faoliyat natijalari va marketing samaradorligi ta'siri ijobiy bo'lmoqda. Korxonalarda innovatsion faoliyatni rivojlantirish asosida moliyaviy-iqtisodiy, texnikaviy va marketing faoliyatini mutanosibligini ta'minlash va ishlab chiqarish zanjirini vertikal integratsiyalashuvi ta'minlanadi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirishda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

sanoat korxonalarida mehnat natijalarini baholash asosida mavjud ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash;

korxonada o'rtacha oylik ish haqi va mehnat unumdorligi ko'rsatkichining o'zgarish nisbatlari asosida samaradorlikni oshirish;

iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish;

moddiy resurslar ta'minotini me'yorlashtirishda ularning narxi, sotib olish, tashish uchun qilinishi mumkin bo'lgan xarajatlarni hisobga olish. Resurslarni yetkazib berish va saqlash jarayonida resurslar sifati buzilishini oldini olish hamda xomashyo va mol yetkazib beruvchilar bilan amalga oshiriladigan iqtisodiy aloqalar mustahkamlash.

Ishlab chiqarish quvvatidan kelib chiqib, bozor iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqarish strategiyasini shakllantirish. Bunda, asosiy e'tiborni ishlab chiqarish muvozanatini ta'minlashga, bozor talabga mos sifatli mahsulot ishlab chiqarishga va ularning realizatsiyasiga qaratish zarur.

2.3.§ To'qimachilik korxonalarini iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.

To'qimachilik korxonalarini iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar 1.3 paragrafda amalga oshirilgan tadqiqotlar bo'yicha olingan xulosalar asosida sanoat ishlab chiqarish xodimlari tarkibi va mehnat natijalari mutanosibligi, mavjud ishlab chiqarish vositalardan foydalanish natijalari va mahsulot birligi uchun moddiy resuslar sarfi o'zgarishi asosida baholanadi.

«Skorton tekstil» MCHJ, «Saxovat Teks» MCHJ va «Xo'jaobod turon tekstil» MCHJ faoliyatlari natijalari asosida iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi.

Korxonalarda iqtisodiy samaradorlik o'zgarishiga sanoat ishlab chiqarish xodimlar tarkibi bevosita ta'sir ko'rsatib, ishchi-xodimlar salohiyatini ortishi mehnat unumdorligini oshirishni ta'minlaydi. Sanoat korxonalarini iqtisodiy natijalari ishchi-xodimlar soni va tarkibi o'zgarishi asosan guruhlariga ajratish asosida xodimlar tarkibidagi salmog'i o'zgarishi ta'sir yuqori bo'lib, uni baholashda:

- korxonani shtat jadvali va faoliyat ko'rsatayotgan ishchi-xodimlarni jadvalga mosligi;
- xodimlarga qo'yiladigan malaka talablari va xodimlarni talablarga mosligi;
- xodimlar ma'lumoti, malakasi, ko'nikmalari zamon talabiga mosligi;
- mehnat natijalarida xodimlar tarkibini o'zgarishi mutanosibligini hisobga olish zarur.

Andijon viloyatidagi ayrim to'qimachilik sanoat korxonalarida ishchi-xodimlar tarkibi salmog'i o'zgarib borgan. (2.3.1-jadval).

Andijon viloyatidagi ayrim to'qimachilik sanoati korxonalarida ishchi-xodimlar tarkibi 2011-2021-yillardagi salmog'i¹⁰⁸

Yillar	«Skorton tekstil» MCHJ		«Saxovat Teks» MCHJ		«Xo'jaobod turon tekstil» MCHJ	
	Asosiy ishchilarni SIHLari tarkibidagi salmog'i	Rahbarlar va mutahassislarning SIXlari tarkibidagi salmog'i	Asosiy ishchilarni SIHLari tarkibidagi salmog'i	Rahbarlar va mutahassislarning SIXlari tarkibidagi salmog'i	Asosiy ishchilarni SIHLari tarkibidagi salmog'i	Rahbarlar va mutahassislarning SIXlari tarkibidagi salmog'i
2011-y.	89,7	10,3	88,3	11,7	92,0	8,0
2012-y.	87,3	12,7	84,2	15,8	89,3	10,7
2013-y.	88,1	11,9	84,2	15,8	88,5	11,5
2014-y.	87,3	12,7	85,7	14,3	89,7	10,3
2015-y.	87,6	12,4	83,3	16,7	88,6,	11,4
2016-y.	87,7	12,3	86,4	13,6	88,2	11,8
2017-y.	89,9	10,1	88	12	89,7	10,3
2018-y.	90,4	9,6	90,1	9,9	91,7	8,3
2019-y.	89,4	10,6	86,9	13,1	93,7	6,3
2020-y.	91,5	8,5	89,3	10,7	93,0	7,0
2021-y.	86,8	13,2	87,5	12,5	87,6	12,4


Ushbu korxonalarda asosiy ishchi-xodimlar tarkibidagi salmog'i 2011-2021-yillarda ortib borgan, lekin rahbarlar va mutaxassis xodimlarning ichida aynan ishlab chiqarish jarayoniga taaluqli bo'lgan xodimlari tarkibi nisbatan kamaygan. Xususan, «Skorton tekstil» MChJda pastroq ko'rsatkich, ya'ni 2021-yilda 8,2 foiz bo'lgan. Shuningdek «Xo'jaobod turon tekstil» MChJda 12,4 foiz hamda «Saxovat Teks» MChJda 10,5 foiz salmog'i aniqlangan. Bu ko'rsatkich o'zgarishiga sabab korxonalarda faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar soni oxirgi yillarda bir necha barobar ortgan. Rahbar xodimlarni sanoat ishlab chiqarish xodimlari tarkibidagi salmog'i pastlagan. Bunga asosiy sabab korxonada sanoat

¹⁰⁸ ««Skorton tekstil» MCHJ, «Saxovat Teks» MCHJ va «Xo'jaobod turon tekstil» MCHJ ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

ishlab chiqarish xodimlari sonini ortishi bo‘lgan. Korxonalar faoliyati kengayishi hisobiga qabul qilingan ishchi-xodimlar tarkibida rahbar xodimlar kamligi bilan izohlanadi. Korxonalar xodimlari tarkibining o‘zgarishiga rahbar xodimlar bilan birga oliy ma’lumotli xodimlar ham bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

Bundan kelib chiqqan holda mehnat resurslarini to‘g‘ri joylashtirish va mehnat unumdorligini oshirish hamda ish haqlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash korxonalarining asosiy vazifalaridan biridir.

Korxonalarining mehnat salohiyatidan foydalanish darajasini mehnat unumdorligi va o‘rtacha ish haqining o‘zgarish darajasi orqali baholanadi. To‘qimachilik korxonalarini mehnat natijalari ham talab darajasida emasligi mahsulotlar raqobatbardoshligini pasayishiga olib kelgan. Bizga ma’lumki mehnat natijalari bevosita ish haqiga bog‘liq bo‘lib viloyatdagi to‘qimachilik korxonalarining o‘rtacha ish haqi ko‘rsatkichi sanoat tarmog‘ining o‘rtacha ish haqi ko‘rsatkichidan nisbatan past hisoblanadi (2.3.1-rasmga qarang).



2.3.1-rasm. To‘qimachilik sanoat korxonalarida o‘rtacha oylik ish haqi o‘zgarishi (ming so‘m)¹⁰⁹

Ish haqini o‘shirish darajasi tarmoqqa nisbatan to‘qimachilik korxonalarida bir muncha past. Andijon viloyati to‘qimachilik korxonalarida o‘rtacha oylik ish haqi ko‘rsatkichi 2021-yilda 3405,9 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, korxonalarda o‘rtacha oylik ish haqi nisbatan pastligini ko‘rishimiz mumkin. To‘qimachilik

¹⁰⁹ Andijon viloyati statistika boshqarmasi, «Skorton tekstil» MCHJ, «Saxovat Teks» MCHJ va Xo‘jaobod turon tekstil» MCHJ ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

sanoat korxonalarida o‘rtacha oylik ish haqining o‘shish sur‘atlari yuqori bo‘lgan. (2.3.2-jadval).

2.3.2-jadval

Andijon viloyati sanoat korxonalirida o‘rtacha oylik ish haqining o‘shish sur‘atlari ¹¹⁰.

Yillar	Viloyat sanoat korxonalarida o‘rtacha oylik ish haqi ko‘rsatkichini o‘shish darajasi	Viloyat to‘qimachilik sanoat korxonalarining o‘rtacha ish haqi ko‘rsatkichi o‘shish darajasi	«Skorton tekstil» MCHJ	«Saxovat Teks» MCHJ	«Xo‘jaobod turon tekstil» MCHJ
2011-y.	132,5	125,0	125,5	156,7	111,0
2012-y.	119,9	119,3	103,9	118,9	114,3
2013-y.	118,3	114,0	123,9	105,0	112,6
2014-y.	121,2	111,0	110,7	106,3	112,3
2015-y.	114,7	108,1	123,8	126,9	105,1
2016-y.	98,5	111,0	144,4	98,7	137,0
2017-y.	106,0	115,5	116,3	113,5	99,9
2018-y.	134,5	127,6	87,3	105,0	110,1
2019-y.	122,5	115,5	116,9	125,5	116,8
2020-y.	107,0	117,5	110,4	146,7	115,1
2021-y.	108,1	104,9	124,7	106,9	119,3

Sanoat korxonalarida o‘rtacha oylik ish haqinig o‘zgarish dinamikasi ijobiy tomonga o‘zgargan bo‘lib, 2021-yili viloyat sanoat korxonalarida o‘rtacha oylik ish haqi ko‘rsatkichi o‘tgan-yilga nisbatan 108,1 foizni, 2015-yili esa 114,7 foizni, 2011-yili 132,5 foizni tashkil etgan. To‘qimachilik sanoati korxonalarida o‘rtacha oylik ish haqini o‘zgarish dinamikasi sanoat korxonalarga nisbatan past bo‘lgan. Ya’ni 2021-yili o‘tgan-yilga nisbatan 117,5 foizni, 2015-yili 108,1 foizni, 2011-yili 125,0 foizni tashkil etgan. Bundan ko‘rinib turibdiki to‘qimachilik sanoat korxonalarida o‘rtacha oylik ish haqi ko‘rsatkichi nisbatan past bo‘lgan. Bu

¹¹⁰ Andijon viloyati statistika boshqarmasi, «Skorton tekstil» MCHJ, «Saxovat Teks» MCHJ va Xo‘jaobod turon tekstil» MCHJ ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

bevosita mehnat samaradorligiga va umumiy iqtisodiy samaradorlikka o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan «Skorton tekstil» MCHJ, «Saxovat Teks» MCHJ va «Xo'jaobod turon tekstil» MChJlarda oxirgi yillarda o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichi ortgan. Tahlil ma'lumotlariga asoslanib korxonadagi o'rtacha oylik ish haqi va sanoat tarmog'idagi o'rtacha oylik ish haqi o'rtasidagi nisbat aniqlangan (2.3.3-jadvalga qarang).

2.3.3-jadval

Andijon viloyatidagi ayrim to'qimachilik sanoati korxonalarini o'rtacha oylik ish haqlari to'qimachilik sanoati tarmog'i ko'rsatkichlariga nisbatan o'zgarish koeffitsiyentni¹¹¹.

Yillar	«Skorton tekstil» MCHJ	«Saxovat Teks» MCHJ	«Xo'jaobod turon tekstil» MCHJ
2011-y.	1,0	1,3	0,89
2012-y.	0,9	1,0	0,96
2013-y.	1,1	0,9	0,99
2014-y.	1,0	1,0	1,01
2015-y.	1,1	1,2	0,97
2016-y.	1,3	0,9	1,23
2017-y.	1,0	1,0	0,87
2018-y.	0,7	0,8	0,86
2019-y.	1,0	1,1	1,01
2020-y.	0,9	1,2	0,98
2021-y.	1,2	1,0	1,14

«Skorton tekstil» MChJda o'rtacha oylik ish haqi to'qimachilik sanoati tarmog'idagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbati 2018-yili 0,7 koeffitsiyent eng past ko'rsatkichni, eng yuqori ko'rsatkich 2016-yili 1,3 koeffitsiyentga teng bo'lgan. «Saxovat Teks» MChJda to'qimachilik sanoati tarmog'idagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbati eng past ko'rsatkich 2018-yilda 0,8 koeffitsiyentga, eng yuqori ko'rsatkich 2011-yili 1,3 koeffitsiyent bo'lgan. Yuqoridagi ko'rsatkichlar asosida «Xo'jaobod turon tekstil» MChJda eng past ko'rsatkich 2018-yilda 0,86 koeffitsiyentga, eng yuqori ko'rsatkich 2016-yili 1,23 koeffitsiyentni tashkil etgan.

¹¹¹ Andijon viloyati statistika boshqarmasi, «Skorton tekstil» MCHJ, «Saxovat Teks» MCHJ va Xo'jaobod turon tekstil» MCHJ ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Bu korxonalarda o‘rtacha oylik ish haqi ko‘rsatkichi-yildan-yilga ortib borgan. Lekin tarmoqqa nisbatan solishtirilganda farq yuqoriligini ko‘rishimiz mumkin. Ishlab chiqarish samaradorligini ta‘minlovchi asosiy omil mehnat salohiyati ekan, ulardan foydalanishni yaxshilashda bu koeffitsiyentni 1 ga yaqinlashtirilishi zarur hisoblanadi.

Skorton tekstil» MCHJ, «Saxovat Teks» MCHJ va «Xo‘jaobod turon tekstil» MChJlarda ham mehnat unumdorligi va o‘rtacha oylik ish haqlari ko‘rsatkichi bir-biriga o‘zaro bog‘liq holda o‘zgargan. (2.3.4-jadval)

2.3.4-jadval

Andijon viloyatidagi to‘qimachilik sanoat korxonalarining o‘rtacha ish haqi va mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlari bog‘liqligi koeffitsiyenti¹¹².

Yillar	«Skorton tekstil» MCHJ	«Saxovat Teks» MCHJ	«Xo‘jaobod turon tekstil» MCHJ
2011-y.	1,18	1,26	0,95
2012-y.	0,67	0,69	1,08
2013-y.	1,13	0,87	0,81
2014-y.	1,38	0,70	1,11
2015-y.	0,87	1,30	1,09
2016-y.	1,37	0,63	1,24
2017-y.	1,06	0,82	0,74
2018-y.	0,91	0,61	1,13
2019-y.	2,3	0,83	1,12
2020-y.	1,11	1,04	0,75
2021-y.	0,72	1,08	1,09

To‘qimachilik korxonalarida o‘rta ish haqining o‘zgarishi darajasi mehnat natijalariga ta‘siri yuqori emas, ya‘ni «Skorton tekstil» MChJda 2014-2016-yillarda o‘rtacha ish haqini o‘shish sur‘atlari mehnat unumdorligining o‘shish sur‘atlaridan nisbatan ortib ketgan, «Saxovat Teks va «Xo‘jaobod turon tekstil» MChJlarda esa 2011-2015-yillarda mehnat unumdorligining o‘shish sur‘atlari ish haqini o‘shish sur‘atlaridan yuqori bo‘lgan. Korxonalarda mehnat unumdorligi ko‘rsatkichining o‘shish sur‘ati ish haqining o‘shish sur‘atiga nisbatan past

¹¹² «Skorton tekstil» MCHJ, «Saxovat Teks» MCHJ va «Xo‘jaobod turon tekstil» MCHJ ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi

bo‘lganligiga mavjud ishlab chiqarish vositalarining holati va mahsulotlar realizatsiyasi nisbatan past bo‘lganligi o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan.

Yuqoridagilar bilan birga mehnat natijalari xodimning ish vaqtidan samarali foydalanishga hamda kasbiy malakasiga bog‘liqdir. Belgilangan vazifalar korxonada maqsadi bilan uyg‘unlashib, mehnat natijalari va rag‘batlantirish muvozanatini ta‘minlash zarur

2.3.5-jadval

Andijon viloyatidagi ayrim to‘qimachilik sanoati korxonalarida mehnat samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar (foiz)¹¹³.


Yillar	«Skorton tekstil» MCHJ		«Saxovat Teks» MCHJ		«Xo‘jaobod turon tekstil» MCHJ	
	Mahsulot tannarxida mehnat xarajatlarining tutgan salmog‘i	Mehnat xarajatlari rentabelligi darajasi	Mahsulot tannarxida mehnat xarajatlarining tutgan salmog‘i	Mehnat xarajatlari rentabelligi darajasi	Mahsulot tannarxida mehnat xarajatlarining tutgan salmog‘i	Mehnat xarajatlari rentabelligi darajasi
2011-y.	4,3	7,0	6,2	48,7	23,3	9,3
2012-y.	3,8	18	6,5	12,3	24,7	10,3
2013-y.	4,1	19,2	7,0	15,2	20,4	14,4
2014-y.	6,2	10,8	4,4	20,3	22,0	9,0
2015-y.	10,4	2,2	7,0	19,0	23,8	7,8
2016-y.	9,4	2,2	4,0	37,0	29,3	11,3
2017-y.	7,8	3,7	5,0	43,0	21,8	14,6
2018-y.	4,9	0,4	9,0	28,0	25,3	15,1
2019-y.	11,9	3,9	5,9	44,0	27,5	17,1
2020-y.	13,2	3,3	8,6	19,0	21,5	30,0
2021-y.	12,5	16,7	4,0	35,0	19,1	28,8

To‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxida mehnat xarajatlarining tutgan salmog‘i «Skorton tekstil» MChJda 2011-yilda 4,3 foizni 2021-yilda esa 12,5 foizga yetgan. Shuningdek, ushbu korxonada mehnat xarajatlari rentabelligi darajasi ko‘rsatkichi 2011-yilda 7,0 foiz, 2013-yilda 19,2 foizga, 2018-yilda 0,4

¹¹³ «Skorton tekstil» MCHJ, «Saxovat Teks» MCHJ va «Xo‘jaobod turon tekstil» MCHJ ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi

foizga hamda 2021-yilda 6,7 foizligi aniqlangan. Qolgan to‘qimachilik korxonalarida esa «Saxovat Teks» MChJda va «Xo‘jaobod turon tekstil» MChJlarda ham sezilarli darajada yuqoridagi ko‘rsatkichlar o‘zgargan. Jumladan, mahsulot tannarxida mehnat xarajatlarining tutgan salmog‘i va mehnat xarajatlari rentabelligi darajasi ko‘rsatkichlari 2011-yilda yuqori bo‘lgan. Demak, to‘qimachilik korxonalarida sanoat ishlab chiqarish xodimlari tarkibida asosiy ishchilarning ulushi 86-88 foizli maqbul darajada saqlash orqali yirik va klaster shaklidagi korxonalarda mahsulot tannarxida mehnat xarajatlarini salmog‘i 4-6 foiz oralig‘ida saqlash ijobiyligini ko‘rishimiz mumkin.

Sanoat korxonalarini faoliyatida mehnat natijalari bilan birga mavjud ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish darajasi va ularning holati iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlovchi asosiy mezon hisoblanadi. Andijon viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan ayrim to‘qimachilik korxonalarini asosiy fondlardan foydalanish darajasi quyidagicha bo‘lgan. Korxonalarda asosiy fondlarning faol qismi ortib borgan. Ishlab chiqarish uskunalari boshqa asosiy fondlarga nisbatan tez ishdan chiqishi ularni yangilashni talab etgan. Natijada to‘qimachilik korxonalarida asosiy vositalar tarkibida faol ishlab chiqarish fondlarini ko‘paytirish zarurati yuzaga kelgan (2.3.2-rasmga qarang).



2.3.2-rasm. Andijon viloyatidagi ayrim to‘qimachilik sanoat korxonalarining asosiy fondlar tarkibida aktiv qismining ulushi (foiz)¹¹⁴.

¹¹⁴ «Skorton tekstil» MCHJ, «Saxovat Teks» MCHJ va «Xo‘jaobod turon tekstil» MCHJ ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Andijon viloyatidagi ayrim to‘qimachilik sanoat korxonalarining asosiy fondlar tarkibida aktiv qismi «Skorton tekstil» MCHJ 34 foizni tashkil etgan, lekin oxirgi 2021-yilda bu ko‘rsatkich 30,4 foizga tushib ketgan, «Saxovat Teks» MChJda eng past ko‘rsatkich 2017-yilga to‘g‘ri kelgan va 24,9 foizga teng bo‘lgan.

Asosiy fondlar tarkibida aktiv fondlarni ulushi kamayishiga sabab korxonalar klster shakliga (2018-yil) o‘tgan va boshqa sub’ektlari asosiy fondlari birlashuvida bu holat yuzaga kelgan. 2021-yili bu ko‘rsatkich 33,9 foizni tashkil etgan. «Xo‘jaobod turon tekstil» MChJda esa 2021-yili aktiv asosiy fondlar ulushi pastlagan.

Korxonalarda asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini 2-ilova ma’lumotlari asosida tahlil qilganimizda korxonalarda texnologik samaradorlik o‘zgarishiga bevosita mavjud ishlab chiqarish vositalarining holati va yangilanish darajasi o‘z ta’sirini ko‘rsatgan (2.3.6-jadvalga qarang).

2.3.6-jadval

Andijon viloyatida ayrim to‘qimachilik sanoat korxonalarida texnologik samaradorligi holati (koeffitsiyent)¹¹⁵

Yillar	«Skorton tekstil» MCHJ	«Saxovat Teks» MCHJ	«Xo‘jaobod turon tekstil» MCHJ
2011-yil	0,37	0,31	0,44
2015-yil	0,39	0,32	0,46
2020-yil	0,33	0,41	0,39
2021-yil	0,42	0,36	0,42


«Saxovat Teks» MCHJning texnologik samaradorligi ko‘rsatkichi 2021-yili 0,36 koeffitsiyentga teng bo‘lgan, bu ko‘rsatkich 2011-yili 0,31 koeffitsiyentni, 2015-yili 0,32 koeffitsiyentni va 2020-yili 0,41 koeffitsiyentni tashkil etgan.

¹¹⁵ «Skorton tekstil» MCHJ, «Saxovat Teks» MCHJ va «Xo‘jaobod turon tekstil» MCHJ ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

$$Ts = \frac{Kyar+Kes+Kyan}{3} = Ts = \frac{0,83+0,16+0,26}{3} = 0,42$$

Bu o'zgarishga sabab 2020-yili jihozlarning yangilanish koeffitsiyenti yaxshilangan. «Skorton tekstil» MCHJda esa texnologik samaradorlik ko'rsatkichi 2021-yili 0,42 koeffitsiyentni 2020-yili 0,33 koeffitsiyentni tashkil etgan. Bu o'zgarishlar bevosita joriy aktivlardan foydalanish natijalariga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Korxonalar iqtisodiy natijalari mehnat resurslar va ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish holati bilan birga moddiy resurslarning mahsulot birligi uchun sarfi va mablag'larning aylanish davriga ham bog'liq. Korxonalarda aylanma mablag'larni aylanish davriga mahsulot tannarxida moddiy resurslar salmog'ining yuqoriligi o'z ta'sirini ko'rsatmoqda (2.3.3-rasmga qarang).



2.3.3-rasm. Andijon viloyatidagi ayrim to'qimachilik sanoat korxonalarining aylanma mablag'larning aylanish davri (kun)¹¹⁶.

Xususan, «Saxovat Teks» MCHJning mablag'larining bir aylanish davri 2021-yili 55,3 kunni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2015-yili 41 kunni va 2011-yili 86,9 kunni tashkil etgan bo'lsa, «Skorton tekstil» MCHJda aylanma mablag'larning aylanish davri 2021-yili 46,2 kunni, 2015-yili 51,4 kunni va 2011-

¹¹⁶ «Skorton tekstil» MCHJ, «Saxovat Teks» MCHJ va «Xo'jaobod turon tekstil» MCHJ ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

yili 98,6 kunning tashkil etgan. Demak korxonalarda mablag‘larni aylanish davri oxirgi yillarda ijobiy tomonga o‘zgargan.

Tadqiqot ishida Andijon viloyatidagi to‘qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligiga ta’sir qiluvchi xodimlar soni, asosiy vositalarni qiymati va moddiy resurslar sarfi ko‘rsatkichlaridan foydalangan holda omillar ta’siri baholandi. Korxonalarda ishlab chiqarish hajmini me’yorlashtirish asosida to‘qimachilik korxonalarida zamonaviy usullardan maqsadli foydalanish orqali uning ko‘p omilli additiv modeldan foydalanilgan¹¹⁷:

$$\ln Q = \beta_0 + \beta_1 \ln(X_s) + \beta_2 \ln(AVQ) + \beta_4 \ln(MRS) \quad (2.1)$$

bunda: $\ln Q$ - ishlab chiqarish hajmi;

X_s – xodimlar soni,

AVQ – asosiy vositalarni qiymati,

MRS - moddiy resurslar sarfi

«Saxovat teks» MCHJ faoliyati asosida ishlab chiqarish hajmini me’yorlashtirishda ishlab chiqarish hajmiga ta’sir etuvchi omillarni korrelyasion bog‘lanishi tekshirildi (2.3.7-jadvalga qarang).

2.3.7-jadval

«Saxovat teks» MChJda ishlab chiqarish hajmiga ta’sir etuvchi omillarning korrelyasion bog‘liqlik darajasi

	LN_Q	LN_XS	LN_AVQ	LN_MRS
LN_Q	1			
LN_XS	0.9203	1		
LN_AVQ	0.9914	0.9039	1	
LN_MRS	0.9988	0.9134	0.9883	1

Bu bog‘lanish natijalarini bir-biri bilan solishtirib chiqilganda ishlab chiqarish hajmiga asosiy vositalar (0.9914), moddiy resurslar sarfi (0.9988) va xodimlar soni (0.9203) yuqori zich bog‘liqlikka ega ekanligi aniqlangan. Bundan ko‘rinib turibdiki,

¹¹⁷ Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi.

tanlab olingan omillar ishlab chiqarish hajmiga yuqori zich darajada ta'sir ko'rsatishi belgilangan. Barcha omillarning korrelyasion bog'liqligi tekshirilgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, to'qimachilik sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajmini 2.3.8-jadval ma'lumoti orqali uchta omilli regression modelni ta'sirchanlik koeffitsiyentlari aniqlangan.

2.3.8-jadval.

«Saxovat teks» MChJni 2011-2021-yillar bo'yicha ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi omillarni natural logarifmdagi qiymati¹¹⁸

Year	LN(Q)	LN(Xs)	LN(AVQ)	LN(MRS)
2011	4,901	2,89	6,23	3,475
2012	6,074	2,944	7,104	4,604
2013	6,26	2,944	7,41	5,056
2014	6,774	3,045	8,158	5,388
2015	6,881	3,178	7,642	5,773
2016	9,281	3,219	9,959	8,259
2017	9,608	5,521	10,454	8,469
2018	10,367	5,743	10,228	9,259
2019	11,543	5,858	11,982	10,339
2020	12,007	5,927	12,715	10,734
2021	12,066	5,994	12,718	11,098

Ushbu jadval ma'lumotlaridan foydalangan holda ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi omillarning uchta omilli regression modelidan foydalanib ta'sirchanlik koeffitsiyentlari aniqlangan (2-ilova).

Korxonadagi ko'rsatkichlarini aniqlashtirib olish uchun uchta omilli regression modelga qo'yamiz:

$$\text{LnQ}=0,8155+0,084*\text{Ln(Xs)}+0,2006*\text{Ln(AVQ)}+0,7499*\text{Ln(MRS)}$$

«Saxovat teks» MChJda ishlab chiqarish hajmi additiv funksiya sifatida olingan uch omilli model natijalari yuqorida baholangan. Shu sababli, korxonada determinatsiya koeffitsiyenti (R^2) 0,998 qiymatiga, Fisher mezonni $F\text{-statistika}=3,61$ ga tengligi aniqlandi va jadval qiymatidan kattaligi aniqlangan. Ammo, erkin darajalar alfa=0,05 qiymat, t-student mezonining jadval bo'yicha

¹¹⁸ Muallif hisob kitoblari asosida LN(x) natijalari amalga oshirilgan.

$t=2,201$ qiymatiga tengligi aniqlangan. Jumladan, uchta ta'sir etuvchi omillarni t-student mezoni qiymati aniqlangan.

$$x_{jad}=2,201 > t_{LN(AVQ)}= 2.115 > t_{LN(MRS)}= 1.771 > t_{LN(Xs)}= 1.472$$

To'qimachilik korxonalarida prob>t yordamida quyidagi natijalar olingan, ya'ni Xs (xodimlar soni) 1 foizga oshganda ishlab chiqarish hajmi 0,0184 foizga ortadi, AVQ (asosiy vositalarni qiymati) 1 foizga oshsa, ishlab chiqarish hajmi 0,0722 foizga oshadi, MRS (moddiy resurslarni sarfi)ni 1 foizga oshishi ishlab chiqarish hajmini 0,0001foizga ortishi aniqlangan.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish hajmini uch omilli regression model orqali tahlil qilishda omillarning ahamiyatlilik darajasi $\alpha=0,05$ bo'yicha qiyosiy taqqoslandi va Darbin-Uotson mezoni $d_{wl}=0,56 < \mathbf{d_w=2.4} > d_{wu}=2,21$ munosabat o'rinli ekanligi aniqlandi.

To'qimachilik sanoati korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirishga bir qator ichki va tashqi omillar jumladan, bir ishchi-xodimga hisoblangan o'rtacha ish haqi; xodimlarning o'rtacha soni; amortizatsiya xarajatlarini mahsulot tannarxidagi salmog'i; moddiy resurslar sarfini mahsulot tannarxidagi salmog'i; mahsulotlarni sotish rentabellik darajasi; mehnat unumdorligi; mablag'larni aylanish koeffitsiyenti ta'sir ko'rsatadi.

To'qimachilik sanoati korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni ahamiyatliligi bo'yicha quyidagi model ishlab chiqilgan.

$$Ish_s = f(Ish_x, x_s, MTA_s, MTMR_s, SM_R, MU_K, AK) \quad (3.7)$$

Bunda:

Ish_s –ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichi (mahsulot hajmiga nisbatan);

Ish_x – bitta xodimga hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi o'sish sur'ati;

x_s – xodimlarning o'rtacha-yillik soni o'zgarishi darajasi;

MTA_s – mahsulot tannarxida amortizatsiya salmog'i;

$MTMR_s$ – mahsulot tannarxida moddiy resurslar sarfi salmog'i;

SM_R – sotilgan mahsulot rentabellik darajasi;

MU_K – mehnat unumdorligi ko‘rsatkichi o‘zgarishi darajasi;

AK – aylanma mablag‘larning aylanuvchanlik koeffitsiyenti.

«Skorton tekstil» MChJda 2011-2021-yilgacha iqtisodiy ko‘rsatkichlarni 3.7 model asosida 2.3.9-jadval orqali shakllantirilgan.

2.3.9-Jadval.

«Skorton tekstil» MChJda 2011-2021-yillardagi ishlab chiqarish samaradorligiga ta’sir etuvchi omillari

Yillar	Ish _s	Ish _x	X _s	MTA _s	MTMR _s	SM _R	MU _K	AK
2011-y.	28194	125,5	112,1	5,6	28	12,7	106,3	3,7
2012-y.	46623	103,9	106,5	5,9	36	10,2	155,3	4,1
2013-y.	51559	123,9	101	6,4	38	9	109,5	4,3
2014-y.	41033	110,7	99	7,2	38	10,5	80,4	6,2
2015-y.	57609	123,8	98,5	8,8	37	17,1	142,6	7,1
2016-y.	61068	144,4	100,5	8,4	38	15,6	105,5	6
2017-y.	68468	116,3	102,1	9,6	39	11,6	109,9	8,8
2018-y.	65675	87,3	99,5	11,2	38	2,8	96,4	8,2
2019-y.	312271	116,9	95,1	12,2	42	1,8	80,8	3,1
2020-y.	496100	110,4	142,6	9,9	41	4,9	99,8	6,6
2021-y.	999520	124,7	128,5	9,6	46	5,4	172,3	7,9

«Skorton tekstil» MChJda 2011-2021-yillardagi ko‘rsatkichlarni korrelyasion koeffitsiyentlarini o‘zaro bog‘liqligini tekshirish uchun Eviews-9 dasturiy mahsulot yordamida aniqladik (2.3.10-jadval).

2.3.10-Jadval.

«Skorton tekstil» MChJda ishlab chiqarish samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarining korrelyasion koeffitsiyentlarining bog‘liqligi

	LN_ISHS	LN_ISHX	LN_XS	LN_AMART	LN_MTMR	LN_SM	LN_MEX	LN_AK
LN_ISHS	1							
LN_ISHX	0.039	1						
LN_XS	0.62	0.018	1					
LN_AMART	0.63	-0.23	0.0075	1				
LN_MTMR	0.78	-0.046	0.19	0.69	1			
LN_SM	-0.59	0.52	-0.087	-0.67	-0.48	1		
LN_MEX	0.18	0.17	0.33	-0.25	0.093	0.36	1	
LN_AK	0.18	-0.17	0.23	0.40	0.38	0.16	0.23	1

Ushbu omillarning korrelyasion bog‘liqlik koeffitsiyentlari baholanganda MTMR - mahsulot tannarxida moddiy resurslar sarfining ulushi 0,78 koeffitsiyent

oʻrtachadan zichroq bogʻlanish, AMART- mahsulot tannarxida amortizatsiya xarajatlarning ulushi 0,63 koeffitsiyent oʻrtachadan zichroq bogʻlanish, XS - xodimlar soni 0,62 koeffitsiyent oʻrtachadan zichroq bogʻlanish, SM - sotilgan mahsulot rentabelligi (-0,59) koeffitsiyent oʻrtacha zichlikdan kuchsizroq teskari bogʻlanish, Ak - aylanma mablagʻlarning aylanish darajasi 0,18 koeffitsiyent eng past kuchsiz bogʻlanish, MEX - Mehnat unumdorligi 0,18 koeffitsiyent eng past kuchsiz bogʻlanishga va ISHX- bitta xodimga toʻgʻri keluvchi oʻrtacha oylik ish haqi 0,039 koeffitsiyent eng past kuchsiz bogʻlanishga tengligi aniqlangan.

«Skorton tekstil» MChJda ishlab chiqarish samaradorligiga taʼsir etuvchi omillarining regression koeffitsiyentlarini topamiz (3-ilovaga qarang).

«Skorton tekstil» MChJda ishlab chiqarish samaradorligini ishlab chiqarish hajmiga nisbatan koʻp omilli regression modeliga omillarning taʼsirchanlik koeffitsiyentlarini qoʻyamiz.

$$\begin{aligned} \ln(Ishc) = & -36,7 + 2,19 * \ln(Ishx) + 4,5 * \ln(Xs) + 1,32 * \ln(AMART) \\ & + 3,3 * \ln(MTMR) - 0,55 * \ln(SM) + 0,78 * \ln(MEX) + 0,41 * \ln(Ak) \end{aligned}$$

Shu sababli, «Skorton tekstil» MChJda determinatsiya koeffitsiyenti $R^2=0.98$ ga, F-statistika=28,77ga tengligi aniqlangan.

Lekin aniqlangan koʻrsatkichlarni, $\alpha=0,05$ erkin darajalar qiymat, yaʼni 5 foizli xato hisobiga t-statistik (styudent) mezon koʻrsatkichi ishlab chiqilgan jadval qiymati $t=2,201$ ekanligi koʻrsatilgan. Shuningdek, taʼsir etuvchi omillarni qiymati quyidagicha kattalikda keltirilgan:

$$t_{xs}=5,39 > t_{xs}=t_{LN(MTMR)}=2,94 > t=2,201 > t_{LN(MEX)}=1,91 > t_{LN(ISHX)}=1,81 > t_{LN(AMART)}=1,53 > t_{LN(MTMR)}=t_{LN(SM)}|-1,42| > t_{LN(AK)}=|-0,75| \text{ aniqlangan.}$$

Xulosa oʻtkazilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, «Skorton tekstil» MChJda iqtisodiy samaradorlik koʻrsatkichlariga taʼsir etuvchi omillar taʼsirchanlik koeffitsiyentlari asosida oʻrganilgan. Shuningdek korxonada iqtisodiy samaradorlik darajasi boshqa korxonalarga nisbatan ijobiy natijadaliigi belgilangan.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

Sanoat tarmog'ini milliy iqtisodiyotda yetakchi tarmoqlardan biri hisoblansada, Andijon viloyatidagi sanoat korxonalarining iqtisodiy imkoniyatlari yetarli emas, chunki xomashyo resurslar holati, ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasi va mahsulotlarga bo'lgan talabni to'liq qondirilmasligi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi va qurish korxonalarini rivojlantirishni zarurligini ifodalaydi.

Sanoat korxonalarini joylashtirishda mavjud resurslar holati, aholi joylashuvi, infrastruktura, mintaqaviy xususiyatlari va ixtisoslashganlik darajasini hisobga olish asosida ekologiyaga salbiy ta'sir etuvchi korxonalarni aholi zich bo'lmagan (Ulug'nor, Bo'ston) hududlariga joylashtirish va sanoatni bugungi kundagi holatidan kelib chiqqan holda Xo'jaobod tumanini trikotaj va tayyor kiyim mahsulotlarini ishlab chiqarishni, Asaka tumanini mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqarishni joylashtirish zarur.

To'qimachilik sanoati korxonalarini milliy iqtisodiyotimizda ahamiyati yuqori bo'lib, aholi bandligini ta'minlashda va mahsulotlar eksportini oshirishda alohida o'rin tutadi. Mamlakatimizda bu sohadagi iqtisodiy islohotlar natijasida sohani rivojlantirish va mahsulotlar eksportini oshirish uchun mahsulotlarni diversifikatsiyalash asosida keyingi-yillarda iqtisodiy samaradorligi ortishi kutilmoqda.

To'qimachilik sanoati korxonalarida samaradorligiga o'rtacha oylik ish haqi o'sish sur'ati, xodimlarning o'rtacha soni o'zgarishi, mahsulot tannarxida amortizatsiya xarajatlari salmog'ini, mahsulot tannarxida moddiy resurslar sarfi salmog'ini, sotilgan mahsulot rentabellik darajasi, mehnat unumdorligi ko'rsatkichi o'zgarishi va aylanma mablag'larning aylanuvchanlik koeffitsiyenti ta'siri o'rganilganda, natijaga amortizatsiya xarajatlari va moddiy resurslar sarfi ta'siri yuqoriligi ko'rib o'tildi.

III BOB. ANDIJON VILOYATI SANOAT KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI.

3.1. Andijon viloyati to‘qimachilik sanoati korxonalarini klasterli yondashuv asosida samaradorligini oshirish yo‘llari

To‘qimachilik sanoati korxonalarini faoliyatini samaradorligini ta‘minlashda jahon amaliyotida ro‘y berayotgan yangiliklarni amaliyotga joriy etish talab etiladi. Bunda biri nchi navbatda innovatsiyalarni joriy etilishi samaradorlikka ijobiy ta‘sir ko‘rsatib, ishlab chiqarish vositalari, boshqaruv usullari va ishlab chiqarishni tashkil etishni zamonaviy shakllarini qo‘llashga asoslanadi. Buning natijasida Andijon viloyatidagi mavjud to‘qimachilik korxonalarini rivojlantirishni ustuvor yo‘nalishlarini ilmiy va amaliy jihatlarini keltirishimiz mumkin.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarda ham klasterlar faoliyatini ahamiyati yuqori bo‘lib, ularni faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish asosida rivojlanishini ta‘minlash zarur vazifalardan bo‘lib, «...bugungi kunda mamlakatimizda mahsulotni yetishtirish jarayonidan tortib, uni sotishgacha bo‘lgan yaxlit texnologik zanjirini o‘z ichiga qamrab olgan klaster modeli tizimini joriy qilish lozimligini, xususan, paxtachilik, g‘allachilik, mevasabzavotchilik, parrandachilik, chorvachilik, baliqchilik, pillachilik klasterlarini tashkil qilish ishlarini izchil davom ettirish lozim»¹¹⁹ deb ta‘kidlagan.

Mamlakatda sanoat korxonlari faoliyatini rivojlantirish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-noyabrdagi «Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi [PF-14](#)-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-dekabrda «Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida» [733](#)-sonli hamda 2021-yil 10-dekabrda «Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari


¹¹⁹O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi xodimlariga qilgan ma‘ruzalari. Toshkent 2019-yil 7-dekabr. <http://xs.uz>.

to'g'risida» 747-sonli Qarorlariga asosan qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini tashkil etishning klaster usuliga alohida e'tibor berilmoqda.

Klaster faoliyatini rivojlantirish geografik jihatdan qulay joylashuv asosida, bir-biriga bog'liq iqtisodiy sub'ektlarni o'zaro iqtisodiy munosabatlari natijasida nou-xau, ixtisoslashuv mahsulotlar va kadrlar malakasiga bo'lgan talabni oshirish bilan birga raqobatbardoshlikni ta'minlaydi. Klaster iqtisodiy sub'ektlar o'rtasida barqaror hamkorlik aloqalarini shakllantirish va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga imkon beradi. Shu sababli fan, ta'lim va tadbirkorlik hamkorligiga asoslanib, ilmiy tadqiqot ishlarini moslashuvchan zanjiridan biri klaster hisoblanadi. Klaster faoliyatini tartibga solishda davlatning ahamiyati yuqori bo'lib, klasterlashtirishda muayyan yo'nalishlarni belgilash orqali biror bir sohaga ixtisoslashgan bo'ladi.

Bugungi kunda sanoat korxonalarini xo'jalik faoliyati yuritishning klaster usulida asosiy e'tibor ilm-fanga bog'liqligini ta'minlashga qaratilishi kerak. Sanoat tarmog'idagi to'qimachilik sanoati korxonalarida ham klasterlarni ahamiyati yuqori bo'lib, ular faoliyatini tizimli tashkil etishda ilmiy-tadqiqot ishlaridan foydalanish, ularni joylashuviga e'tibor qaratish kerak. Buning asosida ishlab chiqarish texnologiyalari modernizatsiyasi amalga oshirilib, mahsulotlar bozorini kengaytirish imkoniyati yuzaga keladi. Bundan kelib chiqqan holda klasterlar tarkibida moddiy-resurslar yetkazib beruvchilar, ishlab chiqarish korxonalarini, xizmat ko'rsatish tashkilotlari bilan birga ilmiy tadqiqot institutlarini tashkil etish zarur hisoblanadi. To'qimachilik sanoati korxonalarida klasterlar faoliyatini tashkil etishni tarkibiy tuzilishini quyidagi 3.1.1-rasm asosida keltirishimiz mumkin.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasida ham to'qimachilik sanoati korxonalarida ham ilmiy-tadqiqot ishlaridan foydalanishni yaxshilash, raqobatbardoshlikni ta'minlash va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashda klasterlarni o'rni va ahamiyati yuqoriligi ko'rsatilgan. Ayniqsa Shimoliy Amerika, Yevropa ittifoqi davlatlari, Xindiston, Xitoy va Yaponiya davlatlarida klasterlar faoliyati alohida o'rin tutadi.



3.1.1-rasm. Klaster tarkibiy tuzilmasi¹²⁰.

Rivojlangan davlatlarda klasterlar faoliyati alohida xususiyatlarga bog'liq bo'lib, AQShda ushbu faoliyat turi aniq raqobat asosida shakllantirilgan. Bundan asosiy maqsad shuki, tovarlar narxini arzonlashuvi hamda ishlab chiqarish hajmini oshirishga erishish ko'zda tutilgan¹²¹. Jumladan, AQShda 50 foizi korxonalar klasterlar faoliyati bo'yicha faoliyat ko'rsatib, qariyb YaIMni 60 foizi ularning hissasiga to'g'ri keladi.

¹²⁰Tadqiqotlar nitijasida muallif ishlanmasi

¹²¹Н.О.Несмачных «Кластерная политика в стратегии инновационного развития России и зарубежных стран». // Экономические науки. – 2014 г. – № 9. Ст. 162–165.

Yaponiyada yetakchi korxonalar tarkibida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasida klasterlar faoliyati shakllantirilganligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, Yaponiyada yirik korxonalar negizida mikrosxemalar, robototexnikalar, nanotexnologiyalar asosida ishlab chiqaruvchi klasterlar tizimi tashkil etilgan¹²².

Xitoyda klasterlashtirish tizimi yirik korxonalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar asosida rivojlantirib, qulay investitsiya imkoniyati hamda yangi texnologiyalarni joriy etish va raqobatbardoshlikni ta‘minlamoqda¹²³.

Yevropa Ittifoqida esa 2 mingdan ortiq klasterlar mavjud bo‘lib, ularda band bo‘lganlar salmog‘i 39 foizini tashkil etgan. Jumladan, Germaniyada ishlab chiqarish faoliyati ta‘lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlari faoliyati bilan bog‘liqdir. Shuningdek, tarmoq klasterlari faoliyatida yangi texnologiyalarni yaratish hamda ularni amaliyotga qo‘llashga alohida e‘tibor qaratiladi¹²⁴.

Italiyada esa klasterlar faoliyati rivojlanishi ko‘p jihatdan sanoat hududlarini rivojlanish darajasiga bog‘liq hisoblanadi. Ularni rivojlantirishda davlat tayyor mahsulotlar eksportini, investitsiya jalb etishni qo‘llab-quvvatlashga hamda konsalting markazlari faoliyatini yanada rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratadi.

Portugaliya davlatida klasterlar faoliyatini rivojlantirish asosan dasturiy ta‘minot, ilmiy tadqiqot va ishlanmalarini o‘zaro mutanosibligiga asoslanib, klasterlar muayyan sanoat korxonasi tarkibida ishlab chiqarish tuzilmalarini joylashuviga qaratilgan hisoblanadi¹²⁵.

Yuqoridagi davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda mamlakatimizda to‘qimachilik klasterlarini tashkil etish asosida iqtisodiyotdagi barcha tarmoq korxonalari faoliyatini o‘zaro bir-biriga mutanosib birlashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish, mahsulotlar sifatini yaxshilash va yangi bozorlarni kashf etish imkoniyati yaratiladi. Klasterlar bevosita innovatsion


¹²²У.Махкамов «Кластерная политика: зарубежный опыт кластеризации экономики и перспективы» Узбекистана. Экономика И Образование. 2020 г. №1(6). Ст 60–64.

¹²³Н.Н.Кучин, Н.В.Калеев. «Кластерные технологии как инструмент совершенствования работы молочно-продуктового подкомплекса региона» Вестник НГИЭИ. 2020 г. № 6. Ст 65-72.

¹²⁴И.Мешков «Основные черты кластерной политики» ЕС Журнал. Современная Европа, 2020 г. №1, Ст.182–190. www.sov-europe.ru <http://www.sov-europe.ru>

¹²⁵С.М.Смирнова «Инновационно -технологические кластеры стран – членов» МЦНТИ: информационно-аналитические материалы. // Экономика и социум. –М 2014 г. –№ 1. Ст 12–23.

faoliyat rivojlanish darajasiga bog‘liq bo‘lib, ularni mutanosib rivojlanishini ta‘minlash uchun (3.1.2-rasmga qarang) asosida bog‘lanishni ko‘rib o‘tamiz.



3.1.2-rasm. Klasterlar va innovatsion tuzilmalarining bog‘liqligi¹²⁶


Mamlakat hududiy tuzilishi va resurs imkoniyatlari to‘qimachilik klasterlarini rivojlantirishni talab etadi. To‘qimachilik sanoati klasteri mamlakatda mavjud qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash imkoniyati yuqoriligi, kimyo sanoati bilan o‘zaro hamkorlik asosida sun‘iy materiallar yaratish, maishiy texnikalar uchun zarur mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishga asoslanadi.

¹²⁶ Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi

Xususan, 2018-2021-yillar davomida Andijon viloyatida ham 13 ta yirik to‘qimachilik klasterlari tashkil etilgan bo‘lib, ular asosan paxta xomashyosini yetishtirish va qayta ishlash bilan shug‘ullanadi. Klasterlar tomonidan 2021-yilda 80 ming gektar ekin maydoni mavjud, ularni tarkibida 26 ta (11 ta paxta tozalash va 13 ta tolani qayta ishlash korxonasi) ishlab chiqarish korxonalarini faoliyat ko‘rsatgan. Ularni-yillik ishlab chiqarish quvvati 130 ming tonna paxta xomashyoni qayta ishlash imkoniyatiga ega hisoblanadi. Klasterlar tarkibidagi ishlab chiqarish korxonalarida 38 mingdan ortiq ishchi-xodim faoliyat ko‘rsatgan. Korxonalar tomonidan ip gazlama, trikotaj, tayyor mato va tayyor kiyimlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan¹²⁷.

Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan to‘qimachilik klasterlari faoliyatida oxirgi yillarda iqtisodiy natijalar o‘zgargan, «Saxovat Teks» MCHJ nomli klasterida umumiy sanoat ishlab chiqarish xodimlari tarkibida oliy ma‘lumotli xodimlar tarkibi 2021-yili 9,0 foizni tashkil etib, 2020-yilga nisbatan 96,7 foizni, 2015-yilga nisbatan esa 72 foizni tashkil etgan.

Bundan kelib chiqqan holda klasterlarda faoliyat yuritayotgan ishchi-xodimlarni mehnat salohiyatini yuqori emasligi ham samaradorlikka o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Korxonada 2018-yili klaster shaklida faoliyat yuritishi natijasida iqtisodiy natija rentabellik darajasi quyidagicha bo‘lgan. (3.1.3-rasmga qarang)



3.1.3-rasm. «Saxovat Teks» MCHJ nomli klasterda rentabellik darajasi.

Yuqoridagi ma‘lumotlaridan kelib chiqib, Andijon viloyatidagi to‘qimachilik klasterlarida iqtisodiy samaradorlikka erishilgan, lekin samaradorlikni ta‘minlash

¹²⁷ Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma‘lumotlari. Andstat.uz

uchun ichki zaxiralar va tizimdagi ba'zi korxonalarda ayrim muammolar mavjudligini ko'rishimiz mumkin:

-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tashkil etishda ilmiy tadqiqot ishlari va innovatsion faoliyat natijalari ishlab chiqarish bilan yetarli darajada bog'lanmaganligi, ular o'rtasida integratsiya darajasi pastligi, konstruktorlik ishlari, loyihalar va ilmiy ishlanmalarni joriy etish murakkabligi;

-klasterlar faoliyatida zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni tashkil etish va mahsulotlar diversifikatsiyasi yetarli darajada rivojlanmaganligi;

-klaster faoliyatida raqamli texnologiyalardan yetarli darajada foydalanilmayotganligi;

-to'qimachilik korxonalarini uchun tashkiliy-iqtisodiy tuzilmalarning holati va bozor muammaosi;

-klasterlar faoliyatida o'rta va uzoq muddatli strategik rivojlantirish dasturlari bo'yicha prognoz parametrlaridan yetarli darajada foydalanilmayotganligi;

-klasterlar doirasida iqtisodiy hamkorlikni yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda texnologiyalarni tijoratlashtirish tizimi ishlab chiqilmaganligi.

Yuqoridagi muammolardan kelib chiqib, klaster a'zolari iqtisodiy rivojlanish darajasi muvozanatini ta'minlash asosida ishlab chiqarish muhitini isloh qilish va mintaqada klasterlarning joylashuvida innovatsiya va ishlab chiqarish samaradorligi tendensiyasiga erishishga qaratilishi zarur. Bunda asosiy e'tibor bir-biriga bog'liq uchlik spiraldan foydalanish alohida ahamiyat kasb etib, davlat, fan va tadbirkorlikni qo'llash asosida amal qiladi.

Buning uchun Andijon viloyatida to'qimachilik klasterlari asosida tarmoqlararo rivojlanishni hamda raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun yuqori qiymatga ega innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish uchun chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur, bunda:

•klasterlar faoliyatida ilmiy tadqiqot, innovatsion faoliyat natijalari va ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etishni rag'batlantirish;

•klasterlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmini va eksportini oshirish;

- klasterlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotga bo‘lgan uzoq muddatli talab hajmini baholash;

- mahalliy ishlab chiqarish hamda jahon bozoridagi raqobatni kuchaytirish orqali ularni strategik rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash;

- klasterlar faoliyati bilan bog‘liq infrastruktura tizimidan samarali foydalanish, ularni mutanosib rivojlanishini ta‘minlash;

- yangi ish o‘rinlarini tashkil etish;

- klasterlar tarkibidagi sanoat korxonalarini yordamchi laboratoriya jihozlari bilan ta‘minlash.

Iqtisodiyotda to‘qimachilik klasterlari bo‘yicha bunday yondashuv tarmoq korxonalari mutanosib rivojlanishini ta‘minlaydi. Istiqbolda klasterlarni samarali faoliyati iqtisodiyotda bir qator afzalliklarga ega. Ya‘ni:

mahalliyashtirish darajasini oshirish - klasterlar joylashgan hudud geografik imkoniyatlari asosida tashkiliy tuzilmalarini rivojlantirish orqali iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlash;

raqobat va hamkorlik o‘rtasida moslashuvchan muvozanatni o‘rnatish - klaster a‘zolari o‘rtasida hamkorlik aloqalarini yaxshilanishi samarali ishlab chiqarish aloqalarini yo‘lga qo‘yadi. Har bir korxonani moliyaviy va ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishi natijasida samaradorlik darajasi ortadi. Atrof muhit, ishchi kuchi, kapital va bilimlar mutanosibligini ta‘minlash natijasida klaster a‘zolari o‘rtasida raqobatni yuzaga keltiradi;

vertikal va gorizantal aloqalar kombinatsiyasini yo‘lga qo‘yish - klaster ichida faoliyat ko‘rsatadigan korxonalar faoliyati o‘zaro bog‘liq bo‘lganligi uchun vertikal bo‘g‘inlar birlashadi. Shu bilan zanjirning xar bir darajasida korxonalar gorizantal hamkorlikni amalga oshiradi.

korxonalarni maqbul konsentratsiyasi ta‘minlash - klasterlar faoliyatini tashkil etishda konsentratsiyalashning kritik nuqtasini aniqlamasa uning iqtisodiy faolligi pasayadi. Bunda ishlab chiqarish imkoniyatidan kelib chiqib, yangi korxonalarni tashkil etish, uni joylashuvi hamda ishlab chiqarish faoliyati

uzluksizligini ta'minlash, ortiqcha ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtirishni nazarda tutadi.

ishlab chiqarishni ixtisoslashuvi va moslashuvchan muvozanatni ta'minlash - klaster faoliyatiga bog'liq xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni o'zaro hamkor korxonalari bilan ilmiy-texnik tajriba almashuvi natijasida ixtisoslashuv darajasi ortadi.

Bundan kelib chiqqan holda to'qimachilik sanoati klasterlari faoliyatini raqobatbardoshligini ta'minlashda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni integratsiyasi asosida ishlab chiqarish tuzilmasini takomillashtirish va konsentratsiyalashning kritik nuqtasini aniqlash zarur.

Ishlab chiqarishni konsentratsiyalashning ishlab chiqarish vositalaridan samarali foydalanish asosida mavjud ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishni yaxshilash asosida iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyatini yaratadi. To'qimachilik korxonalari faoliyatida ham konsentratsiyalash natijasida ishlab chiqarish hajmini ortishi asosida namoyon bo'ladi. Bitta xo'jalik yurituvchi sub'ekt doirasida moddiy resurslar, mavjud texnologiyalar va mehnat resurslaridan to'la foydalanish asosida mahsulot tannarxini kamaytirish imkoniyatini ta'minlaydi.

Ishlab chiqarishni klasterlashtirish holatiga baho berishda aksariyat hollarda ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va ishlab chiqarishni mahalliyashtirish ko'rsatkichlaridan foydalangan holda tadqiq etilgan.

I. YE. Risin, Yu. I. Treshevskiy tomonidan klasterlashtirishni baholashda quyidagi metodikadan foydalangan:

$$K_{lm} = \frac{V_{ir} \cdot V_{is}}{V_r \cdot V_s} \quad (3.1)$$

Bunda: K_{lm} – mahalliyashtirish koeffitsiyenti; V_{ir} – viloyat sanoatining i- ni ishlab chiqarish hajmi; V_{is} – respublika i tarmog'ining mahsulotlari hajmi; V_r – mintaqaning hududiy mahsulot hajmi; V_s – yalpi sanoat mahsuloti hajmi.

Yoki,

$$K_{pp} = \frac{V_{ir} \cdot P_r}{V_{ic} \cdot P_s} \quad (3.2)$$

Bunda: K_{pp} – aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi mahsulot; P_r - mintaqa aholisi soni; P – Respublika aholi soni.

Demak, ishlab chiqarishni klasterlashning asosi mahalliyashtirish va konsentratsiyalashga asoslanadi. Konsentratsiyalashning iqtisodiy samaradorligini mavjud ishlab chiqarish texnologiyalarining mutanosibligiga asoslanib, ayrim sanoat tarmoqlari va ular tomonidan yaratilayotgan mahsulotlar hajmini umumiy sanoat mahsulotlaridagi ulushi o‘zgarishi asosida baholanadi (3.2 formula).

$$K_K = \frac{Q_i^t}{Q^{max}} \quad (3.3)$$

Bunda: K_K – konsentratsiyalash koeffitsiyenti; Q_i^t – tarmoq korxonalarini tomonidan yaratilgan mahsulot hajmi; Q^{max} – yalpi hududiy mahsulot.

Andijon viloyatida joylashgan «Saxovat Teks» MCHJ va «Skorton tekstil» MCHJlar iqtisodiy faoliyati natijalariga konsentratsiyalashganlik darajasi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan (3.1.1-jadval). Andijon viloyatida to‘qimachilik korxonalarini klasterlashtirish natijasida ishlab chiqarish ko‘lami ortib borgan. Buning natijasida to‘qimachilik korxonalarining konsentratsiyalashganlik darajasi «Saxovat Teks» MCHJ klasterini Shaxrixon tumani sanoat mahsulotlariga nisbatan baholanganda 2015-yili 15,3 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2020-yili 14,7 foizga teng bo‘lgan. «Skorton tekstil» MCHJ bu ko‘rsatkich 2011-yili 0,56 foizni, 2020-yili 6,36 foizni va 2021-yili 7,78 foizni tashkil etgan. Iqtisodiy natijalardan ko‘rinib turibdiki «Saxovat Teks» MCHJning faoliyatida klasterlashtirish natijasida konsentratsiyalash koeffitsiyenti oxirgi yillarda ijobiy bo‘lgan.

3.1.1-jadval

Andijon viloyati ayrim to‘qimachilik korxonalarining konsentratsiyalashganlik darajasi ko‘rsatkichlari¹²⁸

№	Korxonalar nomi	2011-yil	2015-yil	2020-yil	2021-yil
1.	«Skorton tekstil» MCHJ	0,56	0,59	6,36	7,78
2.	«Saxovat Teks» MCHJ	0,3	2,8	14,7	15,3
3.	«Xo‘jaobod turon tekstil» MCHJ	0,0002	0,0003	0,0003	0,0003

¹²⁸ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

Demak, «Skorton tekstil» MCHJ faoliyatini klasterlashtirish asosida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni integratsiyasi ta’minlash va ishlab chiqarish tuzilmasini takomillashtirish ijobiy natija beradi.

To‘qimachilik korxonalarida ishtirokchilarni ortishi resurslardan samarali foydalanishni yaxshilaydi hamda qo‘shma loyihalarni yaratish imkonini beradi. Bu esa murakkab raqobat sharoitida bozorga moslashuvni ta’minlaydi. Bunda bevosita ixtisoslashtirish natijasida iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyati ortadi. Ixtisoslashtirishning iqtisodiy samaradorligi sanoat ishlab chiqarish xodimlarining texnik kompetentligi asosida rivojlanib, to‘qimachilik klasterlari natijalarini hududning sanoat mahsulotlariga nisbatlash asosida baholanadi. «Saxovat Teks» MCHJ klasterini amaliyotida ixtisoslashganlik darajasini (3.1 formula) asosida ko‘rishimiz mumkin.

$$K_{ixt} = \frac{\frac{V_{TQ}}{Y_{XM}}}{\frac{Q_t}{T_{TQ}}} = \frac{0,19}{0,15} = 0,79 \quad (3.1)$$

Bunda: K_{ixt} – ixtisoslashganlik koeffitsiyenti;

Q_t – tarmoq korxonalarini tomonidan yaratilgan mahsulot hajmi;

T_{TQ} – hududning to‘qimachilik mahsulotlari hajmi;

V_{TQ} – viloyat to‘qimachilik mahsulotlari hajmi;

Y_{XM} – viloyat sanoat mahsuloti hajmi.

Korxonaning iqtisodiy faoliyati natijalariga ixtisoslashganlik darajasi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan bo‘lib, 2021-yili korxonani ixtisoslashganlik darajasi 0,79 koeffitsiyentga teng bo‘lgan. Bu ko‘rsatkich 2011-yili 0,67 koeffitsiyentni, 2015-yili 0,52 koeffitsiyentni va 2020-yili 0,70 koeffitsiyentni tashkil etgan.

Amaliyotda «Skorton tekstil» MChJni ham tarkibidagi yirik ishlab chiqarish imkoniyatlaridan kelib chiqib klasterlashtirishni amalga oshirish zarur hisoblanadi. Klasterlashtirishning avfzalligini «Saxovat Teks» MCHJ klasterining quyidagi iqtisodiy natijalar asosida ko‘rishimiz mumkin (3.1.2-jadval)

3.1.2-jadval

To'qimachilik klasterlarining samaradorlik ko'rsatkichlari¹²⁹

Ko'rsatkichlar	2011 -yil	2017 -yil	o'rtacha ko'rsatkich (2011-2017)	2018 -yil	2019 -yil	2020 -yil	2021 -yil	o'rtacha ko'rsatkich (2018- 2021)	o'zaro nisbat
Klasterlashtirishga qadar				Klasterlashtirishdan keyin					
Ixtisoslashtirish koeffitsiyenti (xodimlarning texnik kopetentligi)	0,67	0,54	0,58	0,62	0,62	0,7	0,79	0,6825	1,18
Konsentratsiyalash koeffitsiyenti (texnologiyalar jamlanmasi)	0,3	3,9	1,89	8,6	8,1	14,7	15,9	11,825	6,27
Rentabellik darajasi	3,03	4,084	2,4	4,4	2,68	3,39	4,67	3,7	1,52

Demak, korxonani klasterlashtirilgandagi faoliyatida iqtisodiy ko'rsatkichlar bir muncha yaxshilangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, davlat dasturlari asosida klasterlarni qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan asosiy qoidalarni aniqlash zarur:

- **majburiy moliyalashtirish** – innovatsion faoliyatni rivojlantirish asosida moliyaviy manbalarni shakllantirish zarur;

- **mahalliy xokimiyat tashkilotlarini ahamiyati** - ixtisoslashtirish jarayonlarini amalga oshirishda klasterlar joylashgan hudud ham manfaatdor bo'lishini ta'minlash. Ustuvor yo'nalishlarni belgilashda faqat markaziy rahbariyat qarorlariga asoslanganligi ijobiy natija bermaydi;

- **uzoq muddatli moliyalashtirish**- innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashda ilmiy-tadqiqot ishlaridan tortib to mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayoniga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga qamrab oladi.

Yuqorida keltirilgan muammolarni hal etilish uchun hududlarda klasterlar faoliyatini tashkil etish, tartibga solish va rivojlantirish uchun «Qo'llab-quvvatlash markazi» tashkil etish zarur. Uning asosiy vazifasi bo'lib klasterlar faoliyatida yuzaga kelgan muammolarni aniqlash, ularni yechimlarini o'rganish, ishlab chiqarish va bozor aloqalarini yo'lga qo'yish, ishlab chiqarish faoliyati

¹²⁹ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

samaradorligini ta'minlash uchun monitoringlar olib borish, huquqiy konsalting faoliyatini tashkil etish va xalqaro standartlar asosida ishlab chiqarishni tashkil etish, nazorat qilish va aholini ish bilan bandligini ta'minlashdan iborat. Bunda klasterlar faoliyatini tartibga solish, ularni qo'llab-quvvatlash masalalariga ta'sir etuvchi omillarni inobatga olish zarur. Shu sababli klasterlar faoliyatini asosiy yo'nalishlari bo'yicha quyidagilar taklif etilgan (3.1.2-jadvalga qarang).

3.1.2-jadval

Klasterlar faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari¹³⁰

Birinchi darajali yo'nalishlar	Ikkinchi darajali yo'nalishlar
Hududlarda iqtisodiy muhitni yaxshilash maqsadida klasterlar faoliyatini takomillashtirish;	Klasterlar faoliyatini tashkil etishda nol qiymatdagi baholash orqali uni yaratish hamda belgilangan tartibda imtiyozlardan foydalanish;
Klaster tarkibidagi a'zolari o'rtasida hamkorlik faoliyatini rivojlantirish asosida innovatsion samaradorlikni oshirish;	Klaster tarkibidagi a'zolarini manzilli qo'llab-quvvatlash;
Klasterlar o'zini-o'zi moliyalashtirishiga qadar, ularni qo'llab-quvvatlash jarayonida faqat uch tomonlama, ya'ni davlat, biznes, fan spiral modelidan foydalanish;	Mikro, makro hamda mezo darajadagi iqtisodiy siyosat negizida yetakchi klasterlarni yaratish;
Hudud va tarmoqlar faoliyatida uch tomonlama spiral modelidan samarali foydalanish hamda uning ishtirokchilari o'rtasida aloqa platformalarini yaratish;	Hududlarda rivojlanmagan tarmoq klasterlarini hamda ularga xizmat ko'rsatish tizimini yaratish;
Innovatsion g'oyalarni klaster faoliyatini faqat ilg'or sohalariga emas, balki barcha sohalariga qo'llashni rag'batlantirish;	Tarmoq klasterlari faoliyatini rivojlantirishda qo'llaniladigan innovatsion loyihalaridan foydalanishda faqat yuqori texnika-texnologiyalar sohasida ularni rag'batlantirish;
Klasterlar faoliyatini rivojlantirishda konsentratsiyalash va ixtisoslashtirish asosida samaradorlikni oshirish.	Tashqi bozorlarga chiqishda klasterlarni qo'llab-quvvatlash.

Yuqoridagi belgilangan asosiy yo'nalishlar sog'lom raqobat muhiti uchun qulay bo'lgan geografik joylashuv, resurslar ta'minoti hamda klasterlar faoliyatini rivojlantirishda ijobiy natija beradi.

Demak, amaliyotda to'qimachilik klasterlarini ahamiyati kundan kunga ortib, innovatsion faoliyatni rivojlantirishga ham asos bo'lib xizmat qilmoqda. Klasterlar

¹³⁰ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

faoliyatida strategik maqsadga erishish uchun samaradorlikni oshirish yoʻnalishlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- infrastrukturani rivojlantirish asosida mahsulotlarni ishlab chiqarishdan to isteʼmolchiga yetkazib berilgunga qadar boʻlgan jarayonda ishtirok etuvchi xoʻjalik yurituvchi subʼektlarni mutanosib rivojlanishini taʼminlash;

- ishlab chiqarish majmuasini shakllantirishda zamonaviy texnologiyalar asosida bir-biriga bogʻliq, bir-birini oʻrinini toʻldiruvchi xoʻjalik yurituvchi subʼektlarni jalb etish;

- qulay investitsion sharoit - investorlarni qoʻllab-quvatlash, investorlar uchun imtiyozlar, zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish;

- mahsulotlar bozori - mahsulotlarni isteʼmoli holati, ichki bozordagi klasterlar salmogʻi, ularni eksport imkoniyatlarini oshirish orqali logistika tizimini rivojlantirish;

- texnologik zanjir – mahsulot ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va toʻqimachilik klasterlarini hududiy joylashuvi asosida raqobatbardoshlikni taʼminlash;

- ilmiy-tadqiqot va amaliy tajribalarga mablagʻ ajratishni taʼminlash asosida innovatsion infrastrukturani rivojlantirish;

- sinergik taʼsir - klaster atrofida joylashgan tarmoq va sohalar rivojlanishiga taʼsiri ahamiyati yuqoriligini hisobga olish zarur.


3.2. Toʻqimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish

BMTning savdo va taraqqiyot boʻyicha anjumani maʼlumotlariga koʻra, ishlab chiqarishning raqamlashtirish darajasi-yildan-yilga ortib bormoqda, yaʼni raqamli iqtisodiyotning dunyo YaIMdagi ulushi 2000-yili 4,5 foizni, 2018-yili 15,5 foizni va 2021-yili 23,2 foizni tashkil etgan¹³¹. Amerika Qoʻshma Shtatlari tahlil byurosi hisob-kitoblariga asosan 2010-2020-yillarda raqamli iqtisodiyotning

¹³¹ United Nations Conference on Trade and Development – BMTning savdo va taraqqiyot boʻyicha anjumani

real qo‘shimcha qiymatining o‘shish sur‘ati o‘rtacha 5,6 foizni tashkil etgan bo‘lib, yillik iqtisodiy o‘shish sur‘atidan 1,5 foizga ortib ketgan¹³². Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida ham sanoatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni asosiy negizi ham raqamlashtirishga qaratilmoqda.

Sanoat korxonalarini samaradorligiga COVID-19 pandemiyasining ta‘siri ham yuqori bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanayotgan korxonalarda ishlab chiqarish natijalari nisbatan ijobiy bo‘lgan (3.2.1-rasm ga qarang).



3.2.1-rasm. Sanoat korxonalarini samaradorligiga COVID-19 pandemiyasining ta‘siri¹³³.

Jahon mamlakatlarida sanoat ishlab chiqarish natijalari 2019-2021-yillarda davomida oylik savdo hajmi o‘zgarishi raqamli texnologiyalardan foydalanyotgan korxonalarda 6,0 foizga pastlagan bo‘lsa, raqamli texnologiyalardan kam foydalanyotgan korxonalarda 10,0 foizga kamaygan, yalpi foyda ham bunga mos ravishda kamayib borgan. Sanoatda band bo‘lgan xodimlar soni ilg‘or raqamli texnologiyalardan foydalangan korxonalarda 29,0 foizga va boshqa korxonalarda 36,0 foizga kamaygan¹³⁴. Bu o‘zgarishlar natijasida yetakchi sanoat korxonalarini sotuv hajmini oshirish asosida ishlab chiqarish samaradorligini ta‘minlash uchun tashkiliy o‘zgarishlar, masofaviy savdo, mahsulotlarni yangi turlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va yangi raqamli texnologiyalarni qo‘llashga alohida e‘tibor qaratdi hamda 2021-yil yakunlarga ko‘ra sanoatni stabil rivojlanishi ta‘minlanmoqda.

¹³² <https://www.bea.gov/sites/default/files/papers/defining-and-measuring-the-digital-economy.pdf>

¹³³ Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi

¹³⁴ United Nations Conference on Trade and Development – BMTning savdo va taraqqiyot bo‘yicha anjumani

Mamlakatimizda ham sanoat ishlab chiqarishni raqamlashtirish asosida samaradorligini ta'minlash uchun alohida e'tibor qaratilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentini 2020-yil 5 mayda «Raqamli O'zbekiston-2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» [PF-6079](#)-sonli Farmoni va 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2030-yilgacha «Raqamli O'zbekiston – 2030» dasturini amalga oshirishni taklif etdi. Shu bilan birga 2020-yil 28-apreldagi «Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-4699-sonli Qarorlarida ishlab chiqarishni raqamlashtirish asosida YaIMni kamida 30,0 foizga oshirish imkonini berishi ta'kidlangan. Bundan kelib chiqqan holda milliy iqtisodiyotimizda raqamli texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish asosiy vazifalardan biri sanaladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida to'qimachilik sanoati korxonalarini ahamiyati yuqori bo'lib, ishlab chiqarish jarayonlariga yangi turdagi raqamli texnologiyalarni qo'llanilishi natijasida mahsulotlar sifati va narxiga bo'lgan talab ham o'zgarib bormoqda. To'qimachilik sanoat korxonalarini raqamlashtirish yangi imkoniyatlar asosi hisoblanib, ishlab chiqarish vositalari, moddiy resurslar ta'minoti va sarfi, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash hamda marketing faoliyatini tartibga soluvchi jarayonlarni yagona elektron tizim orqali boshqarishga asoslanadi. Buning natijasida inson omili ishtirok etmagan holda o'zaro ishlab chiqarish aloqalari bir-biriga bog'liq virtual tarmoq orqali amalga oshiriladi.

Jahon iqtisodiy forumi tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, yaqin o'n-yillikda mexanizatsiyalashgan ishlab chiqarish jarayoni va past malaka talab qiluvchi mehnat jarayonlari to'laligicha avtomatlashtirilgan tizimga o'tishi rejalashtirilgan¹³⁵. Bugungi kunda ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtirilib, moddiy resurslar ta'minoti, birlamchi ishlov berish jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanilmoqda.

¹³⁵Г.Л.Садовский «Анализ современных тенденций цифровой трансформации промышленности». // Молодой ученый. -2017 г. -№ 14 (148). Ст. 427-430.

To'qimachilik sanoati korxonalarida faoliyatida ham raqamli texnologiyalarni joriy etish asosida mahalliy xomashyo resurslarini qayta ishlash, tayyor mahsulotlar va ularni sotish tizimini yo'lga qo'yish uchun strategik vazifalarni hal etilishi zarur. Amaliyotda ishlab chiqarish xavfsizligini ta'minlash, mahsulotlar sifatini oshirish, ma'lumotlar bazasini saqlash zarurati va samarali talabni shakllantirish uchun barcha korxonalar o'zlarining raqamli transformatsiyani amalga oshirish yo'nalishlarini belgilash talab etiladi.

To'qimachilik sanoati korxonalarida raqamli texnologiyalar tizimini shakllantirish va belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi asosiy vazifalarni belgilash mumkin:


- sanoat 4,0 holati, texnologiyalarini ishlab chiqarish tarmoqlaridagi rivojlanish xususiyatlarini baholash;
- korxonalarining raqamli faolligi holati va sohada qo'llanilayotgan raqamlashtirish strategiyalari bilan taqqoslash;
- korxonalarda 3D texnologiyalarini qo'llanish tendensiyalarini asoslash;
- ishlab chiqarish va bozor jarayonlarini mutanosib raqamlashtirishi tahlili;
- raqamlashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ahamiyati bo'yicha tasniflash.

Korxonalar faoliyatida ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, moliyaviy va tashkiliy faoliyatni raqamlashtirish asosida tartibga solish uchun «End-to-end» tizimini barcha jarayonlarga qo'llash zarur. Bunda moddiy resurslar ta'minoti, ishlab chiqarish jarayoni, logistika tizimi, xizmat ko'rsatish va korxonalarining moliyaviy iqtisodiy jarayonlarini bir-biriga mutanosib ravishda (vertikal) raqamlashtirish asosida integratsiyalashuvini ta'minlash zarur. Shu bilan birga gorizontaal integratsiya raqamlashtirishda talab etilib, korxonalar, iste'molchi va uning hamkorlarini o'zaro mos holda rivojlanishini qamrab oladi.

Ishlab chiqarishni raqamlashtirishda raqamli platformalardan foydalanish kerak. Raqamli platformalar axborot va texnologik jihatdan bir-biriga bog'liq

bo'lgan raqamli ma'lumotlar, modellar va jarayonlarni tartibga soluvchi tuzilma asosida faoliyatini tashkil etadi. Har bir tizim atrofida mol yetkazib beruvchilar, iste'molchilar, xizmat ko'rsatish bo'limlari faoliyatini mutanosib ravishda rivojlantirishga asoslanadi. Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlari nazorati, mahsulotlar sifatini boshqarish, operatsion faoliyatni tashkil etish va amaliy jarayonlar korxonaning yaxlit tarmog'ida mujassamlashgan bo'ladi. Buning asosida ishlab chiqarish va sotish hajmi korxonani raqobatbardoshligini oshiradi.


Demak, korxonalar faoliyatini raqamlashtirishda ishlab chiqarish bosqichlariga mutanosib ravishda barcha turdagi faoliyatlarini yangilash talab etiladi. Raqamlashtirishdan kutilayotgan asosiy maqsad, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hisoblanib, qaror qabul qilishni tezlashtiradi. Natijada iqtisodiy jarayonlarni o'zgarishiga olib keladi, hamda moslashuvchanlik darajasi ta'minlanadi. To'qimachilik sanoati korxonalarida bu jarayonlarni rivojlantirish buyumlar interneti (IT) asosida amalga oshiriladi (3.2.1-rasmga qarang).



3.2.1-rasm. Ishlab chiqarishni raqamlashtirish asoslari¹³⁶

¹³⁶ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

To‘qimachilik sanoati korxonalari faoliyatida ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash va ularni uzatishda bulutli texnologiyalardan (ingl. Sloud sopputing) foydalanishda ahamiyati yuqori. Bulutli texnologiyalar iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash bilan birga bir qator afzalliklarga ega. Amaliyotda bulutli texnologiyalar dasturiy ta’minot, mijozlarga xizmatlar taklifi ma’lumotlar xavfsizligi va aloqa xizmatlarini ko‘rsatadi (3.2.2-rasmga qarang).



3.2.2-rasm. Bulutli texnologiyalarning xizmat turlari¹³⁷

Keltirilgan xizmat turlari bo‘yicha bir qator imkoniyatlar mavjud.

LaaS-bulut infratuzilmasi. Korxonalar mijozlariga turli xil ma’lumotlarni taklif qiladi;

PaaS-dasturiy ta’minot. Korxonalar o‘z dasturlarini bulutli kodlashi;

SaaS-mijozlarga arzon xizmatlar sotadi va omborxonalarni ijaraga beradi;

XaaS-konsalting xizmati. Mijozlarga turli xildagi maslahatlarni taqdim qiladi;

StaaS-bulutli ombordan foydalanish. Bulutli omborni sotib olish va ma’lumotlarni saqlash;

HaaS-provayderlar bilan ishlash. Kompyuter, telefonlar va planshetlarni provayderdan sotib olish;

¹³⁷ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

IDaaS-ma'lumotlar xavfsizligi. Bulutli ma'lumotlarni xavfsizligini ta'minlaydi (barmoq izi, yuz va ko'z orqali himoya);

SaaS-bulutli aloqa servislari. Masofaviy aloqalar, ya'ni video qo'ng'iroq va b. (Zoom, online).

Demak, bulutli texnologiya asosida bulutli hisoblash bu katta ma'lumotlar bazasiga o'zaro bog'langan serverlardan tashkil topadi.

Bugungi kunda to'qimachilik korxonalarida raqamli texnologiyalarni qo'llashda bir qator muammolar mavjud:

- yuqori sifatli axborot texnologiyalarning mamlakatda ishlab chiqarilmasligi, protsessorlar, sensorlar va boshqa qurilmalar xorijiy mamlakatlardan qimmat narxda sotib olinishi;

- raqamli texnologiyalarni qo'llash uchun standartlar yetarli emasligi (texnologiyalar bozorini rivojlantirish uchun davlat imtiyozlari);

- malakali mutaxassislar yetishmasligi;


- raqamli texnologiyalarni qo'llashda ilmiy tadqiqot, innovatsion faoliyat natijalari va ilmiy ishlanmalarni joriy etish holati.

To'qimachilik korxonalarida katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlashga bo'lgan ehtiyojni ortishi natijasida «Big data»ni qo'llashga talab ortmoqda. Bu tizim orqali ma'lumotlarni qayta ishlash imkoniyati yuqori bo'lib, katta xarajat talab qilmaydi. Shuning uchun korxonalarda «Big data» qo'llash samaradorligi yuqori hisoblanadi va ma'lumotlarni qayta ishlash imkoni beradi. To'qimachilik korxonalarida «Big data»ni qo'llash quydagilarga asoslanadi (3.2.3-rasm).

Tadqiqot davrida Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan to'qimachilik sanoat korxonalarida ham raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi talab darajasida emasligi aniqlandi.

Korxonalarda innovatsion faoliyat samaradorligini baholaganimizda mehnatga haq to'lash xarajatlari tarkibida xodimlarni o'qitish, malakasini oshirish

uchun ajratilayotgan mablag‘lar yetarli emasligi, ishlab chiqarishga raqamlashtirish uchun sarflanayotgan mablag‘lardan qaytayotgan natija yuqoriligini ko‘rib o‘tdik.



3.2.3-rasm. To‘qimachilik korxonalarining raqamli portreti¹³⁸.

Korxonalarda innovatsion faoliyat samaradorligini 2-ilova ma’lumotlari asosida tahlil qilganimizda «Saxovat Teks» MCHJda 2021-yilda innovatsion faoliyat samaradorligi o‘zgarishiga bevosita bu sohadagi xarajatlar o‘z ta’sirini ko‘rsatgan.

$$Ins = \frac{(1-Is)+(1-Isr)+Ri}{3} = \frac{(1-0,08)+(1-0,06)+0,052}{4} = 0,63$$

Korxonaning innovatsion samaradorligi ko‘rsatkichi 2021-yili 0,63 koeffitsiyentga teng bo‘lgan, bu ko‘rsatkich 2011-yili 0,46 koeffitsiyentni, 2015-yili 0,61 koeffitsiyentni va 2020-yili 0,59 koeffitsiyentni tashkil etgan. Bu o‘zgarishga oxirgi yillarda ishlab chiqarishni raqamlashtirishga sarflanayotgan mablag‘ sarfi yuqoriligi ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. «Skorton tekstil» MCHJda esa innovatsion samaradorlik ko‘rsatkichi 2021-yili 0,81 koeffitsiyentni 2020-yili 0,75 koeffitsiyentni tashkil etgan.

«Skorton tekstil» MCHJda raqamli texnologiyalardan foydalanish natijasida oxirgi yillarda iqtisodiy ko‘rsatkichlari yaxshilangan. Korxonada raqamli

¹³⁸ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

Yuqoridagi 3.2.4-rasmga ko'ra viloyatdagi to'qimachilik sanoatida raqamli texnologiyalardan foydalanishning innovatsion modeli sifatida foydalanish ijobiy natija beradi. Korxonalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida sotuv hajmini ortishi natijasida mablag'larni aylanish davri-yillik 9,1 kunga kamaygan bo'lsa, mehnat unumdorligi 2,2 foizga ortgan. Texnologiyalarning bo'sh turib qolish vaqti 5,4 foizga, mahsulotlar sifatini teshirish xarajatlari 3,1 foizga kamaygan.

To'qimachilik korxonalar faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etishga ko'p mablag' talab etiladi. Lekin ortiqcha ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish, mehnat unumdorligini oshirish va mahsulotlar sifatini oshirishi natijasida qilingan xarajatlar qoplanish imkoniyati yuqori.

Demak, to'qimachilik korxonalarida raqamli texnologiyalarni qo'llash mahsulotlar eksportini ta'minlovchi asosiy omil bo'lib, sanoat 4,0 konsepsiyasini amalga oshirishda asosiy manba hisoblanadi. Buning natijasida ishlab chiqarish jarayoni, tizimlari, resurslar ta'minoti va marketig faoliyati tizimli faoliyati tashkil etiladi. Bu ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlovchi zamonaviy asoslardan biri hisoblanadi.

Sanoat korxonalarida raqamlashtirish asosida ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash uchun quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- to'qimachilik klasterlarini raqamlashtirish asosida texnologik zanjirini tashkil etish, klasterlarni hududiy joylashuvi va o'ziga xos xususiyatlari, mahsulotlarni diversifikatsiyalash asosida raqobatbardoshligini ta'minlash;

- raqamli texnologiyalar asosida raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish hamda ularning eksportini oshirish;

- ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, dasturiy ta'minot asosida xodimlar ish vaqtidan foydalanishdagi yo'qotishlarni oldini olish va ortiqcha mehnat xarajatlarini qisqartirish;

- milliy brendlarni yaratish.

3.3. To‘qimachilik korxonalarini iqtisodiy samaradorligini ekonometrik tahlili va istiqbollari

Andijon viloyatida to‘qimachilik korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirish va uning prognoz parametrlarini ishlab chiqish bugungi kunda o‘ta dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Buning uchun murakkab raqobatli bozor sharoitida to‘qimachilik korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirish asosida milliy iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlash dolzarb masalaga aylandi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida ham to‘qimachilik korxonalarini iqtisodiy samaradorligini ta‘minlash bevosita mahsulotlar hajmi, ularning realizatsiyasi, investitsiya, texnologiyalar, ishchi-xodimlar malakasi va mehnat unumdorligiga bog‘liq.

Andijon viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan to‘qimachilik sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirishda birinchi bo‘lib, investitsiyalarni jalb etish, mahsulotni sifati va uning diversifikatsiyalash, innovatsion texnologiyalar va ilmiy ishlanmalardan samarali foydalanish zarur. Shu sababli to‘qimachilik sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun quyidagi muloxazalarga e‘tibor berish lozim:

to‘qimachilik sanoati korxonalarida ilmiy-texnik, ishlab chiqarish hajmini oshirish, mahsulot turini ko‘paytirish orqali yangi modifikatsiyani yaratish;

to‘qimachilik sanoati korxonalarida iqtisodiy samaradorlik darajasi yuqori bo‘lgan tarmoq faoliyatiga investitsiya mablag‘larini yo‘naltirish orqali ishlab chiqarish hajmini oshirish zarur.

To‘qimachilik sanoat korxonalarini mahsulotlari iste‘moliga ta‘sirini aniqlash uchun ularni bog‘liqlik darajasini ko‘p omilli regressiya funksiyasi ishlab chiqdik¹⁴⁰:

$$MI = f(YHMs, SMIs, QMKs, Ni, ISHD, Ist) \quad (3.1)$$

Bunda: MI – mahsulot iste‘moli; *YHMs* - YAHMning o‘shish sur‘ati; *SMIs* - sanoat mahsulotlarining o‘shish sur‘ati; *QMKs* - qisqa muddatli kredit stavkasi; *Ni* -

¹⁴⁰ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

narxlar indeksi; *ISHD* - ish haqi shaklidagi daromadlar; *Ist* - iste'molchilar sonini o'zgarishi. Ushbu omillar ta'sirini o'rganish asosida quyidagi ko'p omilli model ishlab chiqildi:

$$MI_j = \beta_0 + \beta_1 * YHM_s + \beta_2 * SMI_s + \beta_3 * QMK_s + \beta_4 * NI_i + \beta_5 * ISHD_i + \beta_6 * I_{st} \quad (3.2)$$

3.3.1-jadval

Andijon viloyatidagi to'qimachilik sanoat korxonalarini mahsulotlari iste'moliga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar

Yil	Ln MI	YXMs	SMIs	QMKs	Ni	ISHD	Ist
2011	0,701	1,375	1,312	0,12	1,308	1,25	1,048
2012	0,694	1,233	1,122	0,12	1,043	1,19	1,016
2013	0,691	1,301	1,341	0,12	1,074	1,14	1,016
2014	0,684	1,197	1,609	0,10	1,07	1,11	1,018
2015	0,679	1,172	1,193	0,09	1,088	1,08	1,018
2016	0,673	1,158	0,711	0,09	1,10	1,11	1,019
2017	0,665	1,226	1,435	0,14	1,161	1,16	1,018
2018	0,661	1,374	1,619	0,14	1,124	1,28	1,017
2019	0,655	1,245	1,108	0,14	1,109	1,16	1,018
2020	0,649	1,134	1,310	0,15	1,105	1,18	1,020
2021	0,644	1,142	1,494	0,14	1,089	1,08	1,019

Ushbu jadval ma'lumotlariga ko'ra Andijon viloyatidagi to'qimachilik sanoati korxonalarini mahsuloti iste'moli 2011-2021-yillardagi salmog'i olingan. Mahsulot iste'moliga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha ham ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu omillarning korrelyasion bog'liqligini tekshirib chiqamiz.

3.3.2-jadval

Andijon viloyatidagi to'qimachilik sanoat korxonalarini mahsuloti iste'moliga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi korrelyasiya koeffitsiyenti¹⁴¹

	Ln MI	YXMs	SMIs	QMKs	Ni	ISHD	Ist
MI	1						
YXMS	0,46	1					
SMIS	-0,14	0,3	1				
QMKs	-0,59	0,16	0,43	1			
NI	0,23	0,55	0,08	0,15	1		
ISXD	0,21	0,80	0,23	0,43	0,52	1	
IS	0,41	0,46	0,002	-0,024	0,91	0,43	1

¹⁴¹ EViews dasturi yordamida olingan natijalar asosida tayyorlandi

3.3.2-jadval qiymatlaridan foydalanib, natijaviy omil Andijon viloyati to‘qimachilik sanoati korxonalarini mahsuloti iste‘moliga nisbatan yalpi hududiy mahsulotni o‘shish sur‘ati ($r_{MI, YHMS}=0,46$), to‘qimachilik sanoati mahsulotlarini o‘shish sur‘ati ($r_{MI, SMIS}=-0,14$), qisqa muddatli kredit stavkalari ($r_{MI, QMKS}=-0,59$), to‘qimachilik mahsulotini narx indeksi ($r_{MI, NI}=0,23$), ish haqi shaklidagi daromadlari o‘zgarishi ($r_{MI, ISXD}=0,21$), iste‘molchilar sonini o‘zgarishi ($r_{MI, IST}=0,41$) o‘rtacha zichlikda bog‘langan bo‘lib, shartga ko‘ra multikoleniarlik mavjud emasligidan kuzatilayotgan bog‘liqlik o‘rtasida regressiya tenglamasini aniqlashni Eviews dasturi orqali davom ettirish mumkin. Ushbu ko‘rsatkichlar korrelyatsion bog‘liqligi to‘qimachilik sanoati mahsulotlarini o‘shish sur‘ati va qisqa muddatli kredit stavkalari teskari korrelyatsion bog‘liqlikka ega ekanligi aniqlandi.

Andijon viloyati to‘qimachilik sanoati korxonalarini mahsuloti iste‘moliga o‘zgarishini ko‘p omilli regressiya tenglamasi asosida sifat mezonlari tekshiriladi (4-ilovaga qarang).


4-ilova ma’lumotlariga ko‘ra, har bir ta’sir etuvchi omil koeffitsiyentini ko‘p omilli regressiya modeliga qo‘yyamiz:

$$MI_j = -0.8688 + 0.123 * YXM_s - 0.001 * SMI_s - 0.508 * QMK_s - 0.195 * NI_i + 0.016 * ISHD_i + 1.618 * I_{st}$$

3.3-regressiya tenglamasiga barcha ta’sir etuvchi omillarning koeffitsiyenti qo‘yilgan. Ushbu modeldagi ko‘rsatkichlarga ko‘ra, t-styudent mezonini $\alpha=0,05$ hatolik bo‘yicha ahamiyatlilik darajasini aniqlash kerak. Shu sababli styudent mezonini 11-yil davrdagi ko‘rsatkichi $t_{Jad}=2,201$ ga teng. Ushbu koeffitsiyentga ko‘ra, har bir omilning styudent mezonini faqatgina to‘qimachilik sanoat mahsulotlarining o‘shish sur‘ati va ish haqi shaklidagi daromadi ($t_{SMIS}=[-0.049555]<t_{ISXD}=0.104784<t_{Jad}=2,201$) ahamiyatsiz bo‘lganligi uchun ushbu omillarni chiqarib qayta hisoblab chiqamiz (5-ilova).

$$MI_j = -0.8881 + 0.1304 * YXM_s - 0.4964 * QMK_s - 0.196 * NI + 1.645 * I_s$$

3.4-regressiya tenglamada ta'sir etuvchi omillarni ikkitasi chiqarilgan holatda koeffitsiyentlar qo'yilgan. Shu sababli model ko'rsatkichlarini t-student mezoni $\alpha=0,05$ qiymatida ahamiyatli darajasi 11-yil davrdagi ko'rsatkichi $t_{Jad}=2,201$ ga teng. Modeldagi ko'rsatkichlarni taqqoslaydigan bo'lsak, $t_{Ni} = [-1.256709] < t_{Is} = 1.440484 < t_{Jad} = 2,201 < t_{YXMS} = 2.420712 < t_{QMKs} = [-2.503205]$) omillar taqqoslangan. Yuqoridagi olingan student mezonlari bo'yicha ko'rsatkichlar retrospektiv sifat mezonlari MAPE (Mean Absolute Percentage Error – o'rtacha mutloq foiz xatosi) va TIS (Tayl inequality soeffisient – Teyl prognoz aniqligining muqobil o'lchovi) bilan tekshirish talab etiladi (3.3.1-rasm).



3.3.1-rasm. Regressiya parametrini retrospektiv MAPE va TIS sifat mezoni ko'rsatkichlari¹⁴²

3.3.1-rasm orqali retrospektiv sifat mezoni ko'rsatkichlarini aniqladik, ya'ni $MAPE=1,1013$ bo'lib, bu o'z navbatida $MAPE=1,1013 < 10$ prognoz aniqligi yuqori va $TIS=0,0066 < 1$ prognoz aniqligi qanchalik yuqori bo'lsa, koeffitsiyent shunchalik nolga intilishidan 3.4-regressiya tenglamasi parametrlarini barchasini ahamiyatligi kelib chiqadi.

Fisher mezoni bo'yicha olingan natijalarga ko'ra $F_{Jad}=4.84$ ga teng bo'lib, hisoblangan Fisher qiymati $F_{his}=4.696647$ tengligidan $F_{Jad} > F_{his}$ shartga binoan 3.4-regressiya tenglamasining ahamiyatligi hamda $d_l = 0.56 < d_w = 2,086656 < d_u = 2.21$ teng bo'lganligi bois, avtokorrelyasiya mavjud emasligidan tenglamaning ishonchli

¹⁴² EViews dasturi yordamida olingan natijalar asosida tayyorlandi

va adekvatligi kelib chiqadi. Bugungi kunda Andijon viloyati to‘qimachilik sanoati korxonalarida mahsulot iste‘moli qo‘shimcha 0,15 mln. so‘mga oshirish imkoniyati aniqlangan.

3.4-regressiya tenglamasidan foydalanib, ta‘sir etuvchi omillarni vaqt ($t=12$) bo‘yicha chiziqli tenglama orqali aniqlaymiz: (6-ilova)

Iste‘molchilar sonini o‘zgarishi: $IS=1,02745-0,0011*t$.

Barcha omillarni o‘zgarish tenglamalari aniqlandi:

YAHMning o‘shirish sur‘ati: $YXMS=1,3045-0,012*t$;

Qisqa muddatli kredit stavkasi: $QMKS=0,1003+0,0037*t$;

Narxlar indeksi: $NI=1,1461-0,0051*t$;

Iste‘molchilar sonini o‘zgarishi: $IST=1,02745-0,0011*t$.

$MI_j = -0.8881 + 0.1304 * YXM_s - 0.4964 * QMK_s - 0.196 * NI + 1.645 * I_s$.

Yuqorida keltirilgan vaqtga bog‘liq trend modellari yordamida to‘rt omilli prognoz parametrlari ishlab chiqilgan (3.3.3-jadvalga qarang).

3.3.3-jadval

Andijon viloyati to‘qimachilik sanoati korxonalarini faoliyatiga ta‘sir etuvchi omillarni baholash asosida mahsulot iste‘moliga 2026-yilga qadar prognoz parametrlari¹⁴³

Yillar	Mahsulot iste‘moli (mlrd so‘m)	YAHM (mlrd so‘m)	Qisqa muddatli kredit stavkasi	Narxlar indeksi	Iste‘molchilar soni (ming kishi)
2022	5676,5	50818,3	0,1447	1,0849	3253,5
2023	6609,2	58364,8	0,1484	1,0798	3296,3
2024	7626,3	66331,6	0,1521	1,0747	3336,0
2025	8796,2	74589,9	0,1558	1,0696	3372,5
2026	10116,5	82981,3	0,1595	1,0645	3405,8

Andijon viloyati to‘qimachilik sanoati korxonalarini mahsulot iste‘moliga ta‘sir etuvchi omillarni baholash asosida 2022-2026 yillar bo‘yicha prognoz parametrlari ishlab chiqilgan. 2022-yilda ichki bozorda mahsulotlar iste‘moli 5676,5 mlrd. so‘mga ortgan. YAHMning o‘shirish sur‘ati 16 foiz, qisqa muddatli kredit stavkalari 14 foizga, narxlar indeksi 8 foizga ortishi va iste‘molchilar soni o‘zgarishi 1,4 foizga oshishi prognoz qilingan. Mahsulotlar iste‘moli 2026-yili 10116,5 mlrd.

¹⁴³ EViews dasturi yordamida olingan natijalar asosida tayyorlandi

soʻmni tashkil etib oxirgi yillarda ortgan. Demak, Andijon viloyati toʻqimachilik sanoati korxonalarining mahsulot isteʼmoli ortishi prognoz qilingan.

Toʻqimachilik korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi oʻzgarishi bilan uning faoliyati samaradorligi ham oʻzgarib bormoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari qatorida diversifikatsiya samaradorligining ham prognoz parametrlar ishlab chiqildi. Diversifikatsiya samaradorligiga taʼsir etuvchi omillar sifatida mahsulot ishlab chiqarish hajmi, sotilgan mahsulot hajmi, mahsulotlar turi, mahsulot tannarxi va sof foyda koʻrsatkichlari olindi. Omil va manba sifatida olingan koʻrsatkichlarning 2026-yilga qadar prognoz qiymatlari hamda iqtisodiy samaradorlik natijalari aniqlandi.

Mahsulotlar diversifikatsiyasi samaradorligini prognoz parametrlarini ishlab chiqishda «Skorton tekstil» MCHJ, «Saxovat Teks» MCHJ va «Xoʻjaobod turon tekstil» MChJlarning 2011-2021-yillardagi iqtisodiy koʻrsatkichlari asosida amalga oshirgan tahlil natijalarimiz va ularning oʻzgarish tendyensiyalarini eʼtiborga olganmiz. (3.1-paragraf).

Amalga oshirilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, yuqoridagi omillar asosida trend modellari yordamida omillar qiymatini 2026 qadar ekonometrik model asosida prognozini amalga oshirdik. Andijon viloyatidagi ayrim toʻqimachilik sanoati korxonalarini diversifikatsiya samaradorligini prognoz koʻrsatkichlari 3.3.4-jadvalda keltirilgan.

3.3.4-jadval

Andijon viloyatidagi ayrim toʻqimachilik sanoati korxonalari diversifikatsiya samaradorligi bilan bogʻliq koʻrsatkichlarni 2026-yilga qadar moʻljallangan prognoz koʻrsatkichlari oʻzgarish surʼati¹⁴⁴.

Yillar	«Skorton tekstil» MCHJ	«Saxovat Teks» MCHJ	«Xoʻjaobod turon tekstil» MCHJ
	Mahsulotlar diversifikatsiyasi samaradorligi	Mahsulotlar diversifikatsiyasi samaradorligi	Mahsulotlar diversifikatsiyasi samaradorligi
2023-y.	0,11	0,09	0,22
2024-y.	0,12	0,091	0,25
2025-y.	0,12	0,11	0,27
2026-y.	0,14	0,13	0,31

¹⁴⁴ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

Viloyatdagi to'qimachilik korxonalarining iqtisodiy natijalari nafaqat tashqi bozorda raqobat kuchliligi bilan, balki ichki bozorda ham ishlab chiqarish kuchlarni to'xtovsiz rivojlanib borayotganligi uchun mahsulotlar bozorini kengaytirishga harakat qilmoqda.

Tahlilliy ma'lumotlarga ko'ra ham 2021-yilni bazis-yil sifatida tanlab olingan bo'lib diversifikatsiya samaradorligi 2026-yilga qadar ortib borishi kuzatilgan bo'lib, «Skorton tekstil» MChJda 2021-yili 0,091 koeffitsiyentdan 2026-yili 0,14 koeffitsiyentga ortishi kutilayotgan bo'lsa, «Xo'jaobod turon tekstil» MChJda 0,16 koeffitsiyentdan 2026-yili 0,31 koeffitsiyentga ortishi aniqlangan. Natijada korxonalarni sotish rentabelligi ko'rsatkichi ham ortib borishi aniqlandi.

Demak, to'qimachilik sanoati korxonalarida mahsulot ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash nafaqat sanoat tarmog'ini balki iqtisodiyotimizni barcha tarmoqlarni mutanosib rivojlanishini ta'minlovchi manbalardan biri hisoblanib, natijada yangi turdagi ishlab chiqarishni o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalarini modernizatsiyalash, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va mahsulot hajmini oshirish imkoniyati yuqori.

Iqtisodiy samaradorlikni prognozi mehnat resurslari natijalarinin yaxshilashni ob'ektiv zarurligi ishlab chiqarish vositalaridan foydalanishni qiyosiy tahlil qilish uchun, moddiy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini baholash uchun, to'qimachilik tarmog'ini rivojlantirish imkoniyatlarini baholash va iqtisodiyotimizdagi mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish uchun ahamiyatli hisoblanadi. Bularning barchasi to'qimachilik korxonalarini iqtisodiy samaradorligi masalasi dolzarbligini hamda korxonalarida mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlaridan foydalanish natijalarini yaxshilash muhimligini ko'rsatib beradi.

To'qimachilik korxonalarini mavjud resurslaridan foydalanish samaradorligini baholashda mahsulotlar hajmi, sanoat ishlab chiqarish xodimlari tarkibi o'zgarishi, ish haqi va mehnat unumdorligi ko'rsatkichlarini o'zaro bog'liqligi, fond bilan qurollanganlik darajasi, fond qaytimi, mehnat xarajatlari

rentabelligi va mahsulot birligi uchun moddiy resurslar sarfi o'zgarishini baholash uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalanildi.

Yuqoridagi tahlil natijalaridan kelib chiqqan holda «Skorton tekstil» MCHJ, «Saxovat Teks» MCHJ va «Xo'jaobod turon tekstil» MChJlarning iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni 2026-yilga qadar mo'ljallangan prognoz parametrlarini aniqlash maqsadga muvofiq.

Belgilangan vazifani amalga oshirish uchun qilingan hisob-kitob natijalariga ko'ra «Skorton tekstil» MCHJ, «Saxovat Teks» MCHJ va «Xo'jaobod turon tekstil» MChJlarning 2011-2021-yillardagi iqtisodiy natijalari dinamikasiga asosan, ularning prognozlari aniqlandi (3.3.5-jadvalga qarang).

3.3.5-jadval

Andijon viloyatidagi ayrim to'qimachilik sanoati korxonalari iqtisodiy samaradorligi bilan bog'liq ko'rsatkichlarni 2026-yilga qadar mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari o'zgarish sur'ati¹⁴⁵.

Yillar	«Skorton tekstil» MCHJ				«Saxovat Teks» MCHJ				«Xo'jaobod turon tekstil» MCHJ			
	Mahsulot tannarxida mehnat xarajatlarining ulushi	Fond qaytimi (so'm)	Mahsulot birligi uchun moddiy resurslar sarfi (so'm)	Rentabellik darajasi (foiz)	Mahsulot tannarxida mehnat xarajatlarining ulushi	Fond qaytimi (so'm)	Bir so'mlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan moddiy resurslar (so'm)	Rentabellik darajasi foiz)	Mahsulot tannarxida mehnat xarajatlarining ulushi	Fond qaytimi (so'm)	Bir so'mlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan moddiy resurslar (so'm)	Rentabellik darajasi foiz)
2022-y.	14,4	1,95	0,45	2,5	5,0	1,74	0,35	4,6	23,0	2,39	0,46	4,9
2023-y.	15,3	1,89	0,45	2,6	6,2	1,51	0,36	5,2	22,4	2,88	0,46	5,2
2024-y.	16,1	2,04	0,46	2,8	6,3	1,44	0,36	4,9	22,6	3,08	0,46	5,4
2025-y.	17,2	2,11	0,47	2,9	6,5	1,51	0,37	5,8	21,2	3,22	0,46	6,2
2026-y.	17,0	2,22	0,49	3,2	5,8	1,41	0,37	6,2	20,3	3,65	0,45	7,1

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, «Skorton tekstil» MCHJ,

¹⁴⁵ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

«Saxovat Teks» MCHJ va «Xo'jaobod turon tekstil» MChJlarda iqtisodiy samaradorlikni prognoz ko'rsatkichlari o'zgargan. 2026-yilga qadar mo'ljallangan prognoz parametrlari shuni ko'rsatmoqdaki korxonalarda mahsulot tannarxida mehnat xarajatlarining ulushi «Skorton tekstil» MCHJda 2022-yili 14 so'mdan 2026-yilga qadar 17 so'mga ortishi aniqlangan bo'lsa, «Saxovat Teks» MCHJda bu ko'rsatkich o'rtacha 5 so'mni tashkil etgan. «Xo'jaobod turon tekstil» MChJda mahsulot tannarxida mehnat xarajatlarini salmog'i 2022-yili 23 so'mdan 2026-yili 20 so'mga kamayishi aniqlangan. Korxonaning iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlardan biri fond qaytimi ko'rsatkichi hisoblanadi.

Bu ko'rsatkich prognoz davrida barcha korxonalarda ham ijobiy o'zgarishi aniqlangan. Korxonalarda mahsulot birligi uchun moddiy resurslar sarfi prognozi shuni ko'rsatmoqdaki «Skorton tekstil» MCHJ, «Saxovat Teks» MCHJlarda ortib borgan bo'lsa, «Xo'jaobod turon tekstil» MCHJda 2022-yili 2,39 so'mni 2026-yili 3,65 so'mni tashkil etishi aniqlangan.

